

821  
R-5d

# Nurali QOBUL


YETTIQLIM  
**XOQQONI**  
yoxud ahd va

# TAXT



TEMLÝYLAR  
EPOPEYASI

# Tarixiy roman III



821  
Q-52

Nurali QOBUL

Q 52

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока  
Количество предыдущих  
выдач \_\_\_\_\_

# TEMURYLAR

epopeyasi

YETTI IQQLIM XOQQONI

Tarixiy roman

III

-2236-

OZBEK TONGUNI SENGIRNAMING  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIN VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILYOVATI CHIRCHIQ  
BAVLAT PEDAOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
1-FILIALI

Toshkent  
"Ma'rifat bitiklari"  
2020

## BIRINCHI BOB

Qobul, Nurali.

Yetti iqlim xodoni [Math]: tarixiy roman / N. Qobul.  
– Toshkent: Maʼrifat bittikpari, 2020. – 320 b.

Men kofir demoqqa, oʻzimdin oʻzga xoqon yoʻq,  
lymonim butdir olamda, ijmonimdek lymon yoʻq.  
Muallimonlikda men tanho, edim bu dahr aro, doʻstlar,  
Ayar men ham kofir boʼism, bu dunyoda musulmon yoʻq.

### Ibn Sino

UO'K: 821.512.133-311.6

Taqrizchi:

Baxtiyor Nazarov – OʻZ FA akademigi.  
Ashraf Ahmedov – tarix fanlari doktori, professor.

Sulolaning oila tashvishi bosh malika Bibixonim  
zimmasida edi. Bolalarning oʼqishi va odob-axloq  
sabogʼini olmoqlarini Saroymulkxonim uzuksiz na-  
zorat qilardi. Amirzoda Jahongir Muhammadning  
oʼlimidan soʼng Xonzoda beginning taqdirini oylagan  
Saroymulkxonim ham bu xususda hazrat bilan  
boʼzlashmoqqa fursat kutar edi.

Toxtamishning elchisini yoʼichi etgan Temur, shom  
nomozidan soʼng bosh malika huzuriga yoʼnaldi.

– Sizni koʼrsam barcha tashvishlarimi unutaman  
Bibim, – dedi Temur ohistagina Saroymulkxonim-  
ing qoʼlini kaftiga olib silar ekan. – Ahvolingiz yax-  
shimi? Bolalar va nevaralar tashvishi sizni toliqtirib  
qoymayotirmi, malikam? – koʼngil soʼradi mehrli  
ohangda.

– Butashvishlarsizga boʼlgan mehrusogʼinchimning  
mevalaridur, hazratim. Sizni oʼzlagan damlarimda ular  
ila ovunamen, – javob qildi sogʼinch toʼla ovoz bilan  
Bibixonim.

– Siz bor ekansizki, mening bu tarafdan koʼnglim  
toʼq. Avlodimizdan noqobil, raiyatning ensasini qotira-  
digan inson yetishib chiqmasligi lozim.

– Xonzoda beginning ahvollari nechuk? Kayfiya-  
ti qalay? – past ovozda soʼradi Temur xona toʼridagi  
banoras koʼrachaga ogʼir choʼkarkan.

– Shu xususda siz ila maslahatlashmoq niyatida  
edim, hazratim, – muhokaması kutilayotgan masalaga  
oʼtdi Bibixonim.

"Yetti iqlim, hoqoni" romani "Temuriylar" epopepi-  
yasinining uchinchi kitobidir. Siz ushbu asarda ulugʼ  
Jahongir, Amir Temurning buyuk sarkarda, ulkan dun-  
yoviy davlat arbobi sifatida yetti iqlim osmonidagi yul-  
duzi portay boshlagan dastlabki tarixiy onlarni haya-  
jonla kuzatib, jonli guvohiga aylanasiz.

ISBN 978-9943-5832-6-9

— So'ylang. Bu holatdan men ham bezovtaman. Biror chora-tadbir ko'mmog'imiz joiz, malikam.

— Amirzoda Mironshoh Mirzo ham balog'atga yetgan azamat bir yigitidur. Siz ma'qul ko'sangiz Xonzoda begimni ul kishiga nikohlab bersak degan erdim. Katta qardoshining farzandiga ota bo'ilib, bag'riga bosib yurarmidi degan umiddamen, — muddaoga ko'chdi bosh xonim.

— Ma'qul fikr. Biz eskiturklarda shunday odat bo'lgan. Biroq bu xususda shayxulislom bilan so'zlashib, fat vosini olmoq lozim bo'ladi, — deb javob qildi Temur.

— Jyanini amakisi bag'riga olsa bu ulug' savob hazrat. Gulday kelinimizni birovning qo'liga topshirib boladimi?

— Haqsiz. Bu masalani oxiriga yetkuzung. Siz ne desangiz va ne ishni lozim ko'sangiz roziman. Bu savobli ishlaringiz ajirini Alloh berajek.

So'ngra Temur Amir Boboturkning taqdirini, uning Salima Sulton begimga bo'lgan muhabbatini so'zlab berdi. Ular anchagacha suhbatlashib o'tirdilar.

Temur Turon yurtini birlashtirganiga o'n yildan oshgan, endi unga hech bir davlat yoki saltanat taxid soloimas, uning shuhrati uzoq ellarga tarqala boshlagandi.

Karvomboshilar va savdogarlarning Xuroson, Eron haj safariga borib keluvchilarning bezovtaliklarni eshit-gan Temur hududlarni tartibga kelitirish lozimligi haqida o'yldi. Biroq bu yurtlarning hukmdorlari shunchaki bir maktub bilan muammoni hal etib qo'ya qolmaydilar. Ularga qat'iy talab qo'yib, masalani ochiq-oydin hal etmoq vazifasini yuklamoq lozim bo'ladi.

Davlatning muhim ishlarini muhokama etmoq uchun Keshda qurultoy chaqirildi. Viloyatlarning hokimlari, amirlar, beklar va mingboshilar yig'iladigan bu anjumanga Hirot hokimi Malik G'iyosiddin Pir Ali ham chaqiritirildi. U Temurning xos chopari Temur Ma-

lliqa hurmat-ehtirom ko'satdiyu, biroq Keshga kelmoqni orqaga suraverdi. Chopar Samarcand yo'lliga hikarkan, Hirot hokimidan Amir Temur hazratlariga berilajak javobni aytishini so'radi.

— Amir hazratlarining huzuriga bormoq, biz uchun hozirdur. Biroq elchi etib hech bo'imaganda ulug' amiritaridan birortasini yuborganda ham boshqa gap girdi, — deya mujmal javob qildi Malik G'iyosiddin tiliga viza bahona kelmay.

Temur, Malik G'iyosiddin Pir Alining taysallayotjanini fahmladi. Shunday bo'lsa-da, Xoja Sayfuddinni elchi qilib arzigullik sovg'a-salom, samimiy ohangdag'i o'stilik, birodarlik va hamkorlik maktubi bilan Hirotga jo'natdi.

Xoja Sayfuddin Hirotga jo'nab ketar ekan, Temur tohir tarixchi bilan xos kitobchisi mavlono Orif Burolyni huzuriga chorladi. Qodir qissaxonni ham taklif elshlarni tayinladi. Alp Turkashbek va Boboturk bilan ular yetib kelgunga qadar suhbatlashib o'tirdi. Ularga Malik G'iyosiddin Pir Alining ilgari tobelik va izzat-hurmat bildirgani holda bugun so'zidan qaytayotganini aytdi.

— Bizga uning bir dinori yoki bir parcha yeri kerak emas. Dunyoning barcha yeri suvi, osmonu er osti boyligi Allohg'a tegishlidir. Bu davlat, boylik va hududlar barchamizdan qolajak. Hech kim uni u dunyoga orqalab ketmaydi. Jahoni zabit etgan Iskandar Zulqarnayn ham bo'sh qo'i bilan ketgan. Biroq atrofimizdagи hududlarda joylashgan barcha xonu, bekliklar o'zlarini hokimi mutloq his etadurg'on bo'ilib qoldilar. O'tgan ham, ketgan ham ular bilan hisoblashmog'i kerak. Ular bizga bas kelishiga ishongan kuni kechmishdagi kabi yurtimizga bostorib keladilar. Mana o'n yildirki, amir Qamariddinning Andijonni talaganini hisobga olmasak, Turon yurtiga kimsa yomon niyatda oyoq bosgani yo'q. Inshoolloh tirk ekanmiz, yurtimiz bundan buyon g'anim izini ko'rmag'ay. Malik G'iyosiddin yaxshi so'z

va sulh bilan esh bo'lmaydurg'on ko'rindur, – dedi Temur mulhaza ohangida suhbatdoshlarning fikrin bilmoq niyatida.

– Turk xoqonligi davrida deysizmi, Qoraxoniylar yoki Maxmud G'aznaviy zamoni dami, Xorazmshohlar Chingizzon vaqtida ham bu hududlar bizning tasarrufimizda bo'lgan. Xalqlarimiz birga, ahil-inoq yashaganlar. Pir Ali bizga yo'idosh bo'lsa faqat yutadi, – javob qildi Boboturk.

Shu payt eshik og'asi chaqirilgan uch kishi kelganligini bildirdi. Ko'shk tomon mavlono Orif Buxoriy, Tohir tarixchi va Qodir qissaxonlar kelishardi. Dasturxonchi o'rtaga turli tuman yemaklar, sharbat, qimiz, qimron va qo'y ayronni keitirdi. Mehmonlarga patnisda birmabir uzatdi-da, taizim bajo keltirib, tisariqancha chiqib ketdi.

Temur va suhbatdoshlari mehmonlar bilan orinlaridan turib, samimiyat ila ko'rishdilar. Biroz fursatdan so'ng esa xos munajjim mavlono Badriddin ham kelib davraga qo'shildi.

Temurning bu fozillar ila suhbat Keshning xushmanzara Oqdaryo nahri bo'yida qurilgan muhtasham qo'shkida davom etardi. Majnun va sambittollar sochini yuvayotgan billur kabi timiq daryo goh to'qinlanib, goh sokin oqar, turli quishlarning qulqolqarga o'mashib qoladigan sayrog'i kishi ko'nglini yayratardi. Tog' tarafidan archa va kiyik o'tining xushbo'y isi dimoqqa urilar, bu go'zal tabiat qo'yinda inson uning o't-o'ian yoki qushkabi bir bo'laliga aylanardi. Oqdaryoga qo'shiladigan kichik bir irmaq bo'yida oshpazlar qo'zi go'shtidan aracha o'tinida tandir kabob tayyorlashar, chog'roq qozonda shor'va qaynardi.

– Turinglar birodalar, avval biroz aylanib kelaylik, oshchilar bilan suhbattashib, o'zimizning ham tandirkabob tayyorlagan damlarimizni eslaylik, – dedi Temuryuziga fotiha tortib o'midan qo'zg'olalar ekan. O'torganlar Buyuk amirga ergashdilar.

– Yo'l-yo'lakay zira va kiyik o'ti teramiz. Qani ko'ramiz, kim eng ko'p va yaxshisidan terar ekan, – dedi Temur suhbatdoshlarni adir tomon yetaklarkan. – Hu yerlarga mayday katta mollar o'malamagan. Zira illi kiyik o'ti ko'karib turgan bo'lsa kerak. Zira bilan kiyik o'il kamdan-kam joyda birga o'sadi. Bu yerda esa ikki-harobar qiyg'os gullab yotadi. Hozir ayni zirani terib iladigan fursat. Kiyik o'tini istagan paytda terib olsa haveradi, – hikoya qilib borar edi Temur. – Bolalijinda xuddi shu yerga kelib, chalqancha yotgancha emonga termulardim. Quş uyquisi kabi, o'tdi ketdi u damlar. Bu ikki ziravorni temoqda bir sir bor. Uni har kim o'z uthshini tergandan so'ng aytaman, – deya ilk bor o'zi ishga kirishdi.

Har kim o'z holicha bir qo'lliga zira va bir qo'lliga kiyik olli tera boshladi. Hovuchlari to'lganda quyiga endilar.

– Barchaning zirasini hidab ko'ramiz, – dedi Temur o'zining kaftidagi bir hovuch zirani birma-bir hidatib ko'rarkan. – Kimki adashib yovvoyi zira tergan bo'lsa hidi bo'lmaydi. Aralash tersa ham hidi yaxshi bo'lmaydi.

Barcha barobar kimning zirasi tabiiy va kimniki yovvoyi ekanligini aniqlashga kirishib ketdi. Temur, Boboturk va xos munajjim Badriddinlarning tergan zi-risi yaxshi deb topildi. Qolganlarnikiga xashak qo'qili yovvoyi zira aralashgan edi. Ular tergan ziravorlarni oshchilarga berdilar. Obid bakovuning tandir ustini qanday qilib archa shoxlari bilan berkitib, ustiga tuproq tortishini tomosha qildilar. So'ngra gurunglashib, ko'shka qaytdilar.

– Muhtaram Tohirbek! Siz bizga Hirot tarixi haqida bilgi bersangiz. Yanglishmasam bu yerlarni ilgari ham, hozir ham Turon yurtining janubi deb ataydilar. Bizi ga bu haqda ma'lumot bera bilasizmi? – dedi Temur yig'ilganlar dasturxon atrofidan o'z joylarini olar ekan. – Hirot, Xurosondagi Nishopur, Balx va Marv kabi eng yirik shaharlarning biridur. Tabiat mo'tadil, ob-ha-

vosi qulay bir mintaqar erur. Uning tabiatini bizning Keshga o'xshab ketadur. Xurosning poytaxti sanaluvchi bu shahar, g'oyat eski va qadimiydur. Shaharning Iroq Xush, Maydon, Muluk va Qipchoq kabi besh mash hur darvozasi bor. Shahar arkinining maydoni bir farsav keladur. Arning to'itta burji bo'lib Ali Asad, Harif, Hol va Shamoniyon deb ataladi. Bu ulug' vor ark Qipchoq va Muluk darvozalari o'rtaasida joylashgandur. Hirotgil G'azora, Injil, G'urvon, Turoniyon, Samoyon, Parvona, Sabqa, Havodashtak, Kamrog, Advon va Tizon kab o'ndan ortiq buluk qaraydi. Aholisining aksari turkiy va forsiy tilli kishilardur. Dini islam bu yerdagi muqimdu. So'rovlarining bo'lsa bosq ustiqa hazrat, - javobini tutdi Tohirbek.

- Tashakkur sizga muhtaram birodar. Bu yerdagi hukmdor bizning sultanimizni avval boshdan tan olib kelardi. Biroq keyingi paytda hech bir asos bo'lmagan holda o'zini bizdan olib qochmoqda. Qurultoyimizga turli bahonalarni ro'kach qilib kelmaydur. Yosh bola so'ylamaydigan sababurni so'ylaydur. Ne chora-tadbir qo'llamoqqa boshim qotib qoldi muhtaram do'stlar. Bu xususda maslahat bera bilurmisiz? Men amir va lashkarboshilardan oldin sizdan maslahat so'rab, ken ustiga ot qo'ysak. Lashkarimiz o'z-o'zidan ko'payib, kuchayib ketdi. Quvvatini vujudiga sig'dira olmay savashmoq uchun bahona axtarmoqda. Zotan qili-chini qindan chiqargan odam bahona qidirmaydi. Haj safari va karvonlar xavfsizligini ta'minlamoq ham atrofimizdag'i bebosh hokimlar tizzigini tortib turmoqni taqozo etmoqda.

- Imkonni bo'lsa ishni, Malik G'lyosiddin Pir Alini yax-rati oliylari. Siz shu paytgacha nohaq hech kimning burnini qonatmaddingiz. Arqonni uzun tashlang. Erta-indin Pir Alining o'zi tavba-tazarru qilib kelib qolar, - dedi mavlono Orif Buxoriy.

= Oani, endi ish siz aytganchalik oson ko'chsa. Malik G'lyosiddin va uning eli ojar, arzimagan narsa inun yotib savashadigan qavmdur. Ularni ilgarididan illurmen. Ish oson ko'chmaydurg'onga o'xshaydur, mavlono, - dedi Temur mavjanib oqayotgan suvga likilar okan.

= Hazrat! Siz barchamizga ulamolar sultonni Sayid Sharif Juzjoniy hazratlarining maktubini o'qib bersan-  
qqa o'zimni hali ojiz deb o'ylaganim bois bu haqda og'iz ochmadim. Lozim topsangiz mana xat. O'zingiz o'qib bering, - deya maktubini amir Boboturkkka uzatdi.

Boboturk maktubni olib qiroat bilan o'qiy boshladi.  
= «Islam olamining tayanchi, raiyatning ulug' q'amxo'ri», Turon mulkinning Buyuk Amiri Temur Muhammad Tarag'ay hazrati olyilarig'a! Islam ulamolarining barchasi bir og'izdin ittifoq bo'lib aytg'anlarki, Alloh taolo hazrat risolatpanoh payg'ambarimiz, unga langri taoloning marhamattari va salomlari bo'lsun, dinini tarqatish uchun har yuz sanada bir kishini dinni yangilovchi sifatida ixtiyor etgan. Sakkizinchchi yuz yil-likda Amir Temur Sohibqiron haqiqiy dinni rivojlantiradi va unga rag'bat beradi degan umiddamiz» - deya yozadilar Sayid Sharif Juzjoniy, - deb maktubni o'qidi amir Boboturk.

= Darvoqe muslimmon olami dinimiz paydo bo'libdurki, g'ala-g'ovur, to's-to'polon. Mo'min muslimmonlar haqu nohaqni ajirata olmay ovori sarsondurlar. Islomda yetmish ikkita botil mazhab paydo bo'libdur. Alarni bartarat etib, haq mazzabni, aqli sunnat va jamaoga rivoj bermoq lozim, - suhabatga qo'shilidi xos munajjim mavlono Badriddin. Darvoqe islam olami parokandadur, - dedi Qodir qissaxon. - Nuh alayhissalomming avlodlari bir-birini

yeb, dinu millatini yo'qotmoqda. Halokuxon saltanatlari, Jurjonda cho'poniyalar, Forsda muzaaffariylar, Sabzavor birlan Isfaroinda sarbadorlar, Xurosonda esa kartlar o'zlarini hokimi mutloq e'lon etib, islam olamini parchalamoqdalar.

— Alloh dilimizga neni solib, neni buyursa shub'o'ladir, — dedi Temur o'yga tolib.

Suhbatdoshlar issiq tandirkabob ichishib, uzoq o'tirdilar. Barchalarning ta'bliari ravshan, dillari orzu umidlarga to'liq edi. Yurt tinchligi, ulus birligi, elning hayoti yaxshilanib borayotganligi barchaning ko'ngliga kelajakga umid ko'zi bilan qarash his-tuyg'usini solgan edi.

— Erta peshin namozidan so'ng keling, — dedi Temur yulduzlarini ishga solib, ko'makka chaqirsangiz ham sizni shatranjda tiz cho'kitiraman, — hazilashdi gap so'ngida.

— Goh pirdan, goh muriddan, — bo'sh kelmadni mavlono Badriddin. — Biz yutqazsak bir g'arib munajijimiz. Indamay yelkamizni qisib ketaveramiz. Ammo o'zlarini yutqazsalar oson bo'imasa kerak deb o'yayman. Kechasi uslash lozim, — javob qaytardi munajijim ham bo'sh kelmay.

— Jo'jani erta peshindan so'ng sanasa ham bo'laveradi, — dedi mehr bilan munajijimning yelkasi va beg'ubor odamlarsizlar. Agar atrofimda sizlar bo'lmaganingizda hayotim ne kechardi deya o'ylab o'yimga yetolmayman. Sizlarni menga do'st va maslakdosh qilgan Allohimga shukrlar bo'lsin! Zotando'st kerak, Qani endi har biringizing hayotfingizdagi baracha og'ir-yengil kuniaringizda yoningizza bo'llib, sizlarga cheksiz yaxshiliklar qilsam. Men uchun bundan buyuk saodat bo'imag'ay!

Shu so'zlarni so'zlaganda, beixtiyor uning ko'zlarini yishovladi. Barcha do'stlarini quchoqlab, bag'riga minib xayrashdi.

— Astagfirulloh! — deyishdi ular, birin-ketin.

Erta kuni ertalab Alp Turkashni huzuriga chorla-

ning taqdiri haqida so'rab surishtirdi. Hirotga ket-

indi Temur tashvishli qiyofada. — Yangilik bormi?

— Bu yerde bir gap borga o'xshaydur Turkashbek,

— Bor hazrat! — Pir Ali Xoja Sayfuddinni ziyoftma-

liyofat olib yurib tinkasini quritibdi. Har bir so'zida

bilining nomingizni tilidan qo'ymas emish. Kerak bo'sha Temurbek hazratining otiga xutba o'qitib,

lenqa zarb etamiz degan gaplarni ham so'zlabdi. Xoja Hayfuddin zaharlab o'dirib qo'ymasaydi deya, yuragi

ini hovuchlab yurgan emish. Uning ko'z o'ngida esa

navash tayyorgarligi ko'rimoqda ekan. Hirot qal'asi

devorlari mustahkamlanib, ta'mirlab bo'linibdi. Uzunligi

likl farsah keladigan Shahriston devori qurilib, shahar

altrofidagi o'tiz mahalla bog'-chorbog'lari bilan o'ralib,

shahar hududiga qo'shib olingan. Uzoq vaqtga yetgu-

lik oziq-ovqat omborlarga keltirilgan. Xoja Sayfuddin

uzog'i bilan ikki oyarda yetib boraman, hazrat bezovta

bo'limasunlar. Dushmanning sirtida emas, ichida bo'

degan so'zga amal qilib, barcha voqeя va hodisalarni

kuzatib turibman. Har holda bu tarafdan hayriyatlig'

lutib bo'lmaydi. Shunga qarab chora-tadbir ko'rimoq lozim degan xabarlarni berib turibdilar, — so'zini muxtasar qildi Turkash.

— Xoja Sayfuddinning xabarlari xususida nima deyib? Unga ishonsa bo'ladi? — so'radi Temur. — Aning uzoq qolib ketgani ham shubhalidi.

— Xojaning safari cho'zilishiga boshida o'zingiz ruxsat bergandingiz hazrat.

— Ruxsat bergenimda har holda bir yil qolib ket demagandurman.

— Menimcha ul kishining barcha axborotlari bil uchun g'oyat muhimdir. Bu ma'lumotlarni bizning odamlarimiz yetkazgan xabarlar ham tasdiqlamoqda Bundan tashqari o'zingizga ilgari aytganimdek, Malik G'iyosiddin zulimidan bezgan qavmlar bilan ham aloqalarimiz bor. Ular Xojaga murojaat qilib, biznibek yotganliklarini bildirmoqdalar.

— Unga xabar yetkuring, Samarqandga qaytsun! Yurish uchun zarur hozirliklar ko'rmoqqa kirishilsun — dedi Temur qatl'iy ohangda. — Biž Malik G'iyosiddin bilan sichqon mushuk o'ynamaymiz. Do'st bo'lsa do'stiligini ochiq aytilib isbotlamas ekan, shunga qarab ish tutamiz.

Temur Turkashga ruxsat berib, beixtiyor cho'zildi. Unga Moxondan xabar kelgan edi. Huzuriga bun dan yigirma yil burun uni zindonga tashlagan Moxon hukmdori Alibek Joniqrboniy kelayotgan edi. Temur oraga tushgan kishilarga unga nisbatan ko'ngilda hech bir g'arazi yo'qigini, bu voqeanning Allohning bir sinovi deya qabul etg'anligini so'ylagandan so'ng Alibek Joniqrboniy sovg'a-salomini tuya karvoniga yuklab yo'iga chiqqan edi.

Ayniqsa, Oq O'rda va Ko'k O'rda qo'rquv solib turgan amir Qamariddinning belini sindirib, Mo'g'ulistonni zabit etgan Amir Temurning shuhrati yoyilgandi. Xayrikholar uning huzuriga intilar, yovlashib yurganlar esa yaqinlashmoq, do'stlashmoq uchun Samarcand yo'llini tutu boshlagandilar.

Oltmish ikki kun Amir Temurni qo'lbola zindonida asragan do'ivor Alibek Joniqrboniyning ham payta-vasiga qurt tushgan, uyquisida halovat yo'q edi. U Temurdan yomonlik kutmasada o'zaro mavqe talashib yurgan turkman amiru beklaridan cho'chiy boshladi. Bularning biortasi Temurga o'z sadoqatini ko'sattish uchun ham unga yomonlikni ravotko'ishi mumkin edi. Xayriyatti o'shanda ulug' pir Muborakshoh kelib, Temurni ozod qilib yubordi. Yo'qsa Alibek Joniqrboniy

bu paytda hayot bo'larmidi yo'qmi bu yolg'iz yaratgan-  
gi ma'lum.

O'shanda biz to'rt kishi edik, ko'm-kol' tiniq os-  
manga termulib xayol surardi Temur. O'lijoy Turkon  
nijo, Dilshod og'o va Amir Husayn. Bugungi kunda  
una yolg'iz men tirikman. Allohga shukr! O'tganlarni  
ba'do rahmat qilisun! Joylari jannatda bo'lsun!

Temur shu xayolda ornidan turib, tahorat qildi.  
Hecli rakat nafl namoz o'qidi. So'ngra bir zamон u ila  
harabar zindon azobini chekkan uch yo'ldoshi ruhiga  
tur'on tilovat qildi.

## IKKINCHI BO'B

O'zingning o'zgaga qilgan yaxshii-  
gingni, o'zganing o'zingga qilgan yo-  
monligini unutib yasha.

## Xalq so'zi

Ertasi kuni ham Temur Oqdayro bo'yidagi ko'shka o'llardi. Peshin namozidan so'ng huzuriga xos munajjim mavlono Badriddin tashrif buyurdi. Xos mulozim hind ustalari sadafdan yasagan shatranjni olib kelib, kontaxta ustiga terdi. Ular ikki marotaba o'ynadilar. Birinchisida Temur g'olib keldi. Ikkinchisida munajjim yengdi. Endi uchinchi bor dona surardilar. Ko'shkdan bir necha qadam narida eshik og'asi bilin chopar turardi. Temurning ko'ngli bir xushxabarni ko'zgandek bo'idi. O'girilib, so'ylang degandek bosh lig'adi.

— Suyunchi bering, a'lo hazrat! O'gil muborak bo'lsun! — dedi quvonchini yashirolmay eshik og'asi. — Farzandi arjumand qutlug' bo'isini!

Temur xursand bo'lib ketdi. Yelkasiga yopig'ilq turgan shohona to'nni yechib, eshik og'asining yelkasiga yopdi. Choparga esa kumush egar-jabduqli otini hadya etdi.

– Voris muborak! Alloh umri bilan bergen bo'lsin usimizning sha'n-shavkatli o'g'loni bo'lib yetishsun!

– Quilluq mavlono! Yuring endi. Bugun bizga mot taxtasiga ishora qilib.

– Shoh! – dedi Temur mavlono Badriddin shohiga kisht berarkan. Mavlono shohini farzin bilan to'sdi

dedi Temur farzin bo'igan piyodasi bilan qayta shoh berarkan! O'g'ilining oti ham Shohruh bo'ladi. Bizning mana shu saodatli kunlarimizni eslatib yuradi!

– Ajoyib ism. Shu paytgacha eshitmagan edim bunday go'zal otni, – dedi mavlono Badriddin. – G'oyal go'zall!

– Yangi mehmon sharafiga to'kin dasturxon tuzatilib,

ziyofat tartib etilsun! Katta-kichik, barchaga yemak ulashilisin! – buyurdi Temur amir Boboturkka qarab. – Yaqinlarimizing barchasini huzurimizga chorlang. Allohga beadad shukrlar bo'lsin!

Baxli daqiqalar tez, ko'z ochib-yumgunchalik furbo'ladi o'yaldi. Temur ko'shka xayol surib o'tarkan. Eshik og'asi Moxondan hokimi Alibek Joniqurbaniy tashrif buyurganini, Temur hazratlari peshini yuziga surtmoq niyatida ekanligini malum qilgan, Temur habur qilgan kishini kutib o'tardi. U bilan suhbatlashmoq va so'zini eshitmoqqa qiziqardi. Tog-toq' bilan uchrashmaydi, odam-odam bilan uchrashadi deganlari shu ekan-da. Bechora Alibek tashvish chekmasha ham bo'lar edi. Temurning ko'ngilda unga nisbatan hech qanday adovat yo'q. Peshonasiغا o'sha kunlar bitilgan ekanki, boshdan kechirdi. Taqdirga tadbir yo'q. Quyida eshik og'asi yetaklagan mehmon ko'rindi. Semiz, qirraburun va salqi yuzli Alibek Joniqurbaniy hansirab yurib kelardi. U ko'shka yaqinlashganida

Temur o'mridan turdi. Alibek Joniqurbaniy esa tappa usini Temurning oyog'iqa tashladi.

– Men gunohkor bandani kechiring, alo hazrat! Sizga nisbatan ko'nglimda hech qanday yomon-ile yo'q edi! Mendan johillik va gumrohlik o'tgan! Bir jahiq qonimidan keching, hazratim! Bir umr qulgingiz bolamen!

– Turing o'mringizdan, – dedi Temur uni qo'itig'idan qolshak. – Mening ko'nglimda sizga nisbatan biror kin bolganda edi, huzurimga chorlomas erdim. Men sizni kerat, birodar, dindosh va millatdoshim deb bilurmen hamde hummat qilurmen, – dedi Temur uni o'trimoqqa davlat etar ekan. – Sizning ham ko'nglingiz toza shanki, bo'lib o'tgan o'sha voqeа uchun urz tilamoq uchun zahmat chekib kelibsiz. Uzringiz qabul. Biz siz bilan do'stimiz. Xudoylikni aytmoqim lozimki, sizning yerto'lungizda hayotimda hech kimdan olmagan saboqni oldim va o'shanda kim bo'imayin, hech qachon va hech kimga nohaq jabr-zulm qilmayman deb, ahd qilgendifm. Ko'zum ochiq erkan, ahdimga sodiqmen.

– Arzimas sovg'alarimizni qabul eting hazrat! – dedi Alibek orqasidan kelib bir necha qadam narida ta'zim qilib turgan odamlariga, hadyalarni keltirishni buyurib. – Oz bo'lsa-da, ko'p o'mrida ko'rasiz.

Alibek Joniqurbaniyning sovg'alarini antiqa, turli-tuman va qimmatbaho edi.

– Tashakkur Alibek! – dedi Temur unga minnat-dorchilik bildirib.

– Siz kelin qilmoqni orzulagan qizim Xon Sultonni ham huzuringizga keltirdim. Siz ila quda-anda bo'imoq, bizga buyuk bir sharafdur hazrati oliylari, – dedi so'ngra Alibek Joniqurbaniy.

– Ha, biz sizning qizingizga og'iz solganmiz. Uzog'imizni yaqin qilib, xo'p yaxshi ish qilbsiz. Sizlarni kos nehmoxxonaga yerlashtiradilar. Damingizni olib, shahar aylaningiz, tomosha qilingiz. So'ngra bafurja suhbatlashamiz, – dedi Temur mehmonni kuzatar okan.

Temurning nabirasi amirzoda Muhammad Sulton ga o'zining qizi Xon Sultonni olib berish niyati borligin eshitgan Alibek Joniqrboniy ola a'zolari bilan yo'lgan tushib, bu xayrli ishni ham bitirmoq niyatida kelgan edi O'n kundan so'ng esa Xon Sulton begimni amirzoda Muhammad Sultonga unashittdilar.

Bu ishning boshida turgan amir Boboturk marosini oxirlagach, Temurga hisob berdi.

– Biz ham sizning to'yalingizda xizmat qilaylik muhtaram amirim. Baxtimizga doimo sog'u salomai bo'ling va niyattingizga yeting, – deya uni duo qildi Temur. – Bo'lajak kelinimizdan hech bir xabar yo'qmi,

deya Salima Sulton begimni surishtirdi.

– Afsuski yo'q hazrat. Biroq Allohdan umid bor. Biq qildi amir Boboturk.

– Mening ko'nglim har narsani sezadi Boboturk. Siz orzuyingizga yetasiz. Biroq Allah sizga sabr-toqal bersin! Yutgan yutadi deydilar, – unga taskin berdi Temur. – Amirkoda Mironshohga ayting. Ertaga ertalab nonushشتادان so'ng huzurimga kelsinlar. Siz ham safar hozirligini ko'ring. Hirot tomon yurasizlar. Zora kelindan ham xabar topilsa.

Amir Boboturk ta'zim-la chiqib ketayotganda, Temur uni eshik oldida to'xtatdi. Boboturk qaytib keldi. – Bir narsani sizga ay'tib qo'yayin. Turkashbekka ham aytting. O'n marta qudamiz bo'sa-da, Alibeklar qavmiga ishonib bo'imaydi. Bizzdan ko'ra manfaati ko'proq tegadigan hukmdorni topgan kuni shartta yuz burib, o'sha tomonaga o'tib ketadilar. Uning xattiharakatidan xabardor bo'lib turmoq lozim va qo'shini hamda urug'i ichida ishonchli kishimiz bo'lishi kerak. Odamimiz biz tarafidan emas, o'zining avlodidan bo'lsin. Boylik va'da qilinsa ular hech narsadan toy maydilar. Tushundingizmi? – qayta ta'kidladi Temur jiddiy ohangda.

– Tushundim hazrat!

– Eym yo'lingizni bersin!

Temuring shubhasiga hayron bo'lgan Boboturk temurli amirzoda Temur eski tanishining bu kelishi bir o'q bilan ikki o'llani urmoq ekanligini fahmladi. Bolalarini og'ir sharoitlarda, barcha barobar ishlab, duyo tanishga orgatadigan Temur Hirot yurishini amirzoda Mironshohga topshirmoqchi edi. O'n to'rt yutill amirzoda bir harakat qilib ko'sinch, shunga jarab ish yuritildi qaror qildi Temur. U tarafda Pir Ali bilan ukasi Malik Muhammaddan boshqa astoydi qarshilik ko'satadigan hukmdor ham, kuch ham yo'q. Biroq bunday fikrga borib, loqaydlikka yo'q qo'yib boilmaydi. Urushda qonuniyat kamdan kam bo'ladi. Gichida oddiy bir tasodif, e'tiborsizlik ham jangu jadal qoqdirini, tarix g'ildiragini boshqa tomonaga burib yubishi mumkin.

Amirkoda Umarshayx Mirzoni Andijon o'lkasidan

ellib boilmaydi. Do'g'i hududining xavfsizligi uchun bir temurli amirzoda u tarafda turmog'i lozim. Jo'chi va

Jetaga ham, kecha oyog'ini o'pib ketgan To'xtamishga ham, beso'naday Alibek Joniqrboniyga ham ishonib boilmaydi. Ishqilib, Allah kuningni bu insonlarga qoldirmasin.

Uzoq oylagan Temur oxirida Mironshoh boshchiligidagi qo'shingga safar hozirligini ko'rmoqqa farmon berdi. Amirlar nigohida yangi jangu jadal tashvishi sezilib tursa, lashkarboshilarning ko'zi yonardi. Tavba, o'zicha o'yaldi Temur, inson zoti harb ishini bo'yniga oldimi o'zini shu kasbi qo'llashga tayyorlab, shuning ishtiyoqida yashar ekandal Aks holda xudo biladi ertaga taqdiri ne kechadi?

Yurish xususida barcha bir fikrdä edi. Hech kim bu safarga e'tiroz bildirmadi. Mironshohning yonida Xoja Sayfuddin, Pir Husayin barlos, Muhammad Sul tonshoh, Oq Bug'o, Usmon Abbas, Tobon bahodir va Jahongir barloslar bor edi. Urush ko'rib ko'zi pishgan bu amiru lashkarboshilarni jo'natgan Temurning o'zi ham, ma'lum muddatdan so'ng yo'iga chiqish niyatda edi. Biroq bu fikrini hech kimga bildirmadi. Kishi lar qanchalik mustaqil ish yuritsalar, shunchalik qatl harakat qiliadijar va hech kimga suyanmaydilar. Ishni nihoyasiga yetkazmoqqa urinadilar. Bunday sharoitda amirzoda Mironshoh ham pishadi, toblanadi, deyo o'yagan edi.

Jayxundan o'tgan amirzoda Mironshoh o'rdu Shibirg'onga yetganda to'xtadi. Qo'shin shu yerdä muqim qoldi. Sharoit taqozosi nuqtayi nazaridan qishni motadil iqlimi Shibirg'onda o'tkazmoqqa qator berdilar. Bahor kirishi bilan Murg'ob daryosini kechib o'tgan lashkar, Bodxiz o'lkasiga kirdi. Bu viloyat G'iyosiddinning ukasi Malik Muhammad tasarrufida edi. Bir yarim yildan beri urushga astoydil tayyorgarlik korigan Malik Muhammad qo'shini qattiq qarshilik korсадdi va Mironshoh lashkarini Murg'ob tomon chekinishga majbur etdi.

Lashkar harakatidan xabardor Temur ishning boshdagi shubhasi to'g'ri chiqdi. Qisqa fursatda katta o'rdu Kesh atrofidagi soy va kengliklarni to'ldirdi.

Ming uch yuz sakson birinchi yil uchinchi oyining yigirma yettinchisida lashkar harakkatga keldi. Qo'shin yo'iga chiqarkan chopar Alibek Joniqurboniyidan mak-tub keltirdi. U maktubda Amir Temur hazratlari istagan zamон ko'makka yetib borishini, lozim ko'rsa yo'i ko'rsatuvchilik qilishga hozirligini takidladi. Temur qu lowuzga ehtiyoj yo'qilgini, biroq ko'makka kelishiga rozi ekanligini bildirib, qudasiga chopar jo'natdi.

Katta lashkar shitob bilan Jayxundan kechib o'tib,

Ajtohd yeriga kirdi. Temur qo'shinni shu shahar joylashtirmoqni buyurdi. O'zi esa amiru lashkarboshilarni olib, bu yerning ulug' kishilari mozorlarini qurayt qilmoqlikka, masjidu madrasalardan xabar olib, ilijat avvall lla tanishmoqqa kirishdi. Ko'chalardagi imrov, qarib-qurabolar ma'lum bir yerlarga jamlandi. Harsha oziq-ovqat, kiyim-kechak berilib, foydali biyor bilan shug'ullanishga jalb etildi.

Jahryva tariqatining shaxxalaridan biri Bobo Sangu ham shu yerde yashaydi hazrat, – dedi Boboturk ular jome' masjididan chiqishayotganda.

–

Nima shu olamni yashartmoq uchun yuborgan. Bu shayx esa uzlatga chekingan. Nima, bu Allohga qarabli sayonmu? U xudoga nega meni yaratding demokrifi? Shu bois dinni parchalovchilardan ehtiyyot berlimoq lozim. Har bir ish aql-idrok doirasida bo'lmog'i kerak. U kishim o'zlarini avliyo sanab uzlatda yotsa-ni, boshqalar unga yemak tashisintar? Hazrat Bar-Iyuddin Naqshbandi olib ko'ring. Bir parcha nonini ham o'z qo'l mehnati evaziga topib yegan. Bu Allohga ham tushunarli va qabul etarli tariqatdur. Muqaddas islam dini tarki dunyochilikni inkor etadi. Lekin bu kishi bizni qanday qabul qilimog'idan qat'i nazari ziyorat qilamiz, – dedi Temur ular ohista otda ketib borarkan.

Bobo Sangu Temur oyog'i ostiga qo'y to'shini tash-

lab qarshi oldi-yu, biroq ochilmadi.

– Buni ham tushunish kerak. Yurtiga kelgananimizni ham qilla olmagan ko'rinishi. Bu yer, avvalo, Allohning, so'ngra bandalarnikidir, – dedi Temur Amir Bobo-lurk lla yo'ilda davom etarkan.

Ular shahar chetidagi qo'shin tomon yaqinlashganda amirzoda Mironshohning xos chopari kutib turardi. Vaalaykum assalom, Keling avlodim, – dedi Temur yosh navkarni kuzatar ekan. – Amirkodamizning shahltari yaxshimi? Ne xabarlar keltirdingiz?

– Amirzodamiz padari buzrukvorlariga sihat-salo  
matlik tilab, farmon beklaydilar. Yo'il-yo'riq ko'rsatmoq  
so'raydurlar, – dedi jaranglagan ovozda xos chopar.  
– Amirzodaga aytinq. Bizni Murg'obda beklasunlar  
Yetib boramiz. Hech qanday harbiy xatti-harakat qili-  
masun. Lashkar yurish hozirligini ko'rib, safarga shoy  
bo'lib tursin. Angladingizmu? – dedi Temur dona-dona  
qilib.

– Angladim, buyuk amir hazratlar!

– Yo'ilningiz oq, yo'ldoshingiz haq bo'sun! Amirzodi  
va barcha amiru lashkarboshilarihimiza bizning salon  
va hummatlarimizni yetkuring!

– Bosh ustiga a'lo hazrat!

Xos chopar ulardan anche narida, otini ushlab tur  
gan sherikari oldiga qaytdi. Ular avval otni sekinroq  
haydab, so'ngra choptirib ketdilar.

– Choparlik va elchilik naqadar bir ajoyib ish-a?  
– dedi Temur ularning, ot qo'yishganiga havas bi  
lan tikilib turarkan. – Yoshligimda men ham elchi  
bo'imcqilki orzu etardim. Do'stalarimiz bilan elchi-elchi  
o'yin oynardik. Kim qo'yini qayerda boqishi xususida  
muzokaralar olib borardik.

Tong otishi bilan Temur lashkari Andxuddan chiqib,  
Hirot tomon yurdi. Oldi orti ko'rinmas qo'shinni ko'rgan  
raqibning qo'lidan qilichi tushib ketardi. Lashkar Sa-  
raxsga yetmasdanoq qorovul viloyat hokimi Malik Mu-  
hammad shahar va qal'alar kalitini topshirib, tobelik  
izhor etmoq niyatida kelayotganini bildirdi.

Temur Malik Muhammadni iliq qarshiladi. Og'alarcha  
munosabatda bo'lib, yonidan joy ko'rsatdi.

– Biz bundan buyon o'zimizni siz oly hazratlarini  
ning bir xizmatchisi deb bilurmiz! – deya ta'zim ila soz  
boshladi, Malik Muhammad titragan ohangda. – Niya-  
timizning isboti o'laroq shahrimiz va qal'alarimiz kalitini  
siz hazrati olyilariga taqdim eturmiz!

Uning ovozida samimiyat va sadoqatdan ko'ra  
qo'rquv, hadik va fursati kelgani zamон o'ch olmoq  
ohangi ustundek edi.

1) shunday deb zarbof bog'ichli qizil xattachaga  
mudungan kall shodasini Temurning oldiga qo'ydi.

– Bizning sulhparvarlik va tinch-totuvlikka bo'lgan  
hazmatningini yüksak qadriyman, muhtaram bir  
ruhlarim, – deya javob qildi Temur samimiy va bosiq  
ishanotiga. – Bu dunyo va bu yer barchamiddan qolgu-  
nidan. Modomki, tirik ekanmiz, uni aql-idrok ila tasar-  
mox. Modomki, tashrif etardik. Bul viloyat va uning yeru  
hokimiyati sizga va ulusingizga buyursin! Bizning  
hokimiyatimiz bu yerdan bir dona ignani ham qo'liga ol-  
mogni. Siz saltanatimizning vakili sifatida Xuroson  
firini so'ryasiz. Bu haqdagi farmoni oly sizga taqdim  
sizlari.

– Qilluq, hazrati olyilar! – dedi ornidan turib,  
ning qayta ta'zim qilar ekan, Malik Muhammad bu  
isaylikidan hayajonlanib. – Sizing bu qadar oly-  
jamalgizni eshitgan erdiku, gapning rosti uncha-  
lik inommagandik. Haqiqatan ham siz daryodan suv  
harishlagan, ummon qalbli bir inson ekansiz. Bizning  
hazmat qato harakatlarimizni kechiring. Uzrimizni qabul  
ning

– Sizing hech qanday xatoyingiz yo'q. Vijdoni,  
iymonli va e'tiqodli bir inson sifatida elu yurtingizni  
hinnaya olmoq burChingizdur. Shuning uchun men  
men hummat qilaman va qadriyman. Siz haqsiz. Biz  
ham osmonдан tushganimiz yo'q. Neki bo'lsa Alloh-  
ning taqdiri. Shunga qarab ish yuritmog'imiz kerak deb  
oylayman, – deya uning so'zlariga javob qildi Temur.  
– Biz Makkadan to Tangri tog'lari gacha bo'igan ul-  
ken hududda dindosh va iymondoshlarimiz, jumladan  
hoshqa din hamda millat kishilari ham emin-erkin ya-  
hasinlar, tijorat qilisnilar degan umidda yurtlarning  
hoshuvini istaymiz. Bu ulkan sarhadda kimsa-kimsaga zulm  
ning moliga ko'z olaytimaydi, kimsa-kimsaga zulm  
olikazmaydi. Faqir-fuqaro, yetim-yesir, beva-bechora,  
loy va zolimlar zulmiga mubtalbo boilmaydi. Bizning  
yaro va yusunimiz, qonun-qoidamiz shundan iborat-

dur. Bu xususda birorta fikringiz bo'lsa har zamen tortinmay aytishingiz mumkin. Biz noto'g'ri yoki tan qidiy fikr uchun hech kimni jazolamaymiz. Bul ish o'zlarining tiriqchiiligidur. Ishonchim komiki, elu yurtinqlar omonilikda yashayajak!

— Quilluq, hazrati oliyari! Umid ham shunchalik Gapning rosti sizdan bu qadar marhamatu saxovil kutmagan erdik, — dedi hayajonini bosa olmay Malik Muhammad. — Bunday buyon oyog'imizni itoat va su doqat ostonasidan olmag'aymiz.

— Bizda hech qachon insoniy mehr-muhabbatini va mehri-muruvvatimizni sizdan darig' tutmag'aymiz! — dedi Temur uni kuzatmoqqa chog'lanarkan.

Lashkar Murg'ob tomon yuzlandi. Amirzoda Miron shoh Mirzo qo'shini safarga shay bo'lib, katta o'rduni kutib turardi. Qo'shin birlashib, ko'z lig'ar maydoni to'ldirdi. Temur sayxonlikning kunchiqish tomonidaq tepalikka chiqib, lashkarni ko'zdan kechirdi.

Oq tulporning jilovi Hirota tomon burildi. Qudrat qo'shin harakatga keldi. Oliy o'rduda Temur uchun qadron bol'gan, hayotining og'ir va yengil kunlar kechgan Jigdalik darasi tomon borardi.

— Jigdalikda qo'namiz, — dedi Temur amir Bobo-turkka. — O'tovni, ilgari mening o'tovim tikilgan tepalikka tikinglar. O'sha damlarni bir xotirlaylik. Buyuk amirning osmonrang saropardasi to'rt taraf kaftdekkorinib turadigan tepega tikildi. Kunlar isib ketmaganligi bois ko'philiik o'tov tikkan edi. Temur toat-iboda qilayotganida yoki xoli qolganida amir Boboturk va Alp Turkashbek uning yonida bo'lar, vaziyatga qarab ma'lum masofada turardilar.

— Turkashbekka ayting, kechqurungi yemakdan so'ng Ko'k O'rda va Oq O'rda xususida suhbattashamiz. U taraflarda ham juda katta voqealar sodir bo'layotganga o'xshaydi. To'xtamish o'g'onish ko'satibdi chog'i. U islovanlarga tegmasa bo'ldi. Amir Boboturk oti tomon yurdi.

## UCHINCHI BOB

Bir xudodin o'zgasি Bir xudodin o'zgasি

Barcha g'alatdур Mashrabol

Boborahim Mashrab

Jididi ulusida xonlar qo'lqop kabi almashtirilardi. Hemjan o'ldirib taxtni egallagan Xidirxon bir muddat armoni ulusini ham, Rusiyani ham ilida tutib turdi. Hu-nutija Moskva ulug' knyazi Dmitriy Donskiy, Vladimir yang knyazi Andrey Suzdalskiy, knyazlar Konstantin Fyodoravly va Mixaylo Yaroslavskiyar kelib, o'z tobe-lisini bildirlib ketdilar. Hech kim erta-indin bu qudratli hollarning alg'ov-dalg'ov bo'lib ketishini aqliga keltirishni olli.

Ko'p o'tmay Xidirxon katta o'g'li Temur Xoja uyushtirigan fina oqibatida o'lirildi. Bu suiqasda Xidirxonning boshqa o'g'llari ham qo'shildilar. Temur hujiga esa Jo'chi ulusi taxtida ottiz besh kun o'tirish nushti olli xolos.

O'rada shunday holat yuzaga kelgan edi, Chin-qiz xonzoda larning taxtalashib, bir-birlarini o'ldirishlari amir va lashkarboshillarning joniga tekkan, bir xonzo-dining o'llimi bir necha amiru lashkarboshillining yo'ldan olli lashlanishi yoki o'llimiga sabab bo'lardi. Bunday holatga qarshi ilk bor isyon ko'tarib chiqqan kishi Oltin O'rdaning amiri Mamay edi. Mamay bundan bir qancha sana awval Oltin O'rda xoni bo'lgan Berdibekning kuyovi va boshamiri edi. Berdibekning hujun davlat ishlarini yuritgan Mamay katta tajribaga qo'sha bo'lib, mohir qo'mondon edi.

Temur Xo'jani aksarliy Oltin O'rda amirlari suymasdi. Boshkentdag'i barcha yetuk amir va mingboshillarni o'ziga qulq solishga majbur eta bilgan Mamay Temur Xo'jaga qarshi ochiq kurash boshladi. Buning uchun daslab O'zbekxon avlodidan bo'lmish

qanchalik o'ylab ko'rmasini bu duru javohirlarni biliwo

bermoq va undan ajramoqni aqliga sig'dirolmad.

Ne qilarini bilmay, atrofini o'rabi turgan sotqin u

xoinlar ichidan tezroq chiqib ketishni o'layotu

Mamay Qrimning Genuyaga qarashli Kafa shah

ma'murlaridan boshpana so'rab, murojaat etdi. Ulis

e'tiroz bildirmadilar. Hisobsiz xazinasini tuya va

valarga ortgan Mamay Kafa shahriga yetib bordi.

ma'murlar kelib oyog'iga bosh urar edi. Endi esa uni

to'p qurolli kishilar sovuq kutib oldi. Mamayning yureg

orqasiga tortib ketdi. Buncha miqdordagi xazina bilan

o'z yurtidan chiqib qayerga ham bora olardi? Naholi

shunga aqli yetmadi? Aqling bo'lganida shunday katta

yurtchi qo'ldan boy berarmideng degan ichki bir nido

keldi. Mamayning dami ichiga tushib ketdi.

Uning ko'ngliga kelgan fojia bir haftadan so'ng yu

o'dirib, hisobsziz boyiligidan tortib oldilar.

Dashti Qipchoq osmonida To'xtamish o'g'lon yul

eng kuchli da'vegori To'xtamishning oldiga tushadi

gan, unga bas keladigan biror bir kuch yo'q edi. Unqa

Mamay xazinasining katta bir qismi o'lia bo'lib tushgan

jadi. U bu boylikka lashkarini qurollantirdi, va qolganini

cho'qqa urmoqqa hozir katta va kuchli qo'shin yangi

fathlar orzusida depsinardi.

Hojitarkondan Bulg'orgacha, Itil bo'yidan Shil-

birga Qirim ham to Litvaga, g'arbda Krakovgacho

To'xtamishxon tasarrufiga o'tgan edi.

Taxtga mustahkam o'nashib olgan To'xtamish

Rusiyadan olinadigan xirojlarni surishtirdi. Soliqlar

kechgisi kelmagan To'xtamish Dmitriy Donskiydan

boshlab barcha rus knyazlariga quyidagi mazmund-

bu muktab bilan elchilar yubordi. «Menkim Itli xoni  
namuh, sizning va mening xavfli dushmanim  
kunogeni yanchib, Jo'chi taxtiga o'tirdim. Men bu  
sizning bilagimning kuchi, aqilning teranligi va qili-  
ning o'tkirligi ila erishdim. Sizlarga hech bir yo-  
nali istamayman. Faqat ota-bobolarimiz zamona  
minali kelgan solqarni o'sha miqdorda o'z vaqtida yu-  
niq turangiz bas. Sizga men tomondan hech qan-  
ing almas zahmat yetkazilmaydi».

bu satni olgan va To'xtamishning quadrati haqida  
ning yuruga oga bo'lgan rus knyazlarining tarvizi  
qu'ngildien tushib ketdi. Zoton Mamayni To'xtamish  
nomini, u baribir Rusiya ustiga bosib borar edi.  
Knyaza oshun ikkisi birdek xavfi edi. Rusiyada katta  
veysidan so'ng lashkar qolmagan, To'xtamish nari  
ham, uning kichik bir bo'limmasi kelsa ham qarshilik  
ni qarshadigon kuch-quvvat yo'q edi. «Butun Rusiya ye-  
nita askarboshillar, xizmatchilar va barcha qo'shinlar ta-  
riffikda tushib qolgan edi. Bunday sharoitda barcha  
knyazlari yana ilgarigidek tobelik bo'yunturug'ini  
surʼiyotiga ildilar. Kulikovo g'alabasi afsonaga aylanib  
yoki Hatto Kulikovo qahramoni, shu jangdan so'ng  
Emiliy Donskiy nomini olgan Moskvaning ulug' kn-  
yazi ham O'rda, Volganining yangi shohi To'xtamish  
hujiga o'z echilari To'lbug'a va Mokshiani hadya va  
so'ng is-salomlar bilan jo'natgan».

Nafaqat Rossiya, Litva va Polsha ham xuddi shu  
osmonida Oltin O'rda, To'xtamish qo'ida edi. Litvan-  
niu buyuk knyazi Yagaylo Polshanining ham qiroli edi.  
U voqil vaqt bilan To'xtamishdan farmoyishlar bitilgan  
yettiqlar olib turardi.

To'xtamishxon yorlig'ida shunday so'zlar bittilardi:  
Menkim To'xtamish. Yagaylo deyman!

Ulug' o'ringa qanday qilib o'tirganligimizni xabar qil-  
moq uchun, biz Qutlug' Bug'a va Hasan boshchiligidagi  
ayval elchilar yuborgan edik va sen ham o'shanda o'z

arizachilaringni bizga yuborgan eding. Sening ning hukumatni tan olib bitilgan samimiy maktub oldim va buni qadr etamen. O'z taxtingda muqil mustahkam tur. Hech kimdan qo'rqlama. Har zaselni himoya etguvuchi biz kabi qalqoning bor. Kelingiz asosida to'laydigan hijrollarni O'z vaxtida is'batli

Oltin O'rda xoni

20-May 1393-yl,  
Tana (Azov shahri)

Yagaylo To'xtamishning sadoqatli, kuchli va qoldi  
imtiyozlarga ega bo'lgan vassallaridan biri edi. Hu  
knyazlarining yelkasi tirishib, astoydil xizmat etmoy  
otganlarini sezgan To'xtamish, ularning tanobini torilish  
qo'ymoqqa qaror qildi. Bu haqda Moskvaning ulug'  
knyazi Dmitriyning raqibi bo'lmish, Litva ulug' knyaz  
va Polsha qiroli Yagayloni ham ogohlantirdi.

— O'rus knyazlari bizning hukmronligimizni to'la  
to'kis tan olg'on ko'rinmaydurlar, — deya xos amnu  
lashkarboshillariiga maslahat soldi Toxtamishxon  
— Bu parcha-parcha bo'lib ketg'on knyazliklarni bu  
dan buyon ulug' Oltin O'rda davlatining bir uluslarini  
aylantirnog'imiz lozimdir. Aks holda, oyog'iga latte  
bog'lagan bu qavm o'ziga kelmaydurg'on ko'rindur  
Rus yerini zabit etmoq va uning eng katta shahri  
Masko'jni olmoqqa hozirlik ko'rulsun. O'rda hududlari  
va poytaxtda bo'lgan rus savdogarlari, elchilari va xiz  
matchilari saltanat ichkarisida ushlash turishin

Ertasi kundan boshlab farmon kuchga kirdi.  
To'xtamish Mamay qilgan xatolarni bilar, bundan xususcha chiqargan edi. Mamatning o'z ustlariga bosilgani kelayotganidan ikki oy burun xabar topgan rus knyazlari birashib qo'shin to'plagandilar. To'xtamish esa ilarni dog'da qoldirib, yashin tezligida qarshilarida aydo bo'idi.

— Mamatayga bir massahatni berganimizda qulog'ingizga shivirladi avval Mamayning, endilikda yangi hukmdorning bosh amiri bo'lib olgan amir Shoh Murod

(续) Bulg'orni zabit etib, Ittil daryosi bo'ylab su-nigari savdogarlarning boyliklarini olib, o'zlarining qurilishi uchun qo'ymoq kerak. – Bu daryoda emin-likni kuchladi, savdo qilar ekanlar erta kunda ulardan har birini bo'lib, savdo qilar kutsa bo'ladı.

qidi o'tlamadi. Ertasigayoq kichikroq bir qo'shinni  
bu orda uliga yubordi. Bu lashkar Shoh Murod ber-  
ni qumshashni amalga oshirdi. Ilg'or orqasidan o'zi  
katta lashkar bilan Itil (Volga) daryosidan o'tdi.  
Bu stanishning kelayotganidan xabar topgan Ni-  
kovod ulug' knyazi Dmitriy Suzdalskiy el-  
chini ilg'ligi va talanmasligini o'ylab, bergen so'ziga  
qondi. Hatto ikki o'g'lini katta qo'shinga bosh  
yordam uchun To'xtamish huzuriga yubordi.  
Ungi ular To'xtamishni topa olmay qaytib keldilar.  
Yozan knyazi Oleg Ryazanskiy esa To'xtamishga  
Borshchovchilik qildi. Bu haqda rus tarixchilar shun-  
da yozadilar. «Ryazan knyazi Oleg bo'lsa podsho-  
vadaniyu Ryazan yeriga kirmasidanoq qarshi olib,  
mung eyog'iga bosh urdi. To'xtamishning Rus ustididan  
maha qillahda unga yordamchi bo'ldi. Rus yerini qan-  
oy qilib bosib olish hamda toshdan qurilgan Moskva  
mehmon qanday oson yo'l bilan qo'iga olish va knyaz  
mittry Ivanovichni qanday qilib yengish va ag'darib  
an'anah lo'g'risida ba'zi bir gaplarni aytdi».  
Dmitriy Donskiyning, rus knyazlarini birlashtirmoq  
qobiliyi urinishlari behuda ketdi. U qo'shin to'plamoq  
iqatida Kostroma tomon jo hadi. Oka daryosining  
dayxachuvidan tezlik bilan o'tib olgan To'xtamish,  
hukmning tepasida turar edi. Moskva notinch edi.  
Shahar aholsi esa shaharni mudofaa etmod kerakni  
sabti uni fashlab chiqish lozimmi deya bahslashishardi.  
Ming uch yuz sakson ikkinchi yilning yigirma  
yilinchil avgustida To'xtamish Moskvani qamal qildi.  
Bu qavmlarning ichklilikka bo'lgan rag'batli ishning  
mehmoni topdi. Shaharda tartibsizlik boshlandi. Bu ah-

volda kurashib bo'limas edi. Buni anglagan, Litva bil Moskvani birlashtirish niyatida yurgan Litva knyazligi gredning o'g'i Ostey sovg'a salomlar bilan suluq so'lib To'xtamishning huzuriga bordi. Rusning eng markaziy knyazligini sindirgan To'xtamish katta o'jha bilan Yev tomon yurdi va u yerdan salmoqli hirojni undi.

Bu g'abalalardan boshi aylangan To'xtamish em o'zini shunday darajaga yetkazgan insonga xiyon etmoq yollining boshida turardi. Barcha turk-mo'g'ul xonlari kabi etiga jir bitgach, hech kimni tanimaydigan unsurlar junbushga kelayotgan, atrofdagi bini oq qilib ko'rsatadigan amiru mulozimlarning yolg'onlariga ishona boshlagan edi.

TO'R'TINCHI BOB

*Qum yig'ilib tosh bo'imas, qul yig'ilib bosh bo'imas.*

Xalq so'

— Endigi ishlarimiz xususida so'zlang. Alibekdan ne  
xabar? — dedi Temur Turkashning hikoyasini tinglari  
bo'lgach.

— Hazratlariga ma'lumki, Hirot yeriga kirishini  
bilan Alibek Joniqurbaniyga qo'shini ila kelib kalla  
o'rduga qo'shilish aytlib, choper yuborilgan edi. Biroq  
na Alibekdan va na chopardan xabar bor. Moxonda  
gi odamimizning yetkazgan ma'lumotiga ko'ra Alibek  
choparimizni tutib turibdi. Niyati yomon emish. Malik  
G'iyosiddinning odamlari atrofida izg'imoqda ekan  
Hoynahoy maxfiy tarzda harbiy ittifot ham tuzganlar  
Shu bois, har qanday sharoitda ular lashkarining bl  
lashuviga yo'i qo'ymaslik lozim deb o'ylayman, — hiso  
bot berdi Turkash.

Hirot hukmdori Malik G'iyosiddin isyonchi sarbiyordi bostirish maqsadida, avni damga Sabzavordi

Chopar Amir Temur qo'shini kelayotgani xalqni yotkuzgach, ne qilarini bilmay boshi qotdi. Eng odamlari bilan bor – budini olib, ona yurti G'urganini ham xayol qildi. Biroq yashirin til biriktirishchisi Alibek Joniqruboniyning dami balland Alibek birlashib kurashilsa Temurni yo'ldan olib hannah mumkinligiga uni ishontirgan edi. U tarafda qurilishning akasi Valibek ham chopar yuborib, Temur shahri sulh tuzmaslikka da'vet etardi. Uzoq maslahat-

Hirota kelayotgan Malik G'iyosiddin qo'shini yo'lli  
qo'shilish, dom, Qavsiya va Fushanij qai'alari egallansin!  
emaliv katta kuch bilan yorib o'tib, Hirot tomon harakat  
yash, kop talofot bermaslik uchun lashkar asralib, ra-  
si qatalini o'tadigan yo'l qoldirlisin! Qarshi tarafni sulh-  
ni undab ko'rilsun! – so'nggi farmonni berdi Temur.  
Hayusa qal'asi qutvoli Mahdij pahlavon qarshilik  
ne'moniy qal'a kalitini topshirdi. Qolgan ikki qai'a-  
ingilir esa qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Qai'alalar qamal  
qondi.

Olib adagilar sulhga chorlansin. Qarshilik ko'rsatisi,  
mehyoti aligi anglatilsin. Ularga qarshi naftandozlardan  
bir qo'llimasin! – deya lashkarboshillariga ko'ssatma  
kordi Tomur. – Biz esa bir necha amiru mulozimlar bi-  
ari multaram piro komil Taybodiyning ziyoratlariga  
boraniz. Bul ulug' shayx Malik G'iyosiddinga biz bilan  
harashmoq befoyda ekanligini anglatar, balkim.

Shayx Zayniddin Abubakr Taybodyj Amir Temurni  
balkimlikrom bilan qarshi oldi.

– Yetti iqlim osmonida sizning jahongirlik yulduzin-  
gle ko'rinishadir nim Temurbek! – dedi shogirdini bag'riga  
mumar okani! – Necha vaqtidirkim, Alloh aqlo vujudim-  
ga bul tuyg'uni soladur. Zotan har bir ishga diqqat  
e'tibori bo'lmog'ingiz, yetti emas, o'n yetti o'ichab, bir  
hemiyat dolramizda bo'lgan hududlar hamda xalqlar-  
ning taqdiri siz ila bog'iqlidur. O'zingizni asrang. Xudo

ham saqlansang, saqlayman deydi, – samimiy va  
lalovchi ohangda so'ylar edi shayx Zayniddin. – Butta  
islom ahli sizga ko'zini tikkan. Diniyning asl mo  
yatini anglamagan hukmdorlarimiz necha yillardir  
bu ishonchu umidni oyoq osti qilib kelmoqdalar, gil  
boisdan ham birortasining saltanati uzoq davr  
magan. Hayotda adashsangiz non ketadi, siyosat  
davlat yurituvida xato qililsa, ion ketadi.

— Bu davrda tinch va osoyishtha yashamoqning bu  
dan bir yo'li, kuch-qudratli bo'imodqur, hazrat — du

Lemur Taybodyning so'zlarini diqqat bilan tinglar okon  
– Ne ishga qo'ursak siz va siz kabi ulug'lar maslahati  
siz boshlamag'aymiz. Birodarimiz Malik G'yosiddin  
ham nasihat qisangiz. Bizga nisbatan do'stilik va hozir  
rodarlik uzangisisidan oyog'ini olmasa. Dini, tili va qoni  
bir uluslarimiz butun bir davlat bo'lib, birlashib yashay  
versalar. Ukasi Malik Muhammad qanday qilib Saroy  
viloyatini boshqarayotgan bo'lsa, u ham Hirotni tasur  
ruf etaversin. Faqat asrlardan beri bordi-keldi qilliq  
quda-anda bo'lib ketgan elu elatlарimizning harakat  
erkinligiga daxl solmasinlar. Bizning davlat qonun u  
qoidalarimiz bu tevarak-atrofidagi har qanday mam  
lakatnikidan addolatlidur. Hech bir hukmdoru alloma bu  
xususda bizga e'tiroz bildirmayotir. G'yosiddin Pir Ali  
uchun har vaqt sulh va diyonat asosida munosabat  
o'rnatmoq qopushi ochiq.

— Barcha hukmdorlar kabi u ham taxtga o'tirganida katta-kichikning so'ziga qiloq solardi, amal qilma sada odamlardan maslahat so'rardi. Hokimiyati mu'sahkamlanib, besh-o'nta to'g'riso'z, xalq e'tiborini qo'zongan kishilarni o'ldirib, surgun qilib, hajga jo'halil qutulgandan so'ng, to'hini teskarri kiyib, o'zgardi qoldi O'zi nari tursin, shunchaki oddiy vaziru amirlarining ham burni osmonda. Zotan o'zidan ketgan bu qavmni siz yo'liga solmasangiz boshqa bir kishi uddalayolma! Biroq men Malik G'iyosiddin ila so'zlashib, sizga xabur yetkazurmen. Xudo insof berib, gapga kirar balkim.

Zayniddin Taybodiy katta boshini kichik  
yiloy illida turgan Malik G'iyosiddinning qa-  
moniyo'l oldi. Uni o'zidan har taraflama ustun  
Anor Temur bilan savashmaslikka, raiyat qoni-  
shuadi to'kmashlikka davat etdi. Tabiatan qo'rqaq  
ani bolqan Malik G'iyosiddin boshida bu taklitga  
imanotlik bo'ldi. Biroq suhabat so'ngida fikridan qay-  
ti qayqin ijab turib oldi.  
Imanit qo'shnilar Fushanj qal'asi qamalini davom  
etdidi. Qal'a qutvoliga to'rt marotaba elchi yuborildi.

Qon to'kmasdan topshirish so'raldi. Molu jon  
morniqi va'da ettdi. Biroq qutvol sulhga ko'nmadı.  
Qal'ani qal'ani orab turgan qo'shinlar ustiga o'q va  
oli o'modajni kuchaytiirdi.

Bihollarning gunohi uning bo'ynidadur. Qal'a  
oli etilin va Ishg'oldan so'ng buzib tashlansin! —  
Hirotaq Hirotaq kelgan edi. Kutilganidek G'iyosiddin  
Ali qo'shinlari Mashhad yo'lli orqali Hirotaq kir-  
muddny lashkarboshi sizdek odamga xizmat etmoqni  
hu zu qiladi. Qolgan cheringim bilan o'dungizga olsan-  
qili Sadoqat bila xizmat etmoqqa so'z berurman, —  
Mengli Bug'ani suyab o'midan turg'azgan Temur  
uning ustiga o'zining shohona xil'atini tashladi. Hadyl-  
qilar taqqim etdi. Lashkarboshi yashayotgan o'ka  
hukmligini berdi. Mengli Bug'a bunchalik izzat-ikrom  
kumagan edi. Hayajondan ko'ziga yosh oldi. Shu shu  
u Temurning eng ishonchli odam, do'sti bo'lib qoldi.  
Temur uni qarshilar ekan, shu voqealar xayolidan  
bo'libdi. Ular anchagacha suhbattashib o'tirdilar.

— Tappa-tuzuk do'kondor ekansizu, bekorga bizga  
ingashib savashib yurgan ekansiz-da, amirlashkar —  
dedi niroyat Temur kulib.

— Ota kasb, hazrat. Men uchun dam olishning  
boshqqa usuli yo'q. Sizga o'xshab, ovni yoqtirmayman.  
Lo'lli shoh bo'lganda ham saroyi ichida tilamchilik o'yini  
iynagandek, men ham har kuni bir marta do'konga  
hukm ketmasam xayolim joyiga tushib, xumorim yoz-  
maydi, — javob qildi Mengli Bug'a samimiyo ohangda.  
— Bo'rimasa hozirlik ko'ring. Bir galashib borib Amir  
Valini tavbasiga tayantirib kelaylik, — dedi Temur unga  
ma'holi qarab qo'yarkan.

Mengli Bug'a shoshib qoldi. Maxfiylar bugun gapir-  
jun so'zimni yetkazishibdi deya o'yladi xijolat chekib.

— Tashvish chekmang, Menglibek. Faqat do'st sifati-  
da bir ittimosim bor. Savash va yurishlarimiz haqidagi  
qaplar sizning og'zingizdan chiqmasun. Agar siz ki-  
chik bir do'konchi yoki kosib bo'lganingizda bosqqa  
gap edi, — deya uni tezroq xijolatdan qutqardi Temur.  
— Bir qoshiq qonimdan keching, hazrat. Bu kabi  
o'ntiyotsizlik bosqqa takrorlanmaydi, — dedi qora terga  
tushib qipchoqiy amir.

Xijolatdan uning qoramtil yuzi ko'karib, qisiq ko'zları  
yumiilib qolgandek edi.

— Hechqisi yo'q. Sizni kelajak uchun asrashini kerak. Boisi, Mengli Bug'adek lashkarboshi har kuni uchun. — Hasadchililar bu kabi gaplarni menga boshqa bo'lmog'ingizni rijo etamen. Siz nafaqat sadoqatli eng muhim layoqatli insonsiz. Aksariyat hukmdorlar kishilarni istaydilar. Layoqatsiz inson mehru sadoqatli han layoqatsiz ekanligini chuqur o'ylab o'tirmaydilar. Suhbatning qolganini safarda davom etdiramiz! Bu kutilmagan chorlov va mulogotdan o'zini yo'qotli qo'yan Mengli Bug'a ulbg'. Amiring qabulidan qanday chiqqanini bilmadi. Do'konigacha piyoda ketdi. O'gzi qonga to'sa ham dushmani oldida tupurmaydigan Mengli Bug'a hayotida bu qadar izza bo'lmagan edi.

Temur uning saxiyiliqi, barchaga bir ko'zda qarashi, saltanat uchun molijonini ayamasligi uchun yaxshi ko'rardi. Odatta sahroyilar orasidan dinini mahkam tutgan, xayri-saxovat eshigini ochiq tutadigan kishilar kam chiqardi. Qipchoq dashstining davlatmandlaridan sanalmish Mengli Bug'a daryodan suv bag'ishlagan odam edi. Safarda qo'shinga oziq-ovqat yetmay qolrini bag'ishladi. O'sha paytda bunchalik naqd oltin temurda ham yo'q edi. Uning saxiyiliqidan hayratga tushgan Temur ottinining bir qismini qaytarib olishini so'raganida Mengli Bug'a bergen javob yanada hay.

— Oltinni ilon qo'riqdaydi, Temurbek. Odam zotining boyligi ko'paygani sari u avval qo'riqchi ilonga aylana. di. So'ingra ilonsifat odamga! — degan edi u kiprik qmay. — Orqalab qayerga ham olib ketamiz? Avlod qolgan mulkni qadrlamaydi. Ularga baliq yemoqdan ko'ra baliq tutmoqni o'rgatmoq kerak. Borliq bir balo bo'lsa, yo'qlik ming balo. Jo'qlik jo'mardni jig'ar deydi bizning qipchoqlarda.

Temurning ko'z o'ngida Mengli Bug'a bilan ilk anishgan kunlar jonlandi. U bu paytlarda vaziyatni qizqanib, kuch va imkoniyatlarini chamatlab mo'g'ul nomi llyosxo'jaga qarshi kurashni boshlash arafasida burchardi. Mengli Bug'a esa Temurning huzuriga kelib, uning xizmatiga kirmoq taraddudida yurardi. Qipchoq begining qobiliyatidan xabar topgan Tug'ilq Temurning amirlari uni ilib ketgan edi.

„U Keshning kunchiqish tomonidagi bog' ortasiga qurilgan qo'shkda kitob o'qib o'tirardi. Qishloq tarafidan qillandar va darveshlarining «Ulumolar fatto berdi!» «Turon yurtinining xaloskor! Temur Turkog'aydir!» «Ulus boshini Temur qo'shajak!» «Ayriganni ayiq yer, bo'llinganini bor'i yer!» deya jar solishardi. Temur ulaming bu xil chaqiriqlariga ko'nikib qolgan, keyinchalik esa ensasi qotadigan boldi. Bu chaqiriqlar uning niqliblari qonini qaynatar, Temurga qarshi tish qayrayotgan kuchlarni birlashtir edi. Shu kuni uning huzuriga kelayotgan Mengli Bug'a qirq nafar qalandar va darveshning bir oylik yemak haqini berib, butun Turklar o'lkasiga shu ohangda jar solib, aylanib chiqishni lopshiribdi. Bu haqda Temurga bir yilidan so'ng, amir Boboturk hikoya qilib bergen edi.

Bu ishlar Temurdan boshqa hech bir hukmdordan ko'rmagan izzat-hurmat va ittifoq, islam diniga naq'batni ko'rgan ahli ulamoning ishi edi. Shunda Temur dinning asli kuchini ko'rgan edi va Allohning ana shu haq dinisiz o'zining buyuk maqsadiga yeta olmaganligini anglagandi.

Temurning dini islam yo'lidagi jihodi barcha o'lkalarda tan olinib, ilgarigi va keyingi avlod islam olimlarining barchasi bir og'izdan ittifoq bo'lib, Allohi taolo hazrati risolatpanoh payg'ambarimiz, unga tangrining marhamatlari va salomlari bo'isin, uning dinini tarqatish uchun har yuz yilda bir kishini dinni yan-

tarqatuvchisi Amir Temur Sohibqirondur deya til diqlab, fatvo berdiilar.

— Men Oollohning oddiy bir quliman! Bul kabi ulug' xizmatlarga hali yetishganim yo'q. Meni bul qadiri madh etib, to'g'ri yo'ldan adashtirmanglar! Hamdu sano Yaratganga yarashadi. Oolloh qahrimini keltirmaylik — der edi Temur bu mavzuda gap ketganda.

Din peshvolari va olimlari bilan suhabatda ham u bul paytalaridayoq islamga xizmat qilgan ulug' insonlar hayotini o'rgangan edi.

Hijrat ya'ni Muhammad payg'ambar va uning taraf dirlarining Makkadan Ma'dinaga ko'chishidan so'nq dinni yangilovchi kishi Umaviya sulolasiga mansub xalifa Umar ibn Abdulaziz bo'idilar. Ul kishi islam dan ilk bor ajralib chiqqan xorijiyalar, ya'ni, isyonchilari minbardan turib, hazrat Aliga ta'na qilishib, islam dinini zaiflashitrganda bu nizoni bartaraf eta olgandi. Bu davrda islam ahli ittifoqi buzilib, bir toifa odamlar to'g'ri yo'ldan borgan xalifalarni la'natlab, ularga ta'hu va dashnom yog'dirdilar. Boshqa birlari esa mo'minlar amiri Ali boshliq imom Husayn va hazrati Abbosha la'natlar edilar. Bu ikki guruh ham ozaro adovatda bo'lib, o'ta mutaassib edilar. Umar ibn Abdulaziz bu nizolarni bartaraf etib, dini islamning to'g'ri yo'ldan ketmog'ini ta'minlagandi.

Ikkinchisi yuz yillikning din yangilovchisi xalifa Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid edi. U dinda paydo bolgan yetni shi'li turli botil mazhablarni yo'qotib, haq mazhab kizinchisi imomi Ali ibn Muso Ja'farni Xurosondon o'll kelib, o'ziga valiahed e'on etib, uning maslahati bilan mamlakatni boshqardi.

Uchinchi yuz yillikda islam dini yangilovchisi xalifa Muqtadir billoh Abbosiy bo'idi. Ismoiliylar mazhabini ing karmatlar tarmog'i Abu Tohir boschchiligidagi Makka ni bosib, arafa kuni haiga borganlarning ottiz mingini shahid etdilar. Muqaddas qora tosh al-hajar al-asvadni

Ka'bada ichidan olib ketdilar. Islam mamlakatlarini talonli o'qildilar. Shu bois din zaifashdi. Muqtadir billohu qavm ustiga qo'shin tortib, ularni bartaraf etdi. Din vuna o'z iziga tushib rivojlandi.

Har yuz yillik so'ngida yokim boshida dinda musulmonlar aqliga kelmagan muammo va tashvishlar paydo boilar, o'zini qariyb payg'ambar hisoblaydigan ayrim xalifalar ko'z ko'rib quloq eshitmagan nomi qulchiliklarga qo'l urar edilar. Abbosiy xalifalardan Mut'i shunday qildi. Xalifaning kishilari millatga zulm o'tkazdi, fisqu fasod xalifalikni halokat yoqasini keltirdi. Shunda Alloh qalibiga islamni yangilanishni o'lgan shaxs buvayxiylar qavmidan bo'lmish Izzudduvia Daylamiy bo'idi. U Mut'in taxtdan tushirib, uning o'g'il Toi' billohni valiahd tayin etdi. Daylamiy bevosita ihoni yoymoq, tozalash, bid'atni yo'qotish va noshari'yiyishlarni bartaraf etmoq, jabru zulmga barham bermoq borasida inqilobiy ishlar qildi.

Islamiyatning beshinchisi yuz yilligi ilmu she'riyatda ulug' shaxslarni yaratdi. Xurosonlik mashhur hadis olini va mutasavvuf shoir Ahmadi Jom va g'aznaviyolar davring ulug' shoiri Hakim Samoilov millat qalbida va yomonida o'zgarishlar bo'lishiga erishdilar. Bularning muridi bo'lgan saljuqiy turklar hukmdori Sulton Sanjar dinsizlar va johilarga qarshi mujodalal boshladi. Millat shariatning go'zal maqomida yashash davriga yetishdi.

Turon va Eronning, Dashti Qipchoq hamda Xuronning bepoyon kengliklariiga kelib o'z millat va dinini yo'qotgan, islamni qabul eta boshlagan mo'g'ullardan ham ulug' din himoyachilari yetishib chiqdi. Ottinchisi yuz yillikning boshida bunday shaxs deya Giozonzon ibn Arg'unxon ibn Xalokuxonni tan oldilar. U Eron va Ozarbayjonning xoni bo'lib, qo'l ostidagi turli qavm va qabilalardan tashkil topgan yuz ming kishilik qo'shini bilan Lor sahrosida shayx Ibrahim Hamaviy yollboschchiligidagi Alloha jymon keltirib, musulmon bo'idi va mamlakatda shariatga rivoj berdi. Yettingchi

yuz yillikning boshida esa og'asi G'ozoxondan so'liyo  
taxtga o'tirgan Sulton Muhammad Xudobanda bu  
yo'ida ilm va aql bilan ish yuritib, ahli mo'min e'tiborini  
qozondi.

Imagan inson Turon yurti hukmdori deb tan olin-megan. Keyinchalik bu toshga munosib shaxslar qatlrixda vosidaq tasodifiv shaxslar ham o'tirdilarki:

**Amm** Lemur, Mir Sayyid Sharif va Abu Bakr Tay  
bodiy va boshqa islam dini ulug'larining maslahati  
hamda ko'magi bilan dinu shariat ishlari tuzugini varal  
di. Bu yususda turin i'shlari tuzugini varal

paydo bo'imas, shu tuzuk asosida hech bir muammo boshqaruvi tizimidagi shayx ul-islom, mufti va muta vallilar din ishlarini boshqarib boraverdiilar. Ulusning dinu e'tiqodini yo'naltirishni qonuniy tarzda hal qilg'an Temur, shundan so'ng davlatni boshqarish tuzugini yaratdi. Saltanat qonun-qoidalarini islam dini talab va ehtiyojlariga mostladi.

Lemur sevirmi oti Oqbulturda Ko'ksaroydan chiqib  
Bog'i Behisht tomon yurar ekan, beixtiyor, to'rt qavallar  
saroyning gumbaziga tikilib qoldi. Gumbaz ustida  
minglarcha oq qizg'ish va kulrang yowvoyi kaptarlar  
samoni to'idirib uchib-qo'nishar, bu manzara kishi  
ruhiyatiga ilohiy bir tuyg'ularni solardi. Olloh yorlaqa  
gan joylarga bu qadar ko'p kaptar va musicha, yozda  
esa qaldirg'och kelishi mumkin xayolidan kechdi un  
ing.

Bu saroy va davlat devoni uchun oly ark qurilib arning ichida Ko'ksaroy va Bo'stomsaroy joylashgan bo'lib, temuriylar davlatining yuragi xuddi mana shunaqshli gulli parchinlar bilan qoplangani uchun u o'zidan shunday atalib ketdi. Temurning ko'sratmasi bilan Ko'ksaroyning eng katta solining to'shalgan oq hisoblangan oq kigizga o'tqazishning eng olyi belgisi so'ng taxt Ko'ktosh ustiga qo'yildi. Bu qimmat baho nefrit toshini Temur Oltoy tog'lari etaklaridan, qadimiy turk zamini Urxun daryosi bo'yidan olib kelgan edi.

Ana shundan boshlab Ko'ksarovdaci ko'ktosh

log'i Behisht tomon otti jilovini burgan temur uhlung  
impo bo'ilishi haqida o'ylab kelardi. Shunda u eni ming  
jumandan ortiq saroy uchun Tabrizdan mashaqqal  
oq marmar olib keltirgan edi. Bog'ning hayvonon  
ing'chasiga yetti iqlimning turli xil jonzot va qushlar  
dashadi. Bu qush va hayvonlarni Temur kelgan ku-  
lidan beri parvarishlatar, ularning barchasi bosh egaga  
ni tanishar, Jo'chi hukmdorlari jo'natib turadigan ovch  
qushlar, qirg'iy va shunqorlar qarovchilar darichasini  
ichishi bilan uchib chiqib ulug' Amir atrofida parvona  
holishar, eng totti yeguliklarni uning qo'llidan yer edilar.  
Bog'i Behishtga kirgach, u to'g'ri hayvonot bog'chass  
humonyo'naldi. Ulug' Amirko'rishi bilan o'qrangancha  
yugurib keladigan jayron bog' ichida bo'sh yurar edi.  
U har doim bog' tomon otqliqlar kelaversa darvoza to  
mon chopar, Temurdan boshqa odamlarni ko'rigach  
ma'yusgina iziga qaytar edi. Taxsifat so'riga og'i  
ho'kkan Temur jayronning boshini silab, uzoq o'tirtili  
oldi.

Uning xayoliga beixtiyor, o'limini o'ylamagan mu'lum emas, degan so'z kelaverar va o'z-o'zidarnayotining og'ir daqiqalarini qayta mushohada etasboshlardi. U ilgari barchaga birdek yaxshilik cilaveran ular menga do'st bo'lib, xayrixoqlarim ko'payad vi shu yaxshiliqim uchun ular menga har qanday sharoitda sadoqat saqlaydilar deb o'ylar va bu fikrga ishonib yashar edi. Uning boshidan shunday og'ir damlar kechdiķi, bu o'zi va yolg'iz Alloha ma'lum. Lekin shunday mashaqqatlari daqiqalarda unga ichki ilohiy binans, sen sinovdasan, tobian, pish, shunday pishginkini hayotining eng so'nggi damlarigacha hech kim oldida boyin egmaydigan, hech kimga yengilimaydigan

g'oliblik shohsupasidan tushmaydigan bo'igini! Va tuya'udan uning vujudida so'z bilan ifodalab bo'lib  
bir qudratli xislar junbushga kelar, kelajakning saodat  
kunlari shundoqqina ko'z o'ngida gavdalananardi.

Zindonda yotganida, Keshda kimsasiz qolganlik  
Husaynning kasofati bilan Chinozda muvaffaqiyatli  
likka uchraganida, Seyistonda og'ir jarohatlantirilish  
yoxud endi o'zligini tanib, o'n to'rt yoshida dong'i koluni  
kurashchi bo'lib tanilganida odamlarning o'ziga bo'lgan  
g'arazli va tuban munosabatlari uning go'zal hayot va  
adolat haqidagi tasavvurlarini chil-parchin qilib yubor  
di. Ko'ziga barcha insonlar bir-birini g'ajiyidigan vali  
shiy hayvonga o'xshab ko'rindi. Ulardan bezib toqqa  
Toshqo'rg'onga Chiqib ketdi. Odamlar qanchalik xon  
va sotqin bo'imasinlar, ulardan qanchalik bezmag'ul  
arsiz yashash mumkin emasligini o'sha yerda anglat  
yetdi. Anglagan sari odam zotidan hafsalasi pir bo'lli  
borar edi.

Keyingi paytda o'z fel-atvorida me'yordan orta  
qattiqqo'ilik va talabchanlik paydo bo'lganini his qila  
boshladi. Xuddi shunday vaziyatda ishi yurishayol  
ganini, bir og'iz so'zi bilan katta-kichik ishlar tez va  
ko'ngildagidek bitayotganini ko'rdi. Odamlarni o'zinggi  
yaqin olib, ular bilan samimiy munosabatda bo'lsang  
xon sur emgan inson bolasi buni to'g'ri tushunmali  
ekan. Bunday odamlar mavqeing bo'shashishi bilan  
seni unutar, sotar va hatto dushmanlik yo'liga o'tar  
yurar edi. Keyinchalik yon-veridagilarga nisbatan  
qattiqqo'iroq bo'la boshladi. Loqayd insonlardan ko'ngi  
sovugan, ishsiz, do'stsiz, boshpanasiz va oиласиз yur  
gan paytida butun boshli lashkar oldida o'zini ochiq  
oydin tahqirlab, o'dirmoqchi bo'lgan amir Yoxmoqning  
lashkarboshisi, Kular Kamolni chopib tashladi. Shun  
dan so'ng birdan odamlarning unga bo'lgan mun  
qolganda, u insonlarni mehr-muhabbatdan ko'ra kuch  
va qo'rquv ostida boshqarish oson kechishini anglab

ayridan yoka ushlagandi. Demak sen qavn bilan  
ishlagan tilda gaplashishing kerak ekan degan xu  
naga keldi. Bu holatni bir emas, bir necha bor sinab  
urdi. Har doim me'yorni saqladi. Birovg'a ochiqdan  
hiq zulm o'tkazmadidi. Sulhga undadi, gunohini ke  
hdi. Aybini ko'rib ko'rmaslikka, eshitib, eshitmaslikka  
di. Yaqin odamlari vositasida so'z bilan ta'sir etdi-da,  
siz oqibatda siyohu raiyatni umid va qo'rquv, hayrat  
ni hayiqish orasida saqlash lozim ekan degan xu  
naga keldi. Do'stga ham, dushmanga ham murosa  
ni medora eshigini ochiq saqladi. Ular nohaq so'z va  
sabablar bilan kelganida tushunadiganlariга nohaqli  
ni shunday ohangda anglatdiki, shunday song ular  
unday gap-so'z va muammolar bilan olyi hokimiyat  
almalari huzuriga kelmaydigan bo'ldilar. Tushunib yet  
maydiganlar esa shunday bir hayotiy iqlimda yashar  
dillari, asta-sekin o'z nohaqliklarini anglab yetardilar.  
Buhjarayonda uyana bir narsani mohiyatiga yetdiki,  
hokimiyatni faqat yaxshi so'z, sulh hamda murosayu  
madora bilan egallab va qo'lda tutib bo'limas ekan.  
Kuch, ustunlik va har qanday sharoitda, har qanday  
yo'li bilan bo'isa-da, haqilingini isbotlash. Istaysanmi,  
yo'qmi odamlar g'olibdan sulton, mag'lubdan mutta  
ham yasar ekanlar. Shu bois, hokimiyatga da'vo qila  
ishladingmi boshqalariga nisbatan haqroq va adola  
lioq yo'idan borib, raqiblarni bartaraf etmoq vositas  
ia maqsadga erishish kerak bo'lar ekan. Taxtga inti  
lish yo'ldagi kurash va harakatlardan bitor bir qonuni  
yal axtarish, undan falsafa so'qmoq ham ahmoqona  
fir turikchilik ekanligini u juda erta anglatdi. Juda ko'p  
narsalarni ijobjiy yoki salbiyligidan qat'i nazar odam  
lar ongiga o'mashib qolgan aqidalar, ruhiy va axloqiy  
ilqodlar hal etarkan. Bu an'analarни buzmoq uchun  
ma sen ular jymonida inqilob yasamog'ing, qalbi  
ni larzaga keltirib, ularni hayratlantirmog'ing kerak  
bo'larkan. Gayritabbiy xatti-harakatlarindan hayratga  
tushgan kishilar o'zlaricha beixtiyor, seni ilohiyashtir  
moqqa kirishar ekanlar...

...Temur erkalanayotgan jayronning boshi, boy va qulqolarini silar ekan, ertaga chaqirilgan qurulishidan qanchalik savash ishtiyocida yonmasin, nadigan iki yillik yurish muhokama etiladi. Odalik Temur safarlar oldidan qurultoy o'tkazishni u qo'li urmas edi. Boisi, qurultoydag'i reja va gap-so'z qoshindan oldin raqib tomonga yetib boradi. Bir qo'g'ulchidan dorga osilganidan so'ng, qurultoyga qatnashadiganlar o'ylab gapiradigan, sovuq suvni ham pulfai ichadigan bo'lgandilar. Keyinchalik surishtirisa, payg'ambar avlodni ko'ssatib yurgan axloqsiz va nus kelgan bir aygioqli bo'lib chiqdilar. Uni o'nboschi yuzboshi va mingboshlikka tavsiya etgan ulus amri Tursunboy Qoraxitoy eshakka teskari o'tqazilib, Sa'marqand ko'chalarida sazoyi qilindi.

### O'N OLTINCHI BOB

*Mening ummatlarim faqat o'zining fikr xelobs evliyotib, boshqalarni eshitmasa, ulamiz deslech qo'shishiga olib keladi.*

### Muhammad payg'ambar (s.a.v)

Ko'ksaroy hovlisini to'ldirgan amiru beklar, qarinhishtdan kelishini kutib, o'zaro gurunglashib turishi, xon esa Buxoroyi sharifida edi.

Qo'shin qo'mondonlarning dami baland, ruhlari te-to'qishardi. Savash ular uchun boylik va shon-shuhrat edi. Saroy a'yoni esa odatdagidek kamgap, o'ychan va bosiq edilar. Lashkarning aksi o'laroq ular muammalarni tinch yo'i bilan bitirish payida bo'lardilar. Qo'ig'a

ching olingandan keyin oqibatini hech kim bilmaydi. Sakkars qanchalik savash ishtiyocida yonmasin, taqdiri saroyda hal bo'ladi. Ertakunda o'ylab-yamay gapirgan har bir so'zga javob berishga to'g'ri yildi. Amir Valiga qarshi savash Dashti Qipchoqning yaylovlarini yokim janubiy Turkistonning adirlarida mos, Mozandaron changalzoru o'rmonlarda kecha. Bu to'qayzorlardan o'tmoqning o'zi bir savash. Ulug' Amiring kelayotganidan xabar topgan amir, likarboshi va mulozimlar ikki chetga tizilib, ta'zim qo'ltirgancha boshlarini egib, beklardilar. Otda sangu darvozasigacha kelgan Temur kirish eshigiga yetincha qadar bosh irg'ab, to'planganlarga salom berib, janulariga alik olardi.

Mavjud tartib va taomilga ko'ra ulug' Amiring o'g'llari, nabiralarini va qavm-qarindoshlari o'z imola va martabalariga munosib ravishda xuddi oy qir'onlagandek saltanat taxtini o'rab o'tirar edilar. Bayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxar, ulug'lar va illy tabaqaga mansub sharafli kishilar taxting o'ng imonda o'tirardilar. Amir ul-umaro, beklarbegi, amirin, ho'yonlar, ulus, tumanlar va qo'shincharning sardorlar va amirlari, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboschilar mansablariga yarasha chap tomonidan joy olar edi.

Devonbegi va vazirlar esa taxt qarshisida o'tirardilar. Saltanatga qarashli mamlakatlar, el-uluslarning kalonlarini va kadxudolari esa vazirlar orqa tarafida turar edilar. Bahodir unvoni sohiblari va eng mashhur qilinboz o'g'onlarga saltanat taxting orqasida, o'ng tomonidan joy ajratilardi. Qorovulbegilar esa taxting orqa tarafidan so'l tomonda joy olardilar. Hirovul amiri Temurning qarshisida o'tirardi. Ichki, xususiy yasovul, yani, kichik lavozimdag'i saroy xizmatchisi esa chodir yoki xona eshiqi oldida, taxt moyasining to'g'risida tik turardi. Dodxohlar, yani, arz-dod bilan kelguvchilar ning qabul qilib, podshohga yetkazuvchi mansabdorlar ham o'ng va chap tomonda tik turardilar.

Harbiy yurish paytida aholida safarbar qilinadigan lashkarni, ya'ni, soyiri sipohlar, xizmatchi va hashdeya ataluvchi eng yaqin xizmatchilar o'z vazifalarini huzuringizga borishdan uzrli tutsangiz va qaytishchilarni joy-joyiga o'tqazish to'rt nafer amiriga top shirlgan bo'lib, ular bu xususda mas'ul edilar.

Taomiliga ko'ra majlisning boshi yoki so'ngida men monlarga doimo ming tovoq osh va ming dona nom tarqatilari edi. Bu ming tovoq osh bazmga olib kelinib besh yuz tovog'i uluslar amirilariga, sarkardalarga qosoqollarning otari atalilq, oldilariga tortilar edi.

Ohista yurib borib taxtga o'tirgan Temur majlisida 'vatilarni chorlashni buyurdi. Dastlab katta to'plani taqqan ulug' Amirning yaqinlari kirdilar. So'ogra, amilashkar boshilqlari va saroy ayonlari kirib kelishdi. Temur mavqeiga qarab joyini olayotganlarni kuzata turib, so'ylayajak so'zi xususida o'ylardi. Barcha o'yerini olgach, ularga yuzlandi.

— Xush keldingiz, aziz birodarlarim! Muhtarlar amirlarimiz, sarkardalarimiz, ulus og'alarimiz va mingboshilarimiz! — deya o'tirganlarga murojaat etdi Temur. — Siz muhtaram birodalarimizga ma'lumki, biz Mozandaron hokimi Amir Valiga nisbatan har doim do'stlik va tenglik maqomida bo'lib kelganimiz, bun dan buyon ham ahdimizni buzzaymiz. Sizning izning giz ila men amir Boboturkdan Amir Valining mening nomimga yozgan maktubidan parcha o'qib bermoqni so'raymen. Buyuring, muhtaram amir!

— Sizga mal'umki, muhtaramlar, — deya so'z boshzlanib. — Biz aslida oldingi safarimizda Mozandaron yomon yo'l olgan erdik. Rug'ad yo'lidan o'tib, Kabud Joma, so'ngra Shosmonga yetib borganimizda ulug' Amir hazratlari nomi oliylariga Amir Valining odam-

ni novg'a-salomlar ilá maktub olib keldilar. Maktabun mazmuni quyidagicha turar. «Bir bor karam qilib, uni huzuringizga borishdan uzrli tutsangiz va qaytishangiz, bu banda orqangizzdan oyoq o'pishga yetib sinam va qolgan umrimni xizmat va mulozamatda ikuzsam». Shundan so'ng Amir Sohibqiron matemat qilib, uning rijosini qabul etdilar va burilib, Sammoni berdilar. Hech birimizning aqlimizga Amir Janoblarining so'zlaridan qaytishlari kelмаган edi. Taassufki voqealar intihosi shuni ko'rsatmoqda, fizarati oliylari! — deb so'zini muxtasar qilgan Boboturk ulug' Amiriga ta'zim baho ketirdi.

Temur mal'umotining qabul degandek bosh irg'adi. — Xabaringiz borkim, Amir Vali shunchaki so'zidan qaytmoq bilan cheklanmayot. Isyon ko'tarish baroqinda boshqa o'lkalarining hukmdorlarini ham bizga qayramoqda. Shuningdek, Ajam Iroqining elilusi ham Muzaffariylar zuimidan bezib, bizga bot-bot murojaat etmoqdalar. Podshohlarni va xalqni to'g'ri yolga solishi lozim bo'lgan ulamolar ham dinimizni urli tarafa tortib, shariat qonun-qoidalardan chekinmoqdar. Bu mamlakatlarda jabr-zulm va fisqu fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o'rnatib, bu filina va zulimga barham bermoq uchun ana shu yurtlarga yurish qilmoqlari lozimdir. Tangri taolo shu niyatning sharofati bilan mamlakatni zolimning qo'llidan tortib olib, odil podshohga topshiradi. Sizga ma'lumki, biz ham o'z zamonda ota yuritimir Turon yerini zolimlar toifasi qo'llidan tortib olgandik. Allah yo' bersa, yotti iqimni zolim va johil hukmdorilardan xalos etaklmidt! Qay bir mamlakatning raiyati o'z hukmdoridan ozor chekkan, yurt ahlining ul voliyidan ixlosi qaytgan bo'lsa, mamlakattarni zabit etuvchi haqiqiy podshohning bu hududlarga qadam qo'yishi bayramga aylanadi. Shu orinda sizga ulusimiz tarixidagi buyuk xato va folialardan birini ayrib o'tmoqchimanki, bu baxtsizlik yurtni vayron, ulusni sarson qilib, asrlar mobaynida

barpo bo'lgan hayotimiz asosini barbos qildi. Elle yomon ketib yaxshi kelmas, degan naql bor. Xoraz shohlar raiyatga azob bergan, pichoq etdan o'tib yakka qadalgan edi. Shu bois hatto islam ulamolari musulmon ruhoniyilari ham o'z podshoholarini qo'llali quvvatlamadilar. Dunu diyonati bo'lik yog'iy tarafda o'tib ketdilar. Xalq esa aslida qordan qutulib, bo'ronje tutilgan edi. Har narsaning ikki tarafni bo'lgani idek, Yuqon ustiga yopirilib kelgan bu qavmlar avlodlarimiz qilichdan o'tkazaroq, zulm etaroq, Ollohning inoyati bilan uning haq dinini qabul etdilar. Ulusimizga qo'shilish ketdilar.

Sohibqiron shu Yerda so'zdan to'xtab, biroz tin olti artdi-da so'zida davom etdi.

– Endilikda qay bir mamlakatda shariat zaifashqin bo'lsa, Olloh ulug' qilgan narsalarni xor tutsalar va xus sulton, hazrati Muhammad, sollallohu alayhi vasallam dini va sharoitiga rivoj berish uchun o'sha mamlakatga kirmogi' kerak. Xudoning rasuli unga madadu inoyat ko'rsatgan. So'zim so'nigida sizga maslahat solurman, sadoqatli lashkarlarim, aql-zakovatlari amirlarim! Siz ne desangiz shunga qarab ish tutajakmiz! – deb so'zin tugatgan ulug' Amir so'l tomonida o'tirgan amir ul umaro Xudoydod Barlosga o'girilar ekan.

Temur saroyining rusumiga ko'ra o'tirganlar martalariga qarab so'z olardilar. Qaln qoshli, sersavlatli, ziyrak, do'stu dushmanni farqlay biladigan tajribalarning eng birinchisi Xudoydod Barlos edi.

Ming uch yuz yetmishinchchi yilda Balk sari, Amir Husayn bilan so'nggi hayot-mamot jangiga ketayolga ketmadidi. Aniqrog'i Temur uni yonidan jidirmadi. Borsa, u to'g'ri va foydali maslahat bera biladigan odam edi.

Ular Balxga yaqinlasharkan, Xudoydod qarindoshi Temurga so'nggi, hal qiuuchi maslahatni berdi.

– Temurbek, siz Amir Husaynni shu paytgacha la'u avohirdek avaylab saqlab keldingiz. U esa imkonim top-juni zamон бuning aksini qildi. Mana endi oralaringdi kattakon xarsang tosh turibdi. Uni ana shu toshga hunday urmoq kerakki, nomu nishoni qolmasun! Undan turku tojik ulusiga, arabu ajam qavmiga, barlosga soyr kelmas!

Temur Xudoydodga uzoq va maholi tikildi-da, inlimadi. Biroq uning bu gapi bir umr qulog'iga quyulib, solrasida muhranib qoldi. Va hayotining eng muhim, hal qiluvchi damlarida bu so'zga amal qildi. Qon va jan dusshmanga rahm-shafqat qilmoq – o'z bo'yingga ilohab lahad qazish lila barobar ekanligini Temur kechiroq bo'lsa-da, anglati.

U jahongirlik da'vosi bilan maydonga chiqar ekan, bir muhim e'tiqodni diliga tugagan edi. Qaysi mamlakotni o'z tasarrufiga kirtmoqchi bo'lsa, to'g'ri tadbir va kengash bilan ish tutdi. Xatoga yo'i qo'ymaslik uchun har bir ishni puxta o'ylab, sergaklik va ehtiyyotlik bilan amalga oshirdi. Shu bois, har doim ne tadbir qo'llagan bo'lsa to'g'ri chiqqi. Har yer el-ulusining tabiatli va fel-atvorini yaxshi o'rganib, ularni rozi etatigan siyosat yurgizib, shunga munosib hokim tayinlid. Uchinchidan, uning atrofiga to plangan uch yuz o'n uch asil zottli, shijoatli va aql-zakovatli er yigitlar bir jenu, bir tandek edilar. Barchalarining niyatları, istaklari so'zları va ishlari bir maqsadga yo'naitirilgan edi. Hech qachon bular orasidan gap qochmas, buyuk maqsad uchun barchasi har qanday og'ir ishga tayyor edilar. To'rtinchisi, u tabiatan bugungi ishni ertaga qoldirmaydigan odam edi. Davlat ishini yuritmoqda yumshoqlik qillish lozim paytda muloyim bo'ldi. Qattiqko'llik qo'llikelanda, qat'iy choralar ko'rdi. Ullus va yurt taqdiri bilan bog'liq muhim ishlarni bir daqqa bo'isa-da, kechiktirindi. Chora-tadbir, murosayu madora bilan bitadigan ish uchun hech qachon qilichini qinidan chiqarmadi.

— Ulug' Amir Temur hazrati olyalariga hurmat va ehtiromlarimiz! — deya ta'zim bajo keltirgan Xudoydon qaddini rostlab, so'zini boshladi. — Men siz azizlarga hi narsani so'yamoqni o'z burchim deb bilaman. Sizga ma'lumki yurtimizni azal-azaldan bosqinchilar topish kelganlar. Chingizzondan boshqa barcha yog'iyalarini Zulqarnayn deysizmi, Doro deysizmi yokim Turk xoqonlariga qarshi kurashgan shohlar borkim barchasi qarali Eron taraffan kelgan. Arablar ham turk ulusiga qarali kurashda ulardan foydalandilar. Turon yurtidagi barcha xoqonu bekarni azl etib, ular o'miga o'zlarini olib kelgan eroniylarni qo'ydilar. Boisi, bu ikki qavm birlashma bizning ota-bobolarimizni yenga olmas edilar. Yemoq ning qusmog'i bor! Zamoni keldi. Biz ham bu qavmlar bundan buyon yana yerimizni oyoq osti qilmasliklar uchun saboq bermog'imiz lozim deb o'layman. Eng yaxshi himoya chorasi hujumdir degan naqlga anna qilmoq lozim. Umuman olganda bu his-hayrajonli eron qavmi, fors tilli uluslar me'yorni bilmaydigan, slyo satda o'rta yo'ini topa olmaydurg'on qavmlardir. Bu hisoblashmaydigan bo'lsa, dinsizi ham xuddi shunday johildur. Shu bois, tezroq bu sarhadlarni saltanatning hududiga kiritib, tartib-intizom ornatmog'imiz kerak! deya so'zini tugatib, ulug' Amirga ta'zim qildi amir ulumaro Xuddoydod.

Temur humrat bilan bosh irg'ab, unga javob qaytardi. Shundan so'ng qisqa bir muddat jumlik cho'kd. O'tirganlar noto'g'i tushunmasinlar degan maqsadida Temur hech kimga sen gapir ma'noda qaramadi. Nihoyat tomoni qirib qo'yib, amir Sayfuddin o'midan qo'zg'oldi. Temurga xiyol egilib ta'zim qildi-di, so'zlamoqqa izn so'radi.

— Muhtaram amir ul-umaromiz Xudoydodbek g'oyat maqsadli va aniq soy'ladi. Bundan mantiq so'zlamoq mushkuldir. Zotan Rum yeriga yerlashgan qavmlarimiz u tarafialga yaxshi hayot izlab bormadi. Ota yurtlariga sig'maganliklaridan, bosqinchchi va

minlarning zulmidan hijratni ixtiyor edtilar. Bul fikrlarga qishilgan holda Iroq Ajam masalasini ham hal qilmoqiga da'vat etamen. U yerda xalqqa zulm o'tkazayotgan Muzaffariyalar siyosatidan norozi bo'lgan elattar vakilani hozir ham Samarcanda turibdilar, saroyimizdagি yutuk kishilar, lashkarboshilar bilan uchrashib, vazifani anglatmoqdalar. Shuning uchun bu borada ham qarorga kelsak yomon bo'imas deb o'layman. Erboringiz uchun tashakkur bildiraman, — deya so'zini lug'idi amir Sayfuddin.

Temur nigohi ila unga hurmat bildirib, bosh irg'adi. Birlinda Mozandaron safarini ma'quillovchi ovozlar bera-bahitdi. Shayxulislom ham bu yurishga fatvo berajagini bildirdi.

Ming uch yuz sakson to'rtinchchi, turk taqvimi bo'yicha shloqon yiliida Mozandaron sari cherik tortildi. Temur shloqo kechuvalrida qo'shinni ko'zdan kechirar, sanab shloqar va cherik qo'mondonlariga kamchiliklarini aybar edi. Darvoqe, qo'shining daryordan tez va tadillli o'tishi uning savashga qanchalik hozirligini ham ko'satar edi. Bu safarda ilk bor o'rdu tarkibida yuzboshi Oysuluv Erxon boshchiligidagi ayollar qismi ham hor edi. Temur jasur, ancha-buncha erkakni qilichbozida surobini to'g'rilab qo'yadigan bu ayloga alohida ilbor ko'satardi. Temur Oysuluvning avlod-ajododini surishitirib, uzoq o'rgangandan so'ng yuzboshilikka inaynladi. Oysuluvning ona avlod qadimiy turk xoqonlari ajoddiga taqalar edi. Eski davrda turk xoqonlari konimlar va qurultoyning qaroriga binoan deya farmon chiqarishar, ayollar xo'jalik va harbiy ishlarda erkaklar bilan birdek xizmat qilishar, otu ketmonni barobar chonishardi.

Temur odatdagidek tepalikda turib qo'shin harakatini ko'zdan kechirarkan, Erxon qismining daryordan o'tishini diqqat bilan kuzatdi. Ular erkaklardan-dachaqqon va faol edilar. Ot ustida qush kabi uchardilar. Saltanatning janubiy hududlaridagi qismlar ham Baixga yetib kelishi bois, shahar atrofida bir muddat

mashq qilib, kutishga to'g'ri keldi. Shoh Shuj'onliu amirzoda Pir Muhammadga unashirilgan qizi Feru zabonuni olib kelmoq uchun ketgan to'ychilar ham Balkga yetib kelishlari va to'y marosimi ham shu yerda o'tkazilishi lozim edi.

Kelinni olib kelmoq uchun Fors tomon ketgan Uzon O'jaytu va Hoji Xoja dabdabayu asasa bilan Feru zabonuni Balkga olib keldilar. Mahd ulyo Saroy Mulk xonim va Tuman og'o bosh bo'lib shaharga kirishda yalang bo'zalamda kelinni qarshiladilar. Uning yuzini ko'rib, boshidan sochqilar sochgach, saroyga olib keldilar.

Bu Temurning ilk o'g'i nabirasi Pir Muhammadni uylantirmoq to'yi edi. To'ng'ich o'g'i valiabd amirzo da Jahongir Mirzoning farzandi edi. Temur kimsaga og'iz ochmasdan uni o'z or'niga xoqonlikka tayyorli edi. Otasi ko'rмаган ro'shnolikni bolasi ko'rar degan umidda edi.

To'ychilar Fors tarafдан yetib kelgan kuni Alp Turkash peshin namozidan song kutilmaganda ulug' Amir huzuriga keldi. Temur uning tashvishli qiyosidan biron noxush voqeа sodir bo'lganligini payqadil Tinchlikmi? – degandek sohibxabarning ko'ziga hadikla boqdi.

– Ruxsatingiz bilan Hoji Xojani zindonga solib turinkor etib bo'limas darajada, – dedi bosh maxfiy bu yo. – Nima qilibdi u? Zinomi, rishvatni? – so'radi Temur ne voqeа sodir bo'lganini sezib.

– Ham rishvat, ham zino, – javob qildi Alp Turkash. – Rishvatni kimdan olmish? – so'radi Temur.

tib, katta-kichik mansablarga qo'ydiraman deya olibdi. Shohning oldida sharmanda qilibdi-ku, – dedi Temur xijolatdan peshonasi terlab. – Zino kim bilan? – U tarafda siyg'a degan gap bor ekan. Bizdag' joriya deganga o'xhash. Har kuni imom nikohi bilan

bittadan siyg'a uylanibdi. Yo'ida kelayotganda kelin imonning xotin-xalajlariga ham ortiqcha gap-so'zlar qilibdi.

– Guvoh nechta?

– Yetti. – Oly qoziga uchrashib, u bilan guvohlarni yuzlashtiring! Sizningcha qozi unga ne jazo beradi? – so'radi Temurning boshi qotib.

– Dor, hazrati olylari, – javob qildi past ovoz bilan Alp Turkash.

– Faqat to'ydan keyin. O'likni qo'yib tutga yugurmaylik, – dedi ulug' Amir maxfiy boshliq'iga ketmoqqa ruxsat etarkan. – Bu boshi yumaloq, buti ayri maxluqlarni odam qilaman deb o'lib ketsak kerak! Eh, hayfi insonlik! Hayvon! Oraga yolg'on-yashiq va fisqu fasod aralashmasun! – dedi so'zi so'ngida Temur ogohlanilib.

Bosh maxfiy ta'zim bajo keltirib, ulug' Amir huzuridin chiqdi. Hoji Xojani Balk zindoniga tashladilar. Zindonga olib borar ekanlar u yo'l-yo'lakay yig'lab ketdi. Og'iz ochib bior so'z demadi. U osilishini bilgan edi. Temur davlati qonunlarida rishvat va zino uchun o'lim jazosi berilar edi.

Bir ahmoqlik ikkinchi ahmoqlikni yarratar ekan. Shoh saroyida ularni xuddi Temur kabi qarshilab, izzat-ikrom ko'satdilar. Og'zi va burnilaridan chog'ir quydilar. Ko'rмаганинн ko'rgani qursin deganlaridek, Hoji Xoja shundan song o'zidan ketdi. Axloq tarozusi posangisini to'g'ri tuta bilmadi. Mana oxir-oqibati. Nafshi ni fiymaganning ahvoli shul erkan. So'ngra u zindonbonga og'ziga siqqanicha oftin berib, o'zini qochirishni so'radi. Biroq zindonchi bu ishga juri'at etolmadi. To'y tantanalari niyoyasiga yetib, oppon-soppon bo'lgach, qo'shingga yurmoq farmoni keldi. Ulug' Amir Murg'ob suviga yetganda Hirotdan istiqboliga amirzo da Mironshoh nikohidan o'g'il ko'rgan Xonzoda begim iki oylik Xalil Sultonni bobosining duysi fotihasini ol-

moq uchun olib keldi. Saroy Mulkxonim yangi avlodning onasi sharafiga to'y berdi.

Nabiraning beshik to'yini o'tkazgan Temur Saroy mulkkonim boshchiligidagi barcha xonimlarni Saman qandga qaytmoqqa ruxsat berdi. Uning yonida fajisi Tuman oqo goldi.

Qo'shin Saraxs va Obivard orqali qadimiy Niso shahri tomon yurdi. Temur kun chiqishi go'zal yaylov

lar va kun botishi baland tog'lar bilan o'ralgan bu shahni yoshiligidan eshitgan, ko'rmoq orzusida yurardi.

Shaharga kirarkan «Turon yurtining bu ajoyib shahni ning bir dona g'ishtiga ham qo'i tekkizilmasun» degan farmoni olyi tarqatildi. Balandlikda, tog' yon bag'ridi joylashgan shaharda yashamoq odamga ilohiy bir ruh baxsh etardi. Kishi ko'ngli ko'tariilib, orzu va armonning inson aqli qamrovidan tashqaridagi kengliklarini dil qo'msar, sarxush kabi yurar edi.

Saharmardonda uyg'ongan Temur pastlikda juda katta bir gulxan yonayotgandek yorug'lik ko'zga tashlanganda hayratdan o'rnidan turib ketdi. Shundoq qina shahar ostonasidan quyosh bosh ko'tarardi. Mana senga Oollohning tabiatning mo"jizasi deya hayming, o'n ming, yuz ming yillar burun ham odamlar ko'tariishini kuzatganlar. Men ham kuzatmoqdamani Mendan so'ng ham kuzatdilar...

Bu ilohiy darajada go'zal manzara, ranglar raqsini esini tanib, tevarak-atrofga ilk bor hayrat va qizishila boqqan bolaligiga olib ketdi. Uning Keshdag o'tov yoki chodir qursalar ham otasi eshigini quyoshning chiqishiga qaratib qurardi. Quyosh doimo tog'lar tepasidan xuddi mana shunday chiqrar, yerdan uzoqlashgani sari qizg'ish rang oltin rangga aylanar, eng baland cho'qqiga yetgunga qadar tog' yon bag'irlarini qizg'ish rangga bo'yab ko'tarilardi.

Sog'uvchilar ayni shu damba sog'imga kirishardilar. Iltor kuni, kechasi qay mahalda uxlashidan qat'i nazar uyg'utoshda o'ynayverib qo'iwa oyoqlari chaqa bo'gan turur sigirlar sog'ib bol'lingunga qadar uyg'ommogi berik edi. U betini yuvib, ko'zini uqalagancha, tayog'ini illi, sigirlarini podaga haydab borib qo'shar edi. Tush bilib o'tib ketdi u kunlar.

Temur Niso saroyiga qo'ngan, saroy qarhisidagi yulqinlikda kattakon saroparda tikilgan edi. U etak-lagi o'tovlaridan chiqib, quyoshning bu qadar g'aroyib chiqishini kuzatayotgan uch lashkarboschisi Shayx Ali hahodir, Sevinchak Bahodir va Mubashshirlarni tanidi. Ular ham ufq sari tikiilib turган Ulug' xoqonga qarab inzima salom berdilar. Temur imlab ularni yoniga qo'qirdi. Ko'm-ko'k o'tloqqa yonboshlab suhbattashib o'turdilar.

— Mana shu nurga qarab yuraveramiz. Dengizga yelganimizda to'xtaymiz, — dedi Temur ancha balandlab qolgan qirmizi barkashdeq quyoshdan ko'z uzmay. — Quyosh yo'limizni yoritmoqda! Olloh nasib etsa bizni buyuk fathlar kutmoqda hazrat! — deya javob qildi Mubashshirbek.

— Illohim! — dedi Temur. — Olloh yo'limizni ochiq qilin! Ko'nglim sezmoqda. Qani so'ylangchi Mubashshirbek, birodarim, ishni nedan boshlagaymiz? Maslahatingiz ne turur?

— Xabarингiz bo'lganidek, a'lo hazrat, Valibekning quvvoli Durun qal'asining darvozalarini berkitib, bizni kutayotgan ermish. Ijozatingiz ila alarni mushtoq qilmaylik. Bizni kutaverib ko'zları to'rt bo'lmasisin, — deya javob qildi amir Mubashshir kulib.

— Sizni kutib olib ishtoni ho' bo'lgandan ko'ra,

kutaverib, ko'zları to'rt bo'lgani ma'qul emasmi? — haliliga hazil ila javob qildi Temur.

— Menimcha, ulug' hazrat, bo'ladijan ishning bo'lgani, o'ladigan bemorning o'lgani ma'qul. Biz ham ishni o'z vaqtida bitirib, qiliichimizni tozalab, qiniga solib qo'yaylik. Agar hazrati olilari oq fotiha bersalar, biz

uchovimiz chergimiz bilan yog'iy qorovuli tomon lili ot qo'yaylik. Har holda kelganimizni bildirib qo'yavil demeoqchiman. Qani ko'raylikchi bu qizilibosh birodin larimizning qo'llaridan ne ish keladi? Shunga qanli to'mi bichsangiz, tikmoqni esa bizga qo'yib bering!

Temur sizlar ne deysizlar, hadeb biz gapiraveren mizmi degandek Shayx Ali Bahodir bilan Sevinchlik Bahodirga qaradi.

— Izn bersangiz biz bir savashib kelaylik. Anchisi bo'idi qilich sermagananimizga, — dedi Sevinchak Bo'odir o'midan turib. — Mashqlarni amalda sinamaslik bo'imaydi.

— Men ham shunday fikridermen, hazrati oliyilar! uni quvvatladi Shayx Ali. — Savashmoq esimizdan chiqib ketmasin tag'in.

— Bo'lmasa sizga oq yo'lli! Olingu oldirmang! Alloli qo'llasini! Omin! — deya ularni yo'ichi etdi Temur birma bir yelkalariga qo'llini qo'yib, ko'zlariga tik boqar ekan lan!

Temur saralangan uch sarkarda bo'llinmasining qo'shinidan ajralib chiqib, Govkush mavzesi tomon yo'nalganini kuzatib turdi. Shahar tepalikda bo'iganlari uchun pastdag'i lashkar shundoqqina kaftagidek ko'rini turardi. Chang to'zonsiz, toza tong havosida ko'z uzoq-uzoqlarni ilg'ardi...

## O'N YETTINCHI BOB

Yana ul shahonshohi olytabor,  
Cherik tortib bo'idi otqa suvor.  
Turondin Eron sari bo'idi ravor,  
Shahonshohi din, shohi sohibqiron.

Yazdiy

Ulug' Amiring oq fotihasidan ruhlangan sarkardalar saralangan lashkar ila shahd bilan yog'iy qorovuli ustiga bostirib bordilar. Amir Valining qorovuli ham

awash hozirligini ko'rар edi. Amir Vali lashkarining qinday savashmog'ini ko'rgisi kelgan Temur eng ya-qin mulozimlari bilan ular ortidan yo'iga tushdi. Yonida amir Sayfuddin, amir Boboturk va Alp Turkish bor edi.

Amir Valining yoy otuvchilari juda mergan edilar.

Ular otgan o'q to'ppa-to'g'i kelib Mubashshirbekning og'ziga tegdi va ikki tishini sindirdi. Bu noxush voqeab-in g'azabi qaynagan Mubashshir dushman ustiga yolg'iz o'zi ot qo'ydi. Unga qarshi Amir Valining bahodirlaridan biri yuzlandi. Qoni qaynagan Mubashshir bir hamladayoq uning boschini sapchadek uzib tashlidi. Bu voqeaya yog'iy qorovulini cho'chitib, kapalagini uchirib yubordi. Amir Vali lashkarining ilk jangdayoq ruhi tushdi.

Mubashshirbekning har bir xatti-harakatini zavq bilan kuzatib turgan Temur uning jasurligidan hayratlandi.

— Qoyil, borakallo! Jasorat, qahramonlik o'ylab qilinmaydi. Ana shunday chaqmosh kabi bir zumda sodir bo'ladi, — dedi Mubashshirning huzuriga kelishini kutarkan. — Mana shu Govkush mavzesi sizga abadiy suyurg'ol qilib beriladi! — dedi Temur u kelgach, yelkasiga qoqib. — Bu dunyo aqli va qilichini o'z joyida va to'g'ri ishlata bilganniki, muhtaram Mubashshirbek! Siloh kimning qoliida, iqtidor shuning elida degan naql bo', — qo'shib qo'ydi oti tomon yurarkan. — Endi hum jum bo'shashtirilmaydi. Har kuni yo'l bosib, o'zlarigiz aytgandek, yo'llimizga ko'z tikib o'tirgan amir Valini topmog'imir kerak.

Ertasi kuni qo'shinga tumanboshi, mingboshi va yuzboshiarning asosiy jangga qadar o'z qismi bilan birga bo'lishi haqida oly farmon yetkazildi va barcha harbiy boshliqlardan bu xususda yozma ravishda tilkat olindi. Boisi, tikanak changalzorlardan iborat bu yerlarni yaxshi bilgan yog'iydan har qanday zarbani kutilish mumkin edi.

Qo'shin dushman qorovuli bilan savasha borib ilgarillarda. Daron mavzesi egallanib, uning qutvoli yasoqqa

tortildi. So'ngra, qo'shin Jilovan mavzesiga yetib, Jon suvidan o'tdi. Shohonga yetganda lashkar to'xtab, chodiru saropardasini tika boshladi. Biroz dam olin gach, har kuni yarim farsahdan yo'l yurib, amir Voll turgan qal'aga yetib borish vazifasi qo'yildi. Askarlar changalzorlarni kesib, o'zlariga yo'l ochar, buning uslqilar edilar. Temur shu paytga qadar va so'ngra ham bunday og'ir yurishni boshdan kechirmadi.

Safarning yigirmanchi kuni yog'iyning qorovull qochilib borib, amir Valiga bundan buyon savash olimayajaklarini bildirdi va cherik bir hulu ahvolda qo'mondoni oldida turardi. Bundan ta'sirlangan o'jar amir o'zi bosh bo'lib, lashkarini jangga yetakladi.

Temur bir qism lashkarni amir Valiga qarshi tashlab, o'ttipta saralangan bo'llinmani pistirmaga qo'ydl. Amir Vali qo'shini Temur jangchilar siquvig'a bardosh berolmay qocha boshladi. Turon o'rdsuning hujumi davom etardi. Temurning buyrug'iga binoan faqat edi. Shundagina bu ma'nosiz savash barham topard. Valining asir tushgan askarları lashkarning Temur kabi qo'mondonning qo'shining qarshi kurashmoqqa niyat yo'qligini, ular o'zlaricha allaqachon mag'lubiyatni, kerak bo'lsa, o'imni ham bo'yinlariga olib qo'yganlarini so'ylardilar. Asir tushgan eroniyalar qo'sh ichida erkin yurishar, qo'shining chorvasiga qarab, xandaqlar qazirdilar.

Temur sarkardalari qurshovida jangning borishini kuzatardi.

– Qiblagoh, izn bering, o'z lashkarim bilan amir mast tulporini jilovini arang tortib turgan amirzoda Mirronshoh.

Temur yalt etib o'g'liga qaradi. Farzandan shu gapni kutib turgandek, yuziga tabassum yoyildi. – Yashang, ota o'g'il. Ilgariroq buni sizdan kutgan

erdim. Yoningizga istagan bahodiru mingboshillari-mizni olib, savashga kira bilursiz! – javob qildi Temur o'llibona ovozda.

– Fotiha bering, qiblagoh! – jaranglagan ovozda oiasi qarshisida tiz cho'kib, qo'lini duo uchun ochdi amirzoda otidan tusharkan.

– Ilohi o'min! Sizga xudo yor, pirlar madakor bo'isin! Alloha omonat etdim sizni amirzodam! Omin! – dedi Temur qaldiragan sehrli ohangda.

Amirzoda yigirma qadamcha masofaga otini yetaklab bordi-da, so'ngra minib oldi. Bahodirlar hayolulab amirzoda ortidan ot qo'ydilar. Lashkar oldagi ming nafar yoychilar yog'i yustiga o'q yomg'irini yog'dirdilar. Piyodalar qilibbozlikka kirishgan edilar. Amir Vali bundan bir necha kun avval dushmanغا qarshi choh va xandaqlar qazdirgan edi. Savash davomida shunday holat yuz berdiki, bu chohlarga amir Vali lashkarining o'zidan bir qismi tushib, halok bo'ldi. Kunbotish tomondag'i tepalikka chiqib, lashkarboshilarga yo'l-yo'riq ko'rsatib turgan amir Valining bu omadsizlikdan kapalagi uchib ketdi.

– Tolesiz quduqqa tushib ketsa, boshidan yomg'ir yoqqa ekan, – dedi u xirildaq ovozda. – Bu yovvoyi-larga bas kela olarmikanmiz-a? – deya maslahat soldi mulozimlariga.

– Jangda g'olib kela olmasligimiz aniq, amir janobi olyari. Haliyam kech emas! – dedi qo'rqa-pisa qop-qora qiyofali, qirraburun, boyo'g'liko'z, so'lg'in yuzi, ozg'inligidan shu nomni olgan lashkarboshi Antar Turshak.

– Sendan bundan aqliroq gap chiqmasligini bilar-dim, – dedi amir Vali unga qahrli ovozda.

– Ha endi, – dedi duduqlanib Antar Turshak so'nik ko'zlarini alang-jalang atrofga tikar ekan. – Ilojimiz yo'qqa o'xshaydi. Nima ham qilamiz? – Bu kayfiyat va ruh bilan yengilishimiz turgan gap. So'nggi chora shu kecha tun bosqisi uyuştirmoq. Agar shunda ham bir ish chiqmasa, bu yog'i yaratgan-

dan, – dedi amir Vali reza-reza terlayotgan bo'yin va peshonasini artar ekan. – Yo Allah, sharmanda qilin!

Amir Vali tun yarimdan oqqanda tun bosqin bo'lajagini lashkarga bildirdi. Temur lashkari esa shan oit taqozosiga ko'ra yog'ining shabixun qo'llashni kutayotgandi.

Mozandaron amirining tungi allamzada hujumi muriy lashkar Jurjoni egalladi.

Bu voqealar ming uch yuz sakson to'rtinchchi yilning o'n ikkinchi oyida kechar edi. Qo'shin oralab ot qo'yib yurgan amir Vali turkarning momaqaldoiroq kabi «ur iqroq eshitar, zam'on va vaqt g'ilidragi o'zining zavol ostidagilarga jah bilan o'shqirar, so'kinib, ustma-un

buyruqlar berardi. Bir zamon qarasa, atrofida to'rt nafar xos navkar xizmatkorlarini olib, Jurjondan chiqib keta boshladil istab, Ray tomon qochdi. Ortidan quvib borgan Xudod necha kundan so'ng uning Shohrud daryosidan o'llib kishi oyog'i yetmas tikanli tog' o'monlariga kirib, Jon saqlab qoldi.

Amir Xudoydod Barlos xos chopar yuborib, ulug' ularga amir Valini tinch qo'yishlarini so'radi. Temur – Tutsak ham molu jonidan kechar edik, – dedi yonda o'tirgan amir Sayfuddin bilan Eson Bug'aga. Xos chopar jo'hab ketgach, ulug' Amir lashkar boshliqlari va beklarni kengash-qurultoya chaqirlar, – Bundan buyongi rejamiz badir muhtaram birodar. Sizlar ma'qul ko'srangiz bu qishni Astrobova Ray

atrofida o'tkazsak. Boisi, yurishimiz niyoyasiga yetmad. Men qo'shining bir qismi bilan Rayning iliqroq bir ilg'asiga yerlashsamt. Asosiy qo'shining uvol-savobi amir Uchqororning zimmasida bo'lajak. O'g'ruqda kim qoladigan bo'lsa, uning so'ziga kirmog'ini so'rayman. Amir Uchqorani so'zi, menin so'zindur.

Yig'ilganlar Temurning fikriga qo'shilidilar. Bu vaqtida Ozarbayjon va Iroq ajam jaloyirlar suluhanlari qo'llida bo'llib, Jaloliddin Shayx Ahmad Uways kelganligini eshitigan sultonning uyqusida halovat qolmudi. Bobolari Arg'unxon va Kayxotuxon zamonasida qurilib, Halokular davlatining poytaxti bo'llib kelgan Sultoniyah shahrini o'g'li Oq-Bug'aga qoldirib, Tabriz liabodirga kichik bir qo'shin bilan Sultoniyaga borib Oq Bug'a bilan gaplashmoqni tayinladi. Bunday xabar topgan Oq Bug'a xotin-xalajini otga mindirib, otasining idan yo'iga tushdi.

Katta lashkar Sultoniyaga bahor o'rtalarida kirib, undan Rustam dor tomon yurdi. Viloyat hokimi ham bosh shaharini o'z holiga tashlab qochdi. Hech kim qo'shinga qarshi quroq ko'tarib chiqmadi. Buni hisobga olgan ulug' Amir viloyatda hech bir kimsaning burnini qonatmaslik va hatto ignasigada tegmaslik haqida ko'sratma berdi.

Sultoniyada uyuştilrilgan qurultoya Buyuk Turon Amiri Temurning quyidagi oly farmoni e'lon qilindi.

– Eronu Turon mulkida Temur Ko'ragon so'zini ilzning haqiqatparvar qavmimiz o'zligiga sodiq qolib, shohu gadoy bo'lsin kimsaning haq-huquqi hamda rizqiga xiyonat qilmagandir. Ana shundan kelib chiqib, bugundan etiboran taxsir qabzamizga kirgan Ray, Rustam dor, Ozarbayjon va Mozandaronning barlar o'kkalariga shu mahalliy xalqning o'zidan hokimlar tayinlaymiz! Boisi, bu yerlik hokim biz tomonidan tayinlangan boshliqqa nisbatan ushbu xalq va mammakating muammolarini yaxshi biladurlar va raiyat-

ning ko'nglini olurlar degan umiddamen. Mozandaron mulkida so'zimiz shulkim, Sultonniya viloyatiga shul yurtning mo'tabar zotlaridan Sulton Zaynobiddin hokim etib tayinlanajak! Omul hokimligi ersa oly na-sab avlodlarimizdan Sayyid Kamolidding'a berijak! Sori mulkini muhtarom sayyidimiz Raziuddinga in'om eturmiz! O'yaylmiz va umid qilurmirizki, bu palagi toza nisbatan oyoqlarini sadoqat va adolat uzangisidan olmag'aylor! Biz tomonidan hech qachon ularga va ular rahnamolik qilayotgan ulusg'a jabr va xiyonat bo'imag'ay! Har bir ishimizni Alloh ko'rib turibd! Kimki xoin va nohaq bo'ksa uning qahriga uchragay! So'zim so'ngida yana bir amrimiz shulkim, Astrobo'd vilyovati elxoniy amir sanalmish Alloh rahmatiga qo-vushgan Tog'ay Temurxonning farzandi arjumand! Luqmonbekka taqdirm etilib, topdalgan tarixiy haqiqat yuzaga chiqajak! Sizga belgilikim, bu hududlar yuz o'ttiz yildirkim bu avlod qo'iida bo'lib kelgan. Sarba-dorlar Tog'ay Temurxonni mahv etganlariда qochoq tida bo'igan. Amir qatlidan so'ng viloyatni parchalab yo'barslardan savashmoqni o'rganmoq uchun ketdi. Biz bu insonlarga-da yomonlik istamaymiz! Har ochiqdur. Aglu idroklariga yarasha mansab to'ini kiydirajakmiz! Bilamanki, orangizda amir Valining odam-inlar! Shuningdek, Sultoniya va Tabriz mulklarini idora etmoq bu yurtlarning sobiq hukmdori amir Saru Odil-hammad Sultonshoh oz qo'shimi bilan bu yurtlarning tinchlik va omonligini muhofaza etajak! Noibim o'laroq u birlan maslahatlashib, adolat ila ish yuritishingizni so'rayman!

Qurultoy ulug' Amirni tik oyoqda olqishladi. Ra-yat Temurning bu qadar haqiqatchi, ochiq va

beg'rikengligidan hayratga tushgan, xalqning taqdirini o'z qo'lliga topshirganidan barcha birdek mammun edi.

– Bu ish uslubi bilan Temurbek so'g'ishu savashsiz yotti iqilimi egallaydi, – dedi Sultonniya shayxulislomi amir Boboturkga.

– Hazratning niyatları mamlakatlarni zabit etish emas, musulmonlar yashaydigan o'lkalarda birlik, linchlik, osoyishtalik va uluslar ravnraqini ta'minlash, – deya javob qildi Boboturk.

Odatiga ko'ra Temur yuragi to'lib, hapqirib ketgan damlarda yuksak bir tog'lilika chiqib, olis-olislargacha tiki-lar, pichirlab ichida uni bezovta etgan fikrlarni o'zicha mushohada etar edi.

– Boboturk ketdik! Qani qarshidagi tepalikka kim birinchi bo'lib chiqar ekan! – dedi Temur oti jilovini tog' tomon burib.

Ulug' Amirning so'zini eshitib turgan amirzoda Mirronshoh bilan Tohir tarixchi ham ular ketidan ot qo'ydiilar. To'rt otliq birdekk ko'zlangan tepalik tomon ot surdilar. Tulporlar qora terga tushgandi. Chavandozlar topoda naridan beri yurib, otlarini sovuta boshladilar. Etakda ko'm-ko'k vodiylar, yashililiklar orasida qilichdek yurqirab oqayotgan soylar va irmoqlar ko'zga tashlahardi. Tog' etakiarida yoyilib yurgan suruvalar qorayib ko'zga tashilanar, jannat kabi bir joy Sultonniya atrofisi.

– Naqadar go'zal ovalar! – dedi Temur ot ustida uzoq-uzoqlarga tikilar ekan. – Ota yurtimiz Turonning o'zginasi ekan bu Eron degani. Biz ila tarixan eng yaqin bo'lib kelgan yurt va qavm Erondur. Tabii-yki ota-bobolarimiz doimo mavqe talashhib kelganlar. Birda yovlashgan bo'isalar, birda do'stlashganlar. Shunasoda tarixning biz mana shu tepalikka chiqqan daqiqasiga yetib keldilar. Olloh nasib etgunga qadar mulki Eron bizning tasarrufimizda bo'lg'usidir, – dedi Tomur hamon olislargaga tikilar ekan.

– Tojik ulusi atalmish qavmlarimiz bizning yurtlarga shul yerdan taraflardan borganlarmi yoxud fors tilida

so'zlashuvchi yerli xalqmi? – so'radi amirzoda Miron shoh otasidan jarangdor ovozda.

– Shavkatli amirzodam, siz bunday jiddiy va mas'uliyatli so'rovlarini muhtaram tarixchimiz Tohir bekdan so'ramog'ingiz joiz. Bul xususda mutaxassis bo'maganim va xato qilmaslik uchun savolningizni ehtirom bilan bilindon tarixchimiz diqqatlariga havola etaman. Lozim olsa o'z fikrimni bildiraman, – deya javob qildi ulug' Amir farzandiga ma'noli tikilgancha, nim tabassumda.

Tohir tarixchi bosh egib, amirzoda so'roviga javob bermoqqa hozirligini bildirdi. Temur «bosholang» degandek bosh irg'adi.

– Arablar Eronu Xurosanni bo'yusundirgach, qo'l ostilarida islonni qabul qilgan lashkar, asiru qui sifatida cheksiz miqdorda fors tilli raiyat to'planadi. Halifalik bu qavmlarni yangi egallagan hududlardagi xalqlarga siyosiy, iqtisodiy, diniy va harbiy tazyiq o'tkazish vositasи sifatida qo'lladilar. Yerli elatlar ularni arablarning tayziqlari ostida ish yuritganligidan tayziqchilar deb atay boshlardilar. Ular haqiqatan ham xalifalik amiru noib, qo'mondonu lashkarboshlarining ish boshqaru vchiiali, ya'ni, fath etilgan o'kkalardagi ishonchli vakili edilar. Shu tariqa tayziq so'zi tozik, undan tojikka aylanadi. Somonxudooning Xurosandan olib kelingan to'rt o'g'li esa bizning hududda somoniylar davlatini quradilar. Bu davlat uch yuz yil chamasi Bag'dod xalligiga bog'liq o'laroq yashaydi. Bul xususda bilganlarim shuldir, Xoqoni akram hazratlari, – deya so'zini muxtasar qilib, ulug' Amirga ta'zim bajo keltirdi tarixchi.

– Nizomulmulk hazratlari «Siyosatnoma»larida toziv deya yozadilar va bu go'zal til juda ko'p uluslarning adabiyot, san'at va musiqa tiliga, saroy ahlining tiliga aylanadi, – tarixching fikriga qo'shimcha qildi ulug' Amir.

– Shunday, Xoqoni akram hazratlari. Bul xususda men bilgan ikki fikr bor. Birisi yuqorida qayd etganim,

arablar islonni yoymoq uchun Turon yurtiga kelgan ilk qabilalarni tayziqlar deb ataganlar. Yerli aholidan lastlab islonni qabul qilganlarni tayziq bo'ldi deganlar. Shu bois, biz hal-hanuz namoz niyatini fors tilida qillamiz. Ikkinci fikr shulkim, eski zamonalarda savdogalar asosan fors tilida qo'nishganlar va shaharlarda yashaganlar. Bularni arablar tojir deb ataganlar va bora-bora tojir so'zi tojikka aylangan degan fikr ham yo'q emas. Odatta qavm va qabilalar o'z-o'zlariga nom bermaydilar. Ularni yon-atrofdagi xalqlar qanday atasalar, shu nomda tarixa qolganlar. Bu atama-lardan katta bir qonuniyat va falsafa axtarmoqqa hojat yo'qdir, – deya so'zini yakunladi Tohir tarixchi.

– Hazrat ustoz, ruxsat etsangiz, chiqqananimiz ushuu tepalikni ismi-sharafigiz ilia atasak. Fathu zatlarimizdan xotira o'laroq qolsa, – dedi amir Bobo-turk hayajonli ohangda.

– Biz qay bir manzil yoxud hududni ne nom ilia ataymaylik, foydasiz. Xalq uni o'zi istagan nomda atayvoradi, – javob qildi ulug' Amir Boboturkning samimiylyiyatini anglagan ohangda kulimsirab.

Turon urdusi Sultonniya va uning sinirlarini tark etgach, xalq bu tepalikka To'rt turk askari ot qo'yib chiqqani uchun To'rtturktepa deb atay boshladi. Buni eshitgan ulug' Amir to'rt kalla yaxshi, ko'p kalla undan ham yaxshi, dedi amir Boboturkga yana miyigida kulilib.

Shundan so'ng temuriy beklar, askarlar ne zamонки bu hududlardan o'tsalar To'rtturktepaga ot qo'yib chiqmoqni odat qildilar. Bu odat bora-bora butun Sultoniyaga yoyildi. Chavandozlar bahslashib tepalikka ot qo'yardilar.

... Tepalikning uch tarafida horigan cho'pon kabi qorli log'lar uzanib yotar, qoyalardan oqib tushgan imoqlar janubdag'i yam-yashil vodiylarni suvlab, iliq dengizlar tomon oshiqardi. Bu go'zal manzaradan ta'sirlangan ulug' Amir chap oyog'ini uzangiga tiragancha egardan ushdi. Maysazorga bo'ymini cho'zayotgan Oqbulturning

suvig'inı chiqardi. Otiling boshini bo'sh qo'yanchı  
beixtyor, bo'zalamga yomboshladı. Oyoq uchi taradı  
o'g'li, shogirdi va Tohir tarixchi qo'l qovushtırgancha  
tik turishardi.

Eng yaqin kishilariga mehr bilan tikilgan ulug' Ani Tabiat qo'ynidagi bunday xush damlarda kishi ko'ngli iyib, eng olyyanob insoniy tuyg'ulari jo'sh urardi. Vo Kishi qalbida ezgu hislar junbusinga keladi

Oqyinlariga tuman cho'kkani, qoyalarini bulutlar si  
keksa do'lana atrofidä uymalashayotigan xotin-xalq  
unga bog'ichlar, yumosh qiyiqarini bog'lashar, erkak  
lar qo'y so'yishib, yemak hoziriligini korishar, bolalari  
chopib oynashardi. Bir necha darvesh va qalandar  
esa jazavasi tutib, zikru sano avsička.

Bir borliq, bir yo'qlik orqangni ochar,  
Raqibing bir siring o'n qilib sochar.  
Boshaa icti.

ayyanayotgan g'ajir o'jja axtarar, jarga in qo'ygan bir  
o'p ko'kqarg'a esa bolalarini hujnoya qilib tashish  
star to'xtatishga qarab, qo'ygan qo'sha qanotlarini korib

ta, uñi larafdan birin-ketin unga yaqinlashib, ko zini ho'qimoqchi bo'gandek tashlanishardi. Ko'kqarg'alar asoratidan ruyhangan cheklari.

ko'kqarg'alar kabi yuksak ko'tarija olmasalar-dan gajirning yon-veridan hamla qilgan kabi qag'llashdi uchib o'tishardi.

Mayda-chuyda qushlarning shovqin-suronidini bezgan g'ajir adir etaqidaci o'ch-

— Havodagi qushdan ko'ra tovdagisi ma'qui degan  
dek g'ajir janobari bedapoyadagi bedanalarini ma'qui  
ko'rdilar. — dedi ulug' Amir qushni ko'zdan g'oylib  
bo'iguncha kuzatar ekan. — Jonu jonzod borki in ta  
ashida Kun ko'shish.

Qurtu qumursqa ham hayot va nasi qodirmoq mu-

insida timim bilmaydi. Biroq ular odamlarga o'xshab  
ju taxt, mulku davlat talashmaydilar. Yig'ib-tergan  
balalariga qanoat qiladilar. Hay-hay biz odam bo-  
lib-ya? Qalbimizga o'zgalar nari tursin gohida o'zimiz  
sig'maymiz. Qush uyqusi kabi qisqa umrimizda  
birimizni oyog'imizni chalib, choh qazib yashaymiz.  
Asilda bu chohni o'z bo'yimizga o'ichab qaziganimizni  
anglab yetganimizda tashnaligimizni qondirgan bu-  
lular qurigan, ishongan bog'iar kesilgan, suyangan  
ing'lar nuragan, yuksak cho'qilar darz ketgan bo'ladи.  
Oqbulturning o'tlashiga qarab qolgan ulug' Amir  
ayoliga bir fikr kelgandek yomboshilagan ko'yim  
liboturkiga qarab, so'zida davom etdi.

Xotirimda ekan soylayın. Sultoniy

Amir Boboturk ta'zim bajo keltirib, xiyol bosh egdi.  
Shu mahal tog' tarafdan kakliklarning basma-bas-

ayrashi eshitidi.  
— Kakliklarni bezovta qilishganda shunday tez va  
hamma-bas sayrashadi, — dedi ulug' Amir g'ajir inib-

Ketgen adir etagiga tikilib.  
Panjalarda ion talvasasida pocha doqayotgari

lovushqonni qoyadagi uyasi tomon olib ketayotgan ha qairi tebalalaridan uchib o'tardi.

— Gajirming ovi yurdi, — dedi amirzoda Mironshoh  
hola kabi zavn bilan osmonqa tikilar ekan

— Ovchining ovi, odamning dovi yurgani yaxshi-da  
— Hazra amir Boboturk —

“Yılaganları kabığaşırı janobları bedanani ko'zlab bor  
imiz zoudan,” — gap qoşusu amm bobutun kuzazanı.

— Ov va ovchilikning tuzugiga ko'ra ovga chiqqar  
doh edi bahjasiqa tovushqon lindi.

ovlanar, yov izagan yovlanar, bo'talarim, - dedi ulug'lihbatiqa qo'shilib ulug' Amir.

Ulug' Amirning avzoyidan muhim bir gapni aymoq  
milyatida ekanligini anglagan yosh bek va bekzodidá

hamon qo'li qovushtirgancha, uning og'ziga qarab  
ishardi.

— Siz, aziz avlodlarimga davlatni qo'ida tuta olma  
sizlar ulug' sultanatimizning vorislari ekansiz, buni bil  
moqliklaringiz shartdir. Hozirgi Kastiliyo qirolligi mavjud  
bo'lgan hududda hijri yetti yuz o'n birinchi yilda An  
daluziya islam davlati qurilgan. Uch yuz yil yashagen  
bu sultanat shu muddat mobaynida tort yuz tariqalga  
lar bu ayrılihning oxir bir kun musulmonlar boshipa  
falokat toshi bo'lib yog'iishini anglab yetmaganlar  
Bu ish eng awvalo Rim ruhoniyisining rejasiga uyg'un  
edi. U barcha nasrohiy hukmdorlarga talimot beradi  
«Musulmonlarning dinimizga, siyosatimizga va falsa  
famizga aralashuviga  
birinchi galda Andaluziya amirligining yo'li qo'yamang!». Bu chiqin q  
yo qiroligiga tegishli edi. Ruhoniyning amrini qiroliche  
Izabella qoyilmaqom qilib o'rinnatadi. Andaluziya islam  
amirligining so'nggi hukmdori amir Abdulla Davlat  
majbur bo'ladı. So'ngra tushkun va bitkin holatidan  
hech qayerga sig'may, boshini qayga urishimi bilmay  
tog'larga chiqib ketadi va bor ovozda o'qirib yig'lay  
boshilaydi. O'g'lining bul xarob ahvoldan ta'sirlangan  
malika onasi ming bir dardu g'am bilan sobiq sulton  
o'g'liga ushbu nasihatni qiladi.  
— Modomimki erkak kabi davlatni saqlay olmadingmi,  
endi xotin kabi bo'zlab yig'llama!  
Hikoyani so'zlash jarayonida hayajonlangan ulug'  
Amir qo'yindan shohi qo'iro'molchasin chiqarib, pe-  
shona va boyin terini artdi. Biroz tin olgan bo'idi.  
— Kishi davlatni ikida tuta bilsa hukmdordir. Aka  
holda u qiboshshodir. Biroq onasidan hukmdor bo'lib  
tug'ilganlar buni anglab yetmaydilar. Hukmdor uquvsu  
zligidan ulus va davlatni barbob etmoq, hovonchada  
suv tuymoqdek bir gapdir. Yaratgan har neniki kishi  
ning fell-atvoriga, e'tiqodu imoniga muqobil beradi.

ju taxt, mansabu ruitba bosh kiyimi kabidur. Amal-  
nom, deydiyar, — dedi avval Mironshoh mirzoning,  
engra Boboturkning ko'zlariga ma'holi boqib. — Kishi  
induzi so'qoqqa chiqqanida kulohi va jubbasini ki-  
pedi. Uyga qaytgach, yechib qo'yadi. Mavqe ham ana  
hunday. Unga mehr qo'yib, astoydil bog'lanib qolma-  
lik kerak. Kishiغا analu davlat beradigan imkoniyat  
va qo'lli uzunlik yuklaydigan mas'uliyat katta ishlarni,  
ilug' ahdu niyatlarini ro'yobga chiqarish yo'ida bir  
waliatdir. Inson moddiy unsurlardan manfaat, saodat  
va muqaddaslik izlamasligi lozim. Kishi ko'kayida du-  
nyoning o'tkinchi mayda tashvishlaridan forig, nurli va  
meshaqatlari manzillarni ko'zlagan qudratli, ilohiy bir  
ahd bo'lmog'i darkor, avlodlarim. Kishi hayoti davo-  
midax baxtidan, taxtidan, bor budidan mosuvo bo'lishi,  
kechishi mumkin. Biroq haqiqiy ulug' shaxsiyatlar  
hech qachon ahd-paymonidan, ezgu tilagidan, buyuk  
hadaflaridan voz kechmaydilar. Ulug' ishlarni amalga  
oshirgan, katta haqiqatlarni yuzaga chiqargan, shu  
yo'ida jon fido etganlar haqiqiy shon-sharaflı inson-  
lardir. Buyuk haqiqatlar, yuksak maqsadlar peshida  
ekansiz, hech qachon qolilingiz va vijdoningizni no-  
haq qonga bo'yamang. Ulus zamonda sizdan hisob  
no'ray olmagan bo'lsa vaqtisi soati yetib, avlodlariningizni  
so'rg'ileydi. Aq'idrokingizni sog'lom va to'g'ri qo'llang.  
Har qanday katta-kichlik gunohu jinoyatning ajri, jazosi  
muqarrardir. Qilich-la ish bitirib o'rganganlar qilichdan  
ochib qutula olmaydilar. Tosh otganga tosh, kesak  
olanga kesak otiladi. Bu yorug' olamda har bir ish-  
ni bajarmoq, tashvish muammoni yechmoqing o'z  
yo'lvor'ig'i bordir. O'zingiz amal qilмаган e'tiqodu tar-  
ibiliarni ulusdan talab eta olmaysiz. Siz qonun va ado-  
lat so'qog'idan chiqqanining kun odamlar maydonlarga  
chiqqadilar. Siz bir adolatsiz, g'ayri mashru ishga qo'  
ursangiz, kishilar bu haqsizlik va qonunsizlikni chet-  
lab o'tmoq uchun aqlingizga kelmag'an qonunbuzar-  
hech qachon jinoyat ustida tutta olmaysiz. Sizdan ibrat

olib, qonunsiz ishni qonuniydek puxta-pishiq amatga oshirib, oqni qoraga bo'yab yashamoqqa or'ganadilar

Ulug' Amir vodiyini tasmadek kesib, quyosh nuri da tovlanyotgan tiniq soylargacha boqqancha fikrini yakun lanmoq uchun tin oldi. So'ngra, boshini ko'tarib, yaqin ko'rinsa-da aslida juda olis qorli tog'larga tikilib qarat qoldi. Umid va hasrat uyg'un zavorli ovozda so'noz so'zini aytdi.

— Raiyatning haq-huquqini tanimasdan turib, uning turum-turmushini yaxshilab bo'imas. Insonning o'z o'ziga aylanib qilgan yanglish ishlari hayotiga, axloqiga, so'nggida ulusiga ziyon-zahmat yetkazadi. O'jarlik va ojizlik ilmdan uzoq, haqtanimas kishilarning quroolidir Ular oxli-oqibatda ana shu fe'liy nuqsonlarining qurboni bo'lib, yuksaklikdan tos tepalari bilan tushadilar Har zamon va har daqiqada bir-biringzini asrab-avaylang. Bilingki, haqiqiy komil, jon do'stlar bir-birlari oyog'i toyishidan qoniqish tuymoq xom sur emgan odam bolasiga yo'rgakda tekkan. Boisi, kishilar tabi qon-qardosh, xeshu aqrabolalar ham. Oyog'ingiz blir o'ngacha, turolmaysan yuzgacha deganlaridek, omiraiyat ma'lum va mashhur shaxsiyatlariga qo'rquv ya nafrat bilan qaraydilar. Dunyoni anglab yetgan, bag'jaholat, zulmu istibdodga qarshi hatto aqli donolik bl ko'pincha dono boshlar dor yoki kundaga yetgan. Shafqatsizlik mehr-oqibatdan ustun kelgan. Yoshi ulug' bir ajoddimiz o'aroq aqilminga kelgan fikrlarimni sizga aytmoqni lozim ko'rdim. Eshitib mulohaza va mubohasa etib ko'rarsiz...

Ulug' Amir so'zini tugatmoq barobarida o'midan qo'zg'aldi. Shogirdi va farzandi chaqqon yetib kelib, ikki tirsagidan tutdi.

Borakallo! Borakallo! — dedi ulug' Amir Oqbultuni

intiklab kelgan Tohir tarixchining qo'llidan jilovini olib. indi tulporilarimiz boshini ota yurt tomon buramiz. Samergandni, Turkiston tizmalarini etaklarini sog'indim.

Ulug' amir shu yuksaklikdan turib, Oqbultuning jillovi Turon poytaxti Samarcand sari burdi. Muzaffar hinkar fatnu zafer, shonu sharaf lila boshkent tomon leldi.

Temur o'g'il, shogirdi va tarixchisi bilan qarshilarida jumadek yoyiliib tovlanyotgan daryo tomon ot qo'yib horar ekan, qulqlari ostida Turoniy o'qigan she'ri jainglardi.

Vatan bitta, yurt izlama, o'troq bo',

Xoru xasmas, yuksalgan tug', bayroq bo'!

It bo', qush bo', lek yagi'ydan ko'proq bo',  
Ulus uchun xokisor bo', tuproq bo'!

## O'N SAKKIZINCHI BOB

Zinodin tug'ilgan inson o'ziga yaxshilik qilgan odamga yomonlik qilmasdan bu du nyordan ketmas.

### Muhammad payg'ambar

...Ming uch yuz sakson ikkinchi yilda Moskvani zabit olib, qo'iga iligan narsani olib Saroy Berkaga qaytjan To'xtamish o'g'lonning avzoyi o'zgargan, atrofida o'li mulozimlarining uni ulug' qoon Chingizxonga qiyosishlarini eshitganda og'zining ikki cheti yoyilib, o'zini ulug' bobosining oltin taxtida ko'rgandek bo'lardi. Ullaqachon kimsa bilan hisoblashmas, ancha-buncha odamni qabul ham qilmas, har qanday katta-kichik ishlari og'zining yeli bilan biitradigan darajaga yetgandi. U ich-ichidan Temurning xizmattarini tan olsa-da, uni — Chingizzon avlodini Chig'atoydan qolgan taxtida nomigagina ushib turganini hazm eta olmas edi. To'xtamish Temurga ancha burun tish qayragan er-

sada Jo'chi avlodining ulug' bekleri Alibek Qo'ng'iroq, Orung Temur va Oqbug'a Bahrinlarning pand-nasi hatlari, Ordudagi Temurga nisbatan xayrixohlik iqlimi bilan hisoblashganligi tufayli Turonga qarshi qat'li xatti-harakatlardan o'zini tiyib turar edi.

- Zinhor bazinhor Temurbek hazratlari ila muxoll mati va muruvvatining soyasida bu davlat sizga nasib etdi. Sizzan kuchli Idiku yoki boshqa bir Jo'chizodani xon qilib ko'tarmoq uning uchun o'shal zamonda hech gap ermas erdi. Ul hazrathning nazaridan qolmang jitgan kuningiz kelajak! – dedi Oqbug'a Bahrin so'ng'i suhabatda To'xtamishga otalarcha nasihat qilib.

– Biz sening ota qadrondolaringmiz. Senga neki yo'q Aqli bo'. Sog'u mast Amir Temur haqida nomaqbul so'zlar so'yalamoqdan o'zingnitiy. Bilaks, tushingga ham kirmagan bir g'ovg'oyu falokatni boshingga sotib ola-san, bo'tam! – dedi dangalchi O'rung Temur uni ochiq oydin tergab. – Seni Jo'chi taxtiga Temur o'tqazganimi sen o'tirgan oq kigizning bir chetini Temur ko'tarib tur o'gudek bo'sa, ulus Temurni emas, seni qorala ydi. Bilginki, Tangri ham haq bo'igan kopchilik tarafdadur! Otasiga ham ustozlik qilgan bu ikki nomdor amiriga edilar. To'xtamish o'g'lon ularning so'zariga «ma'qui» ma'nosida bosh irg'ayotgan bo'sada, ichida bir oyog'ing yerda, bir oyog'ing go'rda bo'igan sen cholg'alar kunim qolmagandur degan xayolda ensasi qolib o'tirar edi.

Bu suhabatdan ko'p o'tmay O'rung Temur bilan jilovlab turganlardan birligina Alibek Qo'ng'iroq vazifasi, ulug'beklikni o'z otasini o'dirgan Qaron-chibekka berdi. Xuddi shu daqiqadan boshlab Jo'chi

mamlakatining Turon davlati vassali sifatidagi siyosati qara boshladi.

– Kim bo'libdi bu o'rqda yo'q, mashshoqda yo'q, imonda hozir oqsosq Temur deganil! – dedi tili aylanib iliq' bek Qaronchi To'xtamishning oldida egilib, jahini o'paman deya ag'anab tusharkan.

To'xtamish ham sarxush edi.

– Temurning bobosi Qorachar No'yon degani iliq'atoxxonning xizmatchisi bo'igan, – deya so'zida davom etdi xon qarhisida chordana qurib o'tirar ekan iliq' bek mastlikdan ko'zları qisilib.

– Xizmatchisi emas, lashkarboshi bo'igan, – uni iliq' illadi To'xtamishxon.

– Bo'pti-da, lashkarboshi ni boshqami, xullas uning xizmatida bo'igan, – bo'sh kelmas edi Qaronchi. – Men ko'rsatma berdim. Korazmda sizning otingizza tanga tarb eta boshladilar. U oqsosq o'z yerini bilib o'tirishi kerak. Bo'limasa joyini ko'rsatib qo'yamiz.

– Chakki qilibsiz, Qaronchibek. Uning odatini biman. Hech qachon xiyonatni kechirmaydi. U bilan lavashmoq... Blimadim. Ahvolimiz ne kecharkan? – Jirdan kayfi tarqab, rangi oqarib ketdi To'xtamishning. Chakki qilibsiz.

– Bu yog'ini menga qo'yib beravering, xon hazrat! Boshim bilan javob beraman. Biz uning emas, ubizning vassalimiz bo'lishi kerak. Men Jo'chi ulusining o'n ikki nafr xonzoda o'g'lolaridan sizning Temurga qarshi ot qo'yishingizni so'rab yozgan itmosnomasi oldim. Ular bunga rozilar. Amr sizzan xon hazrati olyular! Xudo ol qulim desa Jo'chixonu Chig'atoxon, Uqdayxonu Halokuxonlardan qolgan buyuk saltanat sizning ilgingizda kechajak! Buyuk hududlar berilmaydi, egallanadi. Ulug' bobongiz Chingizzon kabi fotihlik faqt sizga yarashadi. Fursatni boy bersak kech bo'ladi.

– Faqat yetti o'chhab bir kes, Qaronchi! – dedi ham tomon yo'l olgan To'xtamish. – Ko'zingga qara!

Jo'chi ulusi taomiliida xon o'zidan yoshi ulug' be-

lashkarboshilarni ham sensirab gapiraverardi.

- Go'zal o'ka, yam-yashil yaylovlar yurti Ozar-

jonnii, Tabrizni olmog'imiz kerak. Bizning bor-yo'qligini

fargisizdek, u yurtlarda Temur uloq chopib yuribdi. Un-

da ko'ziga ko'satib qo'yaylik!

To'xtamish bosh vazirning so'nggi gapini eshlisi  
ni qaynatgan, xayolida hozirgi kunda Temurning qo'  
ko'ksaroyida turgan ulug' bobosi Chingizxonning ol-  
tin taxtida o'zi o'tirgandek edi. U Samarcanda yu-  
bildirmay bu taxtga o'tirib ko'rgan, vujudida so'z  
ifodalab bo'lmas bir g'ayritabliy his-tuyg'ular junbush  
ga kelgan edi. Biroq Temur bu oltin taxtga bor-yo'g'i  
bir marta Baixa, Buyuk Turon amiri e'lon etilib, oq  
kigizga ko'tarilganda o'tirgan. U o'zini Chingizxondan  
kam chog'lamaydi. Bu kunilar olis emas shekilli, o'ylan  
u eng yosh, kecha keltirilgan cherkas qizining yotiq  
tonon borarkan.

Oltin O'rda xonlari o'z qardoshlari Halokudan qol-  
lardan ilk bor Jonibekxon Ozarbayjon va Tabriz  
qo'liga kiritib, bu o'ka fathini boshlagan edi. Uning  
vafoti bilan bu mulklar qo'idan ketdi. Mo'g'l lashkar  
laridan jabr ko'rgan Tabriz xalqi bu voqeadan biroz bu  
run jo'chiliktarga qarshi kurash boshlagan amir Uvay  
Jaloyirga Tabriz va unga tutash hududlarni egalash  
imkonini yaratib berdi. Keyinchalik Sulton Ahmed  
Jaloyiriyalar davlati tashkil topdi. Bu dawlat hududiga  
Ozarbayjon, Erondonning bir qismi, Bag'dod va uning  
atrofidagi arablar yurti Iroq kirar edi.

Qaronching qutqusiga uchgan To'xtamishxon  
munosabbatlarning ustiga bir kechada chiziq tortib, o'n  
da Qaronchi bilan birga hali islon diniga kirib-kirma-

Bek Po'iod, Isabek va Yag'ilboylar bor edi. Ular  
da qidqada To'xtamish o'g'lonni ko'klarga ko'tarib  
qo'mashar, ustoziga qarshi gij-gijlar edilar. Lashkar  
orqali Tabrizga yetib keldi. Tabrizdan Sulton  
Amad va uning o'g'il Oqbug'a chiqib ketgan, ayni  
amonda Temur davlatiga qaram bo'lgan Tabrizga  
nikim tayinlanmagan edi. Shaharni qamal qilgan  
To'xtamish bundan to'rt yil burun Maskov shahrini ol-  
ganda qo'llagan tadbirini takrorlamoq niyatida edi.  
Bhahar aholisi qo'iga illingen narsani olib, himo-  
nya otlandi. Bir haftadan oshiq muddat davomida  
Ordaliklar shahar darvozasidan bosh suqib kira ol-  
madilar. To'xtamishning elchilar shahar tuijolarining  
mu'zunga kelib, ikki yuzu ellik tuman oltin yig'ib bersalar  
avaziga sulh shartnomasini imzolab, qaytib ketishga  
not bo'rajaklarini bildirdi. Bu va'daga ishongan tabriz-  
klar shuncha miqdorda oltinni bir amallab to'pladilar.  
Katta miqdordagi bu xirojni olgan To'xtamish shu za-  
holyoq qo'shinni shaharni tunab chiqishiga buyurdi.  
Tabriz xalqi Chingizzon bosqinidan buyon bunday  
halo-qazoga duch kelmagan edilar. Shaharlarning  
uhdan biri bospanasiz qoldi, aholining bir qismi qic-  
yinchiliklardan halok bo'idi. Yoshlarni Oltin O'rda qul  
qilib olib ketdilar.

To'xtamish hech narsadan tap tortmay, Temurga  
qarshi siyosiy savashga ham kirishdi. Bu yo'lda un-  
ing murojaatiga faqat Misr sultoni dan sado kelgandek  
bo'idi. Misrga tashrif buyurgan Jo'chi elchilar muносib  
qarshilandilar. Oltin O'rdaliklar Misr sultoni Barquqqa  
dashti Qipchoqning mashhur ovchi quishlari, lochin-  
lari, antiqa bezatilgan toylar bilan birga qullar ham  
hadya etdilar. Bundan xursand bo'lgan sulton elchilarini  
istuganlari qadar yegulik kiyim-kechak bilan ta'minlab  
huyurdi.

Sulton Barquq To'xtamish ila Temurga qarshi itti-  
foqqa birlashish haqida munozaralar yurita boshladi.

Biroq Misr sultonini dovrugi' olis o'ikalarga tarqili do'stu dushmananni birdek hayrat va dahshatga solay otgan Temurga qarshi ochiq ittifoq tuzishga cho'chil Elchilar qo'yinini puch yong'oqqa to'ldirib, yurtiga qeylan munosabatda bo'lib kelganiligini bildirdi. Qohirada O'zbakxon davridagi muloqtolar zamonida kelib qol ta'kidlab, qimmatli sovg'a-salomlar bilan jo'natdilar Misr va Oltin O'rda ittifoqi Eronda Halokular davrida paydo bo'lib, kuchayib ketgan zamonalarda boshlanish ming uch yuz o'ttizinchchi yillarda cho'qisisiga chiqiq edi. Halokularidan kelajakda xavf-xatar bois, bu bishinchi yilda Halokular davlati ag'darilgandan so'nu bu ittifoqning hech qanday siyosiy manosi qolmad va odatdag'i savdo-sotiq darajasiga tushdi.

...Xos amir va lashkar boshliqlarini zudlik bilan fasi tashvishli edi. Bu qishni ota yurtda o'tkazgan ulugdi. Temur Toxtamish xususida marhum Jaku Bangi yerni teshadigan bu jo'chivachchadan xoinilki beklasada, ich-ichdan bunga ishongisi kelmas odi. Alp Turkash o'g'lonning o'z yaqinlari davrasida, surʼo'ylaganini aytganda ham bu orani buzzmoqchi bo'lgan dashmanlarning hiylasiga yo'ygandi. Fikrining tasdiq doqat va itoat izhori sitatida to'qqiz tuya, to'qqiz ot va to'qqiz xachiriga ortilgan qimmatbahor sovg'a-salomlar, Ursusyaning ajoyib moynalari, lochinlar va oltinu kumush idish hamda asl qilichlar yetib keldi. Toxtamish o'g'lon o'z xatida oradagi shartnomaga sodiq qolajagini, qandaydir bir ahmoq bekning gapi bilan Xorazmning nomidan tanga zarb qilinganiga e'tibor bermaslikni so'ragan edi.

Temur eng yaqin amirlar ishtirokida Oltin O'rda minning xatti-harakatini muhokama qilgandi o'shanda. U dushmanmini paxta bilan bo'g'izlamayaptimi? — mi binchkov Temur shogirdining bu tilyog'lamaligidan farabi qo'zib.

— Shunday, hazrat, — deya javob qildi amir Boboturk nishi ulug' amirlarning hech biridan sado chiqmagach. Itolsi, Toxtamish haqida shu paytgacha fikr bildirinlarida Temur befarq bo'lganligi va ularni qaytarib qilgani uchun beklar og'iz ochib bir nima demoq nishi cho'chib turishardi. Ayrim amirlarning nigohlarida qangiz pishirgan oshku, hazrati olyiyari degan pisanihamming g'azabiyu do'sting ta'nasinida kotasaran deya o'yladi o'tirganlarni nigohi ila kuzatar ekan. Temurning kuzatishicha sultannating qay bir yerida isyuning yokim bosqin bo'lsa saroy mulozimlari sarosimaga hujadilar. Temur xavf-xatarga yuzma yuz, tap tortmay boradigan Alp Turkash yoxud Mubashshir kabi hujilarni kam ko'rdi. Darvoqe bu dunyodagi eng dahanlli qor'quv — o'lim tahlikasidir. Odamlarni ham tusunish kerak. Ularga aql va qobiliyatidan ortiq talab qo'yib bo'lmaydi. Aks holda atrofingda hech kim qolmaydi.

— Biqza Toxtamishning so'nggi harakatlari xususida bilgi berasizmi? — deya Alp Turkashga yuzlandi Temur.

— Ular Tabrizdan chiqib, Ozarbayjon va Hazar dengizi janubi-g'arbidagi Xalkol shahri va viloyatini bosqanlar. Amir Vali qaytib kelib, Mahmud Xalxoliy bilan birgalikda mudofaani uyuştirib, shaharni bir hulta davomida ushlab turganlar. Biroq yengilganlar, Toxtamish yurishga yaroqli yoshroq kishilarni qui qilib haydattirib, ikki kun mobaynidha lashkariga shaharni inflattirgan. Olgan mal'mumtlarimizga qaraganda, uning ikki daryo oralig'iga yurish qilmoq niyati yo'q emas, dedi dona-dona qilib Alp Turkash.

– To'xtamish tomonidan bior falokat kelishini

chamiz his etar edik. Biroq bu voqeal qachon

berishini kimsa aytolmas edi. O'zini bilmaslikka olli

Xorazmda nomidan tanga zarb etganligyoq aslidol uchun ilk chorlovdir. Hazrat bosiqlik qilib, uning urin

qabul etdilar, – deya o'rnidan turib so'z boshladi amma

Sayfuddin. – Ajali yetgan itjomening devorini bulg'aydi

deganlaridek, ul o'g'lon bu harakatlari ila o'ziga chet

qazimoqda. Aqli joyida bo'sa u bu ishlarga qo'l us

mas edi. Mening fikrimcha Tabriz tarafga yurish qilib

u yerda hokimiyatti hech bir yog'iy yokim isyonchi

ololmaydigan darajada mustahkamamoq lozim. Hllo

bimizcha, u hududlarda o'n beshdan ortiq xonlik bor

lozim bo'ladı. To'xtamish qilgan ishni bu o'n besh huk

mdor ham istagan daqiqasida qaytarishi mumkin,

deya so'zini tugattdi amir Sayfuddin.

– Haqsiz, – dedi Temur amirning so'zlarini dengan bilan tinglar ekan. – Bir-biriali bilan it-mushuk bo'lgan bul podshohchalar kim bosib kelsada hech qachon bir ikkinchisini himoya qilmaydi. Bugun qo'shnisini bosib olgan yog'iy erta kunda o'zini ham tinch qo'ymasligi o'ylamaydi. Amir Sayfuddin janoblarining fikrlarini quvatlagan holda lashkarga zudlik bilan to'planish amilini yetkazsa! Tovachilarimiz ishga kirishsa boladimi?

– Ma'qull!

– To'g'ril!

– Temirni qizig'ida bosmoq kerak! – ma'qullovali

so'zlar eshitildi.

– Sulaymonshoh ilia Abbasbekni yurt osoyishla

deyssizlar? – deya sotradi Temur kengash so'ngida.

Yig'ilganlar bu taklifga ham qo'shilidilar.

– Biz Eron sari yurganimizda u shumbachchamiz Turon tomon ot qo'yishi ham mumkin. Men yig'ilganlarni cho'chitmaslik uchun bu haqda og'iz ochmadim, dedi Alp Turkash Temurga solinda ikkisi qolganda.

– U bunga jur'at etarmikan? – so'radi Temur bu ku-

mingan gapdan jiddiy tortib.

– Afsuski mumkin, hazrati olyları, – javob qildi

Shunday deng. Demak uni bir yoqlik qilmas-

dan turib, boshqqa ishlarni amalga oshira olmaymiz

rog'i. Hamon To'xtamishning bizga yuzda-yuz raqib

okim dushman deb bilgim kelmaydi. Shunday deya

ylamoqqa ko'nglim chopmaydi. Boisi, uni o'g'ilim

abi ko'rardim. Undan umidim katta edi. Bizga tajovuz

iltiz tangri qiladi to'qqiz, tangri qilganda o'ttiz, qismat

iladi to qqiz deb. Bu qavmdan hech qachon va hech

umga xayr kelmasligiga endi ishonmoqdaman. Tarbi-

lasang, kechirsang va suyasang bular ham odam

bu illo ketadi deya o'ylagen edim. Yanglishgan, qattiq

yanglishgan ekanman, Turkashbek! Otam rahmatli

ojimo bobomiz Qorachar No'yoning o'g'iga aytgan

ur nasihatlarini takrorlar edilar. Hech qachon o'zlaridan

qilib odamlarni hazm qila olmaydilar. Bizning uruqqa

min oxiri bir kun o'zlarini mahv etadigan kuch sifatida

praydilar. Biz, bu johillar bilan til topishib, ularni to'g'ri

yolga boshlab yurgan bo'isak faqat idrokimiz va tinim-

iz mehnatimiz tufaylidir. Ular ulusning qahriga uchra-

maslik uchungina bizni yonlarida olib yurmoqqa maj-

hurlar. Shu bois, ehtiyyot bo'linglar. Ko'za kunda emas,

kunda sinadi. Hech qachon haqiqat bor bo'y basti bilan

yuda yuz tantana qilmaydi va bunga qo'ymaydilar...

lu qavmni faqat ijro etiladigan yunushlarga qo'yib,

jettiq nazorat qilmasang boshingga chiqib oladi. Bar-

ha bek va lashkar bosiliqlariga yetkuring, safar tado-

ylkazmay qaytmaymiz. Safarimiz balkim uzoqqa

cho'zilar. Biroq buni kimsa bilmasun. Jo'chi ulusidagi

so'zi va xatti-harakati e'tibordan chetda qolmasuni  
Turkash ulug' Amirga ta'zim bajo keltirib, eshlak  
mon yo'naldi.

Xonada yolg'iz qolgan Temur yonboshlagandi  
og'ir xayolga cho'mdi. Darvoqe Eron elxoniylardan  
so'hing maydabekliklarga bo'linib ketdi. Bu amirlilik  
bir-biridan kuchsiz, davlat tutumining tayini yo'q  
ular o'rtaсидаги о'заро келишмовчиллар, рақобат  
зулуksiz sawash va janglarda raiyatning tinkasi qurilgen  
edi. Bunday vaziyatda parchalangan bu hududlarni  
To'xtamish yoki biror bir kuchli xonning bosib olib  
tabiiy edi. Agar To'xtamish Eronni olsa bas, so'ngi  
beixtiyor, Turonga ko'z tikadi. Oltin O'rda bilan Eron  
ning harbiy va iqtisodiy kuchi birlashsa, bu katta  
qudratga aylanadi. Bunday birlikka bas kelmoq hum  
oson kechmaydi. Demak, fursatni boy bermay Eron  
butunlay zabit etmoq kerak. Boshqa chora yo'q. Shun  
da ul noshukur o'g'lonnинг Shibir o'monlarida ayiq ov  
lamoqdan boshqa ishi qolmas...

Temurning fikri to'xtamga kelib, ko'z oldidagi vaziyat  
oydinlashgan, qarori qat'iy lashgan edi. Odaticha, u dili  
liga tukkan ishni bitirmaguncha tinmas, Samarqandda  
ham ortiq tura olmas edi. Ulug' Amir mulozimga xos  
chopar Ertog'rul Turonni chaqirishni buyurdi. Ostona  
da qaddi-qomati kelishgan, mo'ylari sabza urgan, ki  
yagan navkar kulohi o'ziga yarashgan xushbichim yigit  
ko'ringanda amirning dili yorishdi. Uni imlab yoniga  
chaqirdi-da, bag'riga bosdi.  
— Seni ko'rganda Alloh rahmatli otang Turon Ba  
hos choparni yoniga o'tqazar ekan. — dedi Temur  
Qynalmayapsanmi? — so'radi mehribonchilik bilan.  
— Qulluq, hazrati olyilar! Siz kabi qibagohim  
o'rnidagi inson ishonchini tuyib yashamoq meng  
cheksiz bir zavq beradikim, buni so'z ilia anglata ol  
maymen! — deya javob qildi Ertog'rul, hayajonini  
zo'rg'a bosib.

— Balli, avlodim! Otangga balli! Yurting mashaqqat-  
yumushlariga, ulusning og'ir dardlariga sendek  
namattar yaraydilar. Alloh barchangizni sog'-omon,  
irt ko'z tugal saqlasın! — duo qildi amir. — Senga bir xiz-  
mat bor, o'g'ilim. Mana bu maktabuni olib Xuroson amiri  
mirzoda Mironshohbek huzurlariga uchassen. O'n-  
yilima chog'i eng sara yigittar yoningda ketsin. Amir  
joda Xuroson qoshinining yarmini olib, Eron tomon  
yurtsinlar. Biz qayerda ko'rishishimizni yana xabar qilib  
sylman. Agar amirzodaneng menga yetkazadurg'on  
zarur gaplari bo'lmasa sen ul akangning yonlarida bo'l  
va birga oldimga borasiz. Agar amirzoda seni zud-  
lik bilan biz tomon jo'natsalar shuni hisobga olginki,  
uzog'i bilan hafta ichida biz Samarqanddan chiqamiz.  
Meni yaxshi angladiningmi, avlodim? — xos choparning  
ko'ziga qaradi Temur.  
— Angladim, hazrati oliyular! — burro-burro javob qili-  
di xos chopar.

— Mana bu o'n dona oltin tangani mendan otam Tu-

ron Bahodir berdi deb qabul qilasan. Ko'ngling nen  
llasa, ol,— dedi Temur xontaxta ustida turgan xal-  
tachadan oltin tangalarni olib, Ertog'rulga uzтар екан.

Xos chopar shoshib qoldi. Ulug' Amir tutib turgan  
pulni olarini ham, olmasini ham biimay bir muddat sa-  
rosimaga tushdi. So'ngra, beixtiyor qo'ilin cho'zdi. Ko'zi  
yoshlanib, tomog'i bo'g'ilib, nazarida shundoqqina ko'z  
o'ngida otasi turgandek edi.

Xoqon qarshisida tiz cho'kib, tizzasiga peshonasini  
yo'yi yidi. Amir uni turg'azib, peshonasidan o'pdi-da, oq  
yo'itiadi.

Ulug' Amir o'g'lidan yo'l-yo'lakay Xuroson yurtida  
qilinayotgan xayrlar ishlar xususida hisob olmoqchi,  
lozim ko'satmalar berib, vazifalar yuklamoqchi edi.  
Amirzoda Mironshoh padari buzrukori o'gruqiga  
Xuroson chegarasiga kirishi ilia yetib keldi. Otasining  
peshini o'pdi.

— Qo'shiningizning yuzda elligini bu yerda qoldirli qolgani bilan Xurosonga qaytasiz, amirzoda, — dedi Temur qarshidagi og'ir tashvishlarning zili zambil yoki yofada. — Binning bul safarimiz og'ir kechadurg'ong'o xishaydur. Balkim bir necha yil qolmoqqa to'g'ri kelar larning omonligi va xavfsizligini ta'minlamog'ingiz, joib bo'lsa Turkistonndagi ahvoldan ham xabardor bollo turmog'ingizga to'g'ri keladi. Maxfiylar ma'lumotiga qaraganda tuzimiz ko'r qilgur To'xtamishning Turon yurtiga ot solmoq xavfi yo'q emas. Men bu xabarqa tamoman ishonmasamda, ul zotlardan har qanday yomonlikni kutish mumkin. Shuning uchun aziz birod ringiz Umarshayx Mirzo bilan zdilik ila bog'i laning Agarda ul nonko'r bul ishga qo'l urgudek bo'isa, qar shisiga amirzoda Umarshayx chiqishi mumkin. Har holda amirzoda hali yosh, tajribasi yetari emas. Imkon qadar cherik to'plattirib, Andijon va Xo'jandga yuboring. Lozim bo'isa o'zim ham yetib borajakman degan xabarni ham bot-bot takrorlab turing. Amirzodagi daldha bo'la!

Temur saroparda eshigi og'zida tik turib suhbatlasharkan, xos mulozim buyurilgan yemaklar hozirligini bildirdi. Kun peshindan oqqanligiga qaramay, ulug' Amir nonushta qilmagan, u kunda bir marotabilar ustma-ust kelganda buzishga to'g'ri kelardi.

— Men qurtava buyurgan edim. Yuring barobar ichamiz, amirzodam, — dedi Temur saroparda ichiga kirar ekan. — Rahmatlik enangiz qurtava bilan kulch-toyni juda boplar edilar. Oshchilarimiz qanchalik toltayoriamasinalar biroq ul lazzatni hech ham tuyalar madim.

Saropardaga yaqin chodirda ulug' Amirning xos oshchilarini yemak hozirladilar. Qulog'iga tol tovoqda qurut ezayotgan tovush chalingach, Temur beixtiyor,

oshchilar chodiri tomon burildi. O'g'il otasi ortidan engashib borardi. Temurni ko'rgan oshchilar shoshib oldilar.

— Bezovta bolimang. Biz amirzoda bilan biroz qurut qurutlarni solib, qaynab, dami qaytgan suvdan quygan Obid oshchi qo'llini yaxshilab yuvdi-da, qurutni ezishga kirishdi. U tovoq aylanasi bo'ylab kafti bilan qurutlarni tovoq devorlariga ishqalab aylantirardi. Tinig suvda oppoq bo'lib korinib turgenturutlar suvni oqish ringga kirita boshlagan edi. Ikkinchisi tol tovoqda esa hozir qurtava turardi.

— Tayyor bol'ganimi maromida isitib, dasturxonaga tortaveramiz, — dedi hansirab Obid oshchi.

— Amirzodaga qurtava tayyorlash jarayonini yaxshilardirki bu shohona hamda faqirona yemakni yeb yillardirki bu shohona hamda faqirona yemakni yeb kelishlarini yaxshi anglating, — so'zida davom etdi ulug' Amir.

— Mana shu ezishda qurutlar maydalanib, suzma shakliga keladi. So'ngra iliq suvdan quyib, quyuqligini ta'bga yarasha holga keltiramizza, qozonga quyamiz. Isitish davomida qo'zg'ab turamiz va me'yoriga mos ravishda piyoz solamiz. Qaynashi shart emas. O'g'iz kuyar darajada isisa yetadi. So'ngra, kosalariga quyib, ta'bga yarasha kuydirilgan yoki kuydirilmagan sari-yog' solamiz, — amirzodaga astoydil anglatardi Obid oshchi. — Dunyoda bundan kuchli va tanaga quvvat beradigan parmez taom yo'q. Yarimta non bilan bir kosasini ichib olsangiz kun bo'yli ot chopsangiz ham ochqamaysiz, amirzodam. Bu yemak ota-bobolari-

miz Alp Er To'ngayu O'g'uzxon, Bo'min xoqonu Qullegin xoqonlar yilning o'n ikki oyida yeb kelgan qullug taomdur. Ulug' Amir hazratlari yurtni birlashtirman deb jon olib, jon bergen zamonlarida otlarining xurjularida non bo'imaso bo'imas ediki, qurut topilar o'rganganmiz, — maroq bilan so'zlardi oshchi.

— Ellikka kirsang ham xomsanda Obid. Seni bolalik do'stim ekanligingni kimsa bilmasin demaganim. Saltanat sirlarini oshkor qilib qo'yding-kui! Xata bo'lmaginu yemak hozirlamoqdan bo'lak narsaga yetmagan boshing ketadi andi, — hazillashdi Temur.

— Boshimiz lozim bo'lsa, bosh ustiga hazratim. Shabosh kelmas edi Obid oshchi.

— Bir kunda men o'n odam bilan ko'rishib surbat lashsam, bu yuz kishi bilan gaplashadi. Bir kitobni boshidan oxirigacha o'qimagan bo'lsa-da, unga gap topib berish qiyin, — o'g'liga qarab so'zlardi Temur — dam. Podishohlarning joni shularning qo'ida bo'ladi, — so'zida davom etdi Temur miyig'ida kulgancha huzur qilib oshchi do'sti bilan hazillasharkan. — Oshchi bilan ovchi zotining loyi bir tuproqdan olingan bo'ladi. Ozingina maqtab qo'ysang bas, uarning barchasi Misr sul-tonidan tortib dunyoni suyab turgan barcha hukmdor yo'lbarsini otgan bo'lib chiqadilar. Ishlaring yaxshi muhossil qilaylikchi? Yemaklarning bizning chodirga oliba, Obidbek. Qani yeling totiliigiga yana bir bor ishondi kir, — dedi Temur ornidan turib, oshchilar chaylasidan chiqar ekan. — Siz menga hisob beringchi, amirzadam. Xuroson fathidan so'ng men yigirma nafer amirzashkar boshliqlariga Murg'ob daryosidan yigirmata katta ariq chiqarishni topshirgan edim. Oq Bug'o viga ariqlarning qazdirgan va ular nomi bilan ataladi.

ndam, siz, Xuroson mulkining shohi sifatida menga o'ylangchi bu ishlar qay ahvolda ketmoqda? Raiyatning ahvolu ruhiyati qalay?

O'z chodiriga kirib, ko'rpa chaga og'ir cho'kkan Temur o'g'lidan javob beklardi. Mironshoh bu xususda otasi hisob bo'rayajagini bilardi. Shu bois, kelmasidan burun bosh vizirdan ariqlar qazilishi bo'yicha bliji olgan edi.

— Sakkiz ariq ishga tushgan, qiblagoh, — javob berdi Mironshoh qo'yin cho'ntagidan daftarni olib boqar-kun. — Bular siz so'ylagan ikki ariqdan tashqari Davlatshoh baxshi, Kebekchi yurtchi, Dilkusho, Ganchravon, Ganchxona, Shayx Ali Said va Shayx Ali Bahodir kinnallaridur. Qolgan kanallar Gulbog'on, Dushoh Jondor, Hasan Jondor, Alouddin Inoq, Sahdak, Purdon, Almalik va Sunj ariqlarini ehtiyoji bo'lmaganligi uchun oxirigacha qazimay turibdilar. Dehqonlarga qancha nuv kerak bo'lsa shuncha miqdordagi suv chiqishi hisobga olinib, kanallar qazildi. Lozim bo'lsa davom ettramiz, — deya so'zini tugatib, daftarni qaytarib qo'yniga solib qo'ydi amirzoda.

— Hisobotingiz qabul, amirzadam. Qilingan ishlar uchun tashakkur. Kanallarning uzunligikamida o'n besh hrsax bolishini so'ragan edim. Dehqonlar bu ariqlar iltrofiga ekin ekadilarmi yo'qmi belgilangan masofaga qidir qazilishi shart. Siz kanalni qazib qo'yavering. Odamlar qanday dehqonchilik qilishlarini o'zları biladilar. Agarda dehqonchilik qilinmasa bu ariqlardan yaylovlarni sug'orish mumkin bo'ladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan birodalarimiz boshlagan ishlarini oxiriga yotkazsunlar. Ular Xurosondan olis yurtlarda bo'lsalar bu ishga o'zingiz boshchilik qilishiningizi so'rayman. Kolgusi bahorga qadar barcha ariqlar uzaytirilib, qolunlari qazib bitkazilsun! Katta ariqlardan qishloqlar va mavzelarga qo'shimcha ariqlar olishda ham ulusga ko'mak eting. Dunyoda bundan savobli va xayrli ish yo'qligini yaxshi bilursiz!

—

Bu savobli ishlarni aytganingizdan-da ortiq qilib barobarida inson co'z ilia ifodalab bo'lmash bir huzur tuyar ekan, — samimiy so'ylardi amirzoda otasining so'zlarini tingleyotgani uchun oldiga qo'yilgan ovqatgi qo'l uzatmasdan.

— Yemagingizingiz yeya bilursiz, bolam, — dedi Temur o'g'lini ovqatga taklif etib. — Sizning bu tuyg'ularingiz utmangkim, asl, butun va mard kishi quydagi haqidayi insoniy xislatlarga ega bo'lmog'i shart. Aks holda u bo'la olmaydur. Bular quyidagilardur, amirzodam. Asl mard o'g'lon eng awval xalq ishini o'ylashi va bu ishga chin yurakdan kirishishi kerak. Odamlarga nisbatan hech qachon insotu diyonat me'yorini buzzmasligi, o'q qoshida kamtar bo'lib, donishmandlarga xizmat qili kerak. Dono kishilarga muloyimlik va kichiklarga shafqatli bo'llish ham ulug'lik belgisidir. Bejizga donolar oldida tilingni, avliyolar oldida dilingni tiy demaydilar siur. Agar dushmaningiz oql, o'qigan, aqlo zakovat joyida odam bo'lsa u hech qachon sizga umrining so'nggigacha yog'iylik qilmaydi. Siz ham uning o'zingizda bo'lishingiz, unga yaxshilik tilab, yaxshilik qiliшинги, uning uchun hech bir muqaddas g'oya va e'tiqod bo'limasa unga bas kelmoqqa majbursiz. Aks holda u sizga nisbatan shafqatsizlik qiladi.

Temur shunday dedida, beixtiyor kuld. Qurtava sini so'ragandek otasiga tikilib qoldi.

— Boshimdan o'tgan bir holatni sizga aytmoqchi edim. Shuni esladim, — dedi Temur sochiqqa qo'llini artar ekan hamon kulib. — Hayotiy tajribamda shunga

amin bo'ldimki, peshonasi va o'zi katta odamdan yaxshilik kelmaydi. Shuningdek, kallasida go'shti yo'q, iqlalla, hamda ko'z kosasi tashqariga bitgan kimlardan ham xayr chiqishi gumon. Buni ham hisobga olib qo'ying, demoqchiman.

— Haqiqatan qiziq bir tajriba ekan, — hayron bo'ldi amirzoda. — Qari bilganni pari bilmas deydi, qibla-joh. Qani endi har kuni yoningizza yurib, bul kabi be-holosam erdi, — dedi entikib amirzoda.

Oraga qisqa muddatli sukunat cho'kdi. Temur o'g'lining keng va qalin qoshiga, bejirim, oqish va toza nuziga, bortigan lablariga bir nazar tashlab qo'yedi-da kolirdan ko'tariigan bir gap esiga tushganday, jiddiy tortdi.

— Sizzdan yana bir rijoym borkim, yoshi ulug' amirzoda sifatida siz buni ukalaringiz va birodarlariningizga inqirmog'ingiz hamda nazorat etmog'ingiz shartdir. Avlodingiz, iningiz amirzoda Pir Muhammad bilan so'zlashib, angilating. Hech qachon ichki ichib, xonimlari lila qo'shiimasun, — ovozi o'zgarib dedi Temur.

Amirzoda Mironshoh o'tirgan yerida mixlanib qolmaddan ko'ra ko'proq o'ziga tegishlidek edi. Shu bois, anchagacha lab-lunjini to'g'rilab, da'fi javob qaytara olmadi. Mum fishlagandek tiliga kalima kelmay, dami ichiga tushib ketdi.

— Bul nomaqbul ish o'z nasl-nasabini yo'q qilişha bel bog'lagan kimsalarning ishidur. Endi o'z ishingiz ilanashg'ul bo'la bilursiz, amirzodam. Biz bilan buyerda yana ikki kun chamasi birga bo'ling. Yana suhab-lishaylik. Diyordingizga to'yaylik. So'ngra siz Xuroson omon, biz esa Eron tomon yo'l olurmiz. Alloh doimo yo'llimizni bersun!

Temur shunday deb o'g'lini saropardadan kuzatib ihladi. Tashqarida insonni armonlarning cheksiz umoniga uloqtiruvchi bahor havosi ifurar, to'rg'aylarning yoqimli chuldir-chuldiri bu dunyoda faqat yaxshilik va jo'zallik abadiyligidan bashorat qilayotgandek edi.

Lashkarlarning baciriq-chaqirig'i, otlar kishnashi va navkarlarning qurol-yarrog'ini charxlayotganda eshil layotgan tovushlar qo'y-qo'zilarning ma'rashi va qushlar sayrog'ini bosib ketardi.

Temur yuragi to'lgancha kun botish tarafagi oppoq monlarga tikiidi. Oqdaryo va Qoradanyo suvlarini ham to'lib-toshib oqayotgan bo'lsa kerak degan o'y xayoll dan kechdi. Bu taraflarga qaraganda Turon yerining larida esa bu hududlardan bir oy so'ng'ra boychechak chiqadi.

Bahor havosidan ko'krag'i to'lgan Temur o'midan turib, o'ng qo'lini ko'tardi. Jiliovor tezda uning sevimli tulpori Oqbulturni olib keldi. Xoqon qo'shinni ko'zdan kechirmoqqa otlangan edi.

## ON TO'QQIZINCHI BOB

Ajam shohlaridan eshit sang xabar,  
Ular zulmidan ko'rdi xalq zarar.

Zamon kechdi, na zulmu, na zar qoldi,

**Shomiy**

Muzaffar Turon o'rdu si Mozandaronning ko'z ilg'amas bo'z qirlarida yovilib, salobat bilan borar, tevarak-atrofdagi katta-kichik qurolli guruhiylar birin-ketin yetib kelib, Temurga tobelik izhor qiliшиб, tobug' kelti. riar edilar.

Turklarning bars yiliga muqobil kelgan yetti yuz sakson sakkizinchchi hijriy yilda ulug' Amir qo'shini Feruzko'h qal'asiga yetgach, to'xtadi. Omul hokimi Sayyid Kamoliddin o'g'li Sayyid G'iyosiddin bilan Turon sultonining peshini o'pmoq uchun hozir bo'idilar. Hokim o'g'lini Temur uchun mulozimlikka taqdim etdi. Ulug' Amir ularni shohona sovg'alar bilan sıyladi.

— Sizzan bir so'rovim shulkim, muhtaram Sayyid Kamoliddinbek, — deya Omul amiringa murojaat etdi Te-

mur muloyim nazar bilan boqarkan qarshisida o'tirgan mehmonlarga. — Menga Jo'chi tarafdan kelgan bos-qinchilarning harakati va ularga qarshi bu hudud beklliari nechun birlashmaganliklari haqida o'z fikringizni to'zlasangiz?

— Bosh ustiga, hazrati olivari, — deya o'midan turdi Sayyid Kamoliddin.

— O'tiring, o'tiring. Bemalol o'tirib so'zlayvering, — dedi qo'lli bilan o'tirmoqqa imo qilib Temur.

— Bu ahvolning yuz berishiga barchamiz aybdor-

miz, Ulug' xoqon hazratlar! Viloyat va shaharlarning hokim hamda voliyları bior kishining bu ishga bosh bo'lishini kutdilar. Bu yerlar da'vosida yurgan Sultan Ahmad Jaloyir esa To'xtamishning Tabrizni talishi ga tomoshabin bo'ldi. Meni qo'llab-quvvatlamagini uchun bu odamlarga xudo To'xtamish degan balosini yubordi dermish, sulton hazrattari. O'z davrida biz uni boshimizga ko'tarib, Jo'chi ulusiga qarshi kurashida yonida turib bergenamiz. Barcha podsholar kabi u ham hokimiyatni egallab, dumiga jir bitgach, o'zini taxtga o'tqazganlarni birin-ketin yo'q qila boshlad. Birovlar usmonli sultanati sari qochgan bo'lsa, qancha birodalarimizga siz zoti oliylari pushtipanoqlik etdingiz. Ulus o'nlab xonu podshohlar ko'rib, Sultan Ahmadchalik battolini uchramagan. Endilikda u sizu bizga qarshi savashmoq taraddudida.

— Tushunarli, — dedi salmoqli ohangda Temur o'yga tolarkan. — Sulton Ahmad bizga nisbatan yovlik maqomida turmassa, uning bir tuk sochi ham to'kilmaq'ay. Mening so'zlarimni unga yetkazing. Biz ila yovlashmoqqa astoydil qaror bergen bo'lsa unda o'zingizdan qolar gap yo'q. O'z gunohi o'zida, qora ilon bo'ynda. Sizzan yana bir so'rovim bor? — deya so'zida davom etdi Temur. — Nechuk bir necha yillardan beri Hijozga borayotgan va qaytayotgan karvonlar hamda hojilarni talovchi Kichik Lur volysi Malik Iziddinning mushugini hech kim pisht demaydi?

Javob berish uchun o'yga tolgan Sayyid Kamoliddin og'ir bir tin oldida gapning rostini so'yladi.

– Unga hech kimning kuchi yetmaydi, hazrati olyari, – dedi xo'ssinib g'amgin ovozda.

– Shunday deng!

vini tortib qo'ymasa, bu yumush boshqaning qo'lidan kelmaydi.

– El o'g'risiz, chag'at bo'risiz bo'imas, deydilar. Blroq bu o'g'rilarda, bo'rilarda ko'payib suruvga, podaga aylansa, bundan katta ofat bo'imag'ay. Ul kimsalarning qilishlari, musofirlar, ayniqsa Baytulloha bo-rayotgan hojilarga nisbatan qilgan nomaqulchiliklari haqida eshitganimga ham ancha bo'ldi. Raiyat Tangri taoloning bizga topshirgan omonatidir. U qiyomatda bizzdan so'raydi-kul! Qanday bedoddikki, mamlakat o'rasisida shunday buzuq bir jamaa yashasa-yu biz bo'la turib, bu bobda beparvolik qilsak! Shunday ekan, vaqt kelganda ularning buzuqligini daf etish, viloyat va mamlakatni ul badkirdorlardan tozalash bizning himmatimiz zimmasiga vojib va lozimdu! – dedi Temur saroparda ichida naridan beri borib kelarkan.

– Goyat ulug', raiyat orzu etgan ish bo'ur edi, janobi oliyari, – dedi Temurning so'zini ma'qullab Sayyid Kamoliddin.

Temur saroparda o'rasisida to'xtamagan ko'yifarmoni oliyni aytilib turib, yozdirdi.

– Har o'nlikdan ikkitadan sara askar olinsun! Ular Xoja Ali Muayyad boshchiligidagi to'xtamay yo'l yurib, Bo'rijar va Xurramobod shaharlarini egallasunlar! Raiyatga tegmay, Malik Iziddin va uning talonchi qo'shinini tor-mor etsun! Qo'iga tushganlari yasoqqa tortilsuni! Ixcham qo'shin qisqa fursatda Lur buzgi'unchilarini bartaraf etdi. Biroq savashda yarador bo'igan Xoja Ali Muayyad bir necha kundan so'ng vafot etdi. O'rduning xastalikka chalingan yana uch lashkarboschisi Oq Temur, Umar Bahodir va Muhammad Himmattar

ham qazo sharobini ichdilar. Temur jondek yaqin bu yo'lloshlaridan ayrilganiga chuqur qayg'uga botdi. Biror shahid ketgan bu mard va jasur insonlar lahadining yegasidada umid hamda ilin yashar edi. Do'studushman ko'zi uchun qasdma-qasd yashamoq, kurashmoq va g'alaba qimoq kerak edi. Barchaning kattayu kichik, yoshu qari, aqlliyo ahmoq, itu quşning ko'zi Temurda edi. Uning da'volarini quruq gap deya o'ylovchilar, Ulug' Turon birligi haqida so'zlaganda sondan Alp Er To'nga chiqarmidi deguvchilar oz emas edi. Ularga ishi va so'zi ila munosib javob bermog'i lozim.

Allohga shukrki, sultanati ichida va yonida yurganlar orasida xoinlar hamda ikkilanganlar ozaydi. Ulus Temurning haqligiga, uning ko'zlagan manziliga yetib borishiga ishonadi. Endi u sultanatni yuksaltirish, kuch-qudratini oshirish uchun bor imkoniyatni ishga soladi. Bu yo'lda tog'ni talqon qilgudek o'rduси bor. Yigirma yildan beri savashib pishgan bu qo'shinni yengilgadigan kuch hech bir davlatda yo'q. Yuz ming sonli lashkari uch yuz mingli o'rduни yenga biladi. Buni anglagan hukmdor borki, shunga qarab ish tutadi. Anglamaganlar uchun qiliq qindan chiqadi.

Bu temir intizomli yuksak jangovar ruhli lashkarni barpo etgunga qadar uning ona suti og'ziga keldi. Savash damlarida bu qadar ko'psonli cherikni ustalik, ehtiyojkorlik bilan boshqarish, savash taqdiri halbo'layotgan maydonlarga bo'limmalarni o'z vaqtida rejalil yollash, turli to'siq va g'ovlarni tadbir ila bosib o'tish har qanday aqli va tajribali lashkarboschining tinkasini quiritadi. Temur bu ishlar bilan esini tanigandan beri shug'ullanaverib shu qadar ko'zi pishib ketdiki, u hech bir jangga omadi kelishiga ishonib yoki tavakkal qilib kirmas, har bir yurishga juda puxta tayyorlanar, ishning miridan-sirigacha rejalashtirardi. Avvalo u raqibni ruhan va ma'nan mag'lub etar, shu taxlit savash maydonidagi ish oson ko'chardi.

tuziliish tartibi va lashkarning joylashtirish shaklini uzor o'rgandi hamda katta-kichik janglarda sinab ko'rdi. U birinchchi galda Chingizzon kabi lashkarni umumiy maburiyat tartibida harbiy xizmatga jalb etmadi. Fe'lan tabiatan askarlikni istamagan odamga tilo bersang u rag'batlantirish asosida ixtiyorilik an'anasi qo'lladil Mo'g'ul qo'shinlari ot-ulovi taylor, ko'chmanchi chor esa oliv bosh qo'mondonning puxta rejasini asosida aholining barcha tabaqalaridan teng miqdorda to'planar edi. Chingizzon lashkarida mahalliy aholidan majburiy ravishda hasharchi piyodalar bo'limalari tashkil etilganini hisobga olmaganda haqiqiy piyoda askar yo'q edi. Temur qo'shinida savashning hal qiliuvchi daqiqalarida qo'l keladigan muqim piyoda qismi mavjud edi. Piyodalarning savashga tayyorgarligini doimo o'zi ko'zdan kechirar va baho berar edi.

O't sochar qurooni ham bevosita o'zları ixtiro etgan temuriyilar armiyasi uni sharqda birinchchi bo'llib qo'lladilar. Shuningdek o'rduda ilk bor tog'i hudundlardan jang qiluvchi maxsus piyoda qismilar tashkil etildi. Bu qo'shindan qo'llilar, ya'ni, korpuslar o'tmish sarkardita edi. Bosh qo'mondon qarorgohi va uning tevarakku atrofida kuchli hamda eng saralangan qismilar bo'llib, bu bo'llinmalar eng muhim pallada jang taqdirini hal eta olar edi. Qo'shinni yetti qismiga ajratish Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Chingiziylar o'rduida ham yo'q edi.

So'nggi o'ttiz yilda Temur o'rduси yengilmadi. Es dan chiqmaydigan muvaffaqiyatsizlik, Amir Husayn xiyonati tufayli ming uch yuz oltmish beshinchchi yilda Chinoza ro'y bergen edi. Bu voqeа unga bir umr saboq bo'idi. Va shunda u savash, jang san'atida ikki narsa muhim ekanligini anglatdi. Birinchisi kim bo'llishidan qat'i nazar jangga bir kishi qo'mondonlik qilishi kerak

akan. Ulus ham bejizga sherkilik oshni it ichmas demas ekan. Hayot-mamot masalasi hal etilayotganda mos'uliyatni bo'yniga olgan odam qaror berishi kerak ekan. Ikkinchisi, savashga qo'mondonlik qilib turgan lashkarboshining bevosita qo'l ostida kuchli bir qism bolishi lozim ekanki, u istagan zamон jangning borishiga ta'sir ko'sata olsin. Aks holda uning oddiy bir mingboshididan farqi qolmaydi. Bosh qo'mondonman, savash davomida u yokim bu tadbirni qo'llayman, barsha barobar aytganimni qiliadiku deya oyamoq ish bermas ekan.

Temur loy jangi saboqlarini juda ko'p eslar va o'zicha tahlil qilar edi. Mag'ubiyat kuchsizlik va tadbirsizlikdan kelib chiqsa uni anglash va hazm etmoq mumkindir. Biroq raqibdan kuchli bo'sangu, buning usluga g'alaba qozona turib, yutuqni boy berib o'tirsang ulum qilar ekan. Uzoq o'ylashdan so'ng Temur shunday xulosaga keldi. Temurning javong'ari amir Hamid va uning birodari Shangum No'yon qo'mondonligidagi barong'orini sindirgach, Amir Husayn bu g'alabaning shuhrati Temur sharafiga yozilajagini sezdi va to'nini leskari kiydi.

Bu savashda Amir Husayn barong'orga boshilq edi. Barong'orning kunbulida Tilanchi arlot, ilg'or qism hirovulda O'ljaytu Aperdi, Sher Bahrom Jaloyir, Polatbug'a, Farhod Aperdi, Malik Bahodir kabi yetakchi lashkarboshilar joy olgan edilar. Javong'ar Temurning zimmasida bo'llib, uning kunbulida Saribug'a Qipchoq ulusi bilan turar edi. Hirovulda Temurxoja o'g'lon, markaz, ya'ni, qo'ida amir Jaku, amir Sayfuddin, amir Murod barlos, Abbas bahodir kabi sarkardilar turardi. Qo'shining bu tartibda joylashuvidan Temur va Amir Husayn cherigining yasoli barong'or, javong'ar va qo'llidan iboratligi, shu bilan birga barong'or javong'arinining har biri qo'shimcha askar qismi – kumbul va xiravulga egaligi ko'rinib turibdi. Bu yasolning Tomur nazaricha zaif tomoni shundan iborat edi,

barong'or va javong'arlaqa qaraganda qo'l anche kuchsiz bo'lgan, ya'ni, markazning ilg'or qismi ya'nili.

Vaholanki, Temur va Amir Husayn qo'shinlari son jihatdan mo'g'ul xoni Ilyosxo'ja lashkaridan ko'p od-

Yomg'irdan o'zini himoya qilishdek oddiy bir ehtiyot

chorasini ko'imagan Movarounnahr o'rduси kigizlar

panasida kiyim-kechagi va yarog'-aslaha'sini quruq

mak holatiga tushib qoldi. Mo'g'ullar o'zları nari tursin

otlarini ham yomg'irdan asrab, dam oldirib turgan edi-

lar. Hujumni Temur va Amir Husayn qo'shini boshla-

gan bo'lsada, yomg'irdan shiftasi chiqqan ot ham, un-

ing ustidagi suvoriy ham zo'rig'a harakatlanardi.

Temurning javong'ari raqibning barong'origa shi-  
kast yetkazgach, yog'iyning Hojibek va Shirovul  
qo'mondonligidagi kumbuli ittifoqchilar barong'ori kan-  
bulini yenga boshladi. Tilanchi arlotni quvlab, o'nq  
Qo'rqib ketgan amir jangchilar qocha boshladilar  
har kim boshi oqqan tomonga ketaverdi. Vaziyati  
bilib turgan Temur lashkarning o'ng qanoitidagi bu ta-  
likadan bezovta bo'lib, o'zining o'n yetti favji bilan amir  
SHamsiddin yetakchiligidagi qismga hujum boshladi  
va uni to'zitib yubordi.

Yog'iy orasida sarosima boshlangan, yana bir ikki  
zarba bilan mo'g'ullarning qolgan-qutganini kelgan  
yo'llariga solib, tiriqtirib quvish mumkin edi. Astoydi  
savashayotgan Temur favjariga ko'mak lozim edi.  
Temurni pinhona o'zining assosiy dushmani deb bila-  
digan takabbur amir uning so'zlariga qulq solmadi.  
Husayynning askarları birinchı kuni deyarli savash-  
madilar. Ikkinci kuni esa Jete qo'shini yengilib, qo'iga  
ilingan narsasini olib Xo'jand tomon qocha boshladi.  
Turon o'rdusi chekinayotgan mo'g'ul qo'shinchalarini  
ta'qib etib borar edi. Kutilmaganda ittifoqchilar qo'shini  
guruhidan ajralib qolgan amir Shamsiddinning bir  
bo'limmasiga duch keldilar. Savash boshlandi. Bu

irsatdan foydalangan mo'g'ul lashkari o'z saflarini  
qaytadan rostlab, hujumga o'tdi. Ahvoli mushkullash-  
jan ittifoqchilar otları jilovini orqaga burishga majbur  
bo'ldilar. Orqada esa loy va balchiqli maydon cherikni  
ot bilan birga yutaman deb turar edi. O'n ming nafer ot  
vi jangchi yo'qotilgan edi bu jangda. Temur shundan  
no'ng janggovor tartibni takomillashtirib, qo'shin marka-  
ni - qo'inii, ilg'or qism - hirovul hamda madadchi qism  
- chag'davul bilan mustahkamlaydigan bo'idi va bu  
qismalar faqat oly bosh qo'mondonga bo'y sunar edi.

...Temur ug'ruqi Tabrizga yetmagan, Feruzko'h  
qal'asi atrofidagi yalangliklarda o'z mashqini tobiga  
ketirar edi. Qorovul Sultan Ahmad Jaloyirning lashka-  
ri bilan Tabriz tomon kelayotganinini ma'lum qildi. Jaloyir  
qavmining fe'l-atvorini yaxshi biladigan Temur bu xa-  
barni eshitgach, miyig'ida kulib qo ydi.

- Agar Mamluk sultoni Barquq huzuriga qochib  
ketmasa, izzat-hurmat bilan sultonni birga olib ketib,  
Xo'jand jaloyirlariga sardor qilib qo'yar edik. - dedi Te-  
mur huzurida o'tirgan Shayx Ali bahodirga. - Ular do-  
imo oqsoqollikni talashib keladilar. Butun boshli, tirk  
sultonni ularga otog'a qilib qo'yar edik.

- Sulton Ahmadning ota-bobolariga Turon mulkidan  
non tekkanida edi bu yerga kelib saltanat qurmayan  
bo'lmidiilar, - gapga qo'shildi Shayx Ali bahodir.

- Jaloyirlar bundan qirq yil burun Iroq, Kurdiston va  
Ozarbayjonning bir qismi ustidan hukmronlik o'mat-  
ganlar. Bu suloilaning asoschisi Tojiddin Hasan Bu-  
zurg bo'lib, yigirma yil sultonlik qilgan. Botuxonning  
o'g'li Xalokuxon tuzgan elxoniyalar davlatidan so'ng  
hokimiyat bularga o'tgan. Bu hududlarning eng kuchli  
va mashhur hukmdorları ayni zamonda jaloyirlardir.  
Bu turk qavmi biz bilan savashmasa bo'lar edi. Usiz  
ham forsiylar va turkmanlarning siquvida bir amallab  
saltanat yurgizmoqdalar. - dedi taassuf bilan xoqon.  
U saropardadan chiqib toza havoda biroz xayol  
surib o'tirdi-da, og'ziga qarab turgan bek va lashkar  
boshoqliqariga so'nggi amrinini berdi.

— Qorovullar hoziroq yo'iga tushib, sultonnинг hara katini kuzatsinlar! O'g'ruqni shu yerda qoldirib, biz ham Tabriz tomon yo'iga chiqamiz! — dedi Temur so'zin qisqa qilib va safar hozirigini ko'rish uchun chodirli mon yurdi.

Sulton Ahmad Jaloyir Temur qo'shinidan ilgari deb daba bilan Tabrizga kirdi. Turon sultonining bugun erta janubiy Ozarbayjon boshkenti Tabrizga yetib kelishidan aqli shoshib qolgan sulton shaharda bir hafta ham tura olmadi. Yana Bag'dod hijarini ixtiyor qilib, ollilovini Naxchivon sari burdi.

Temurning u bilan savashmoq niyati yo'q edi. Qarshisida turgan arab sultonlari va fors shohlari oldida Sulton Ahmad «o'zini» edi. Hoji Sayfuddin, amir Shayx Ali Bahodir va Ilyosxo'jani huzuriga chaqirildi. — Ko'rib turibsizki Sulton Ahmad birodarimiz ila savashmoq niyatida emasligini bildirib, yo'limizni to'smaslik uchun chekinmoqdalar. Egilgan boshni osila qilich kesmas deydilar!

Temur shunday deb uzoq o'yga toldi. U faqat o'zi biladigan iztirob ichida yonardi. Aslida uning hecham jahongirlik da'vosi yo'q edi. Biroq u Turon yurtini bilashitib, ulug' bir davlat tuzgach, o'z-o'zidan yog'iylari ko'paydi. Biri Temurdan cho'chib dushmaniga aylansa bosha biri asrlar mobaynidagi talon-taroj qiliňaverib qavmlari qorishiq bo'lib ketgan bu boy yurtni qo'iga kıldı. Temur degan odamning hokimi multaq bo'lganligini hazm eta olmadi. Temur barchasini sovuqqonlik bilan kuzatdi. Dunyoning barcha o'kkalari kabi Turon yurtining ham egassi bitta bo'lishini, dunyoning barcha millatlari kabi turk ulusi ham qachonlardir birlashib, bir butun millatga aylanishini tumshug'idan narini ko'rmas bu odamlar oxiri bir kun anglab yetarlar deya o'ylar umid qilar edi.

Biroq bu odamlar johillik bilan gumrohlik qudug'ining shu qadar tubida turar edilarki, ularni ro'shnolikka yorug'lik va oydinlikka olib chiqib to'g'ri va inson kabi

yishashing eng oddiy manziliiga yetadigan yo'ini o'rsatib qo'ysangiz ham ularning boshlari aylanib juna o'sha quduq atrofida o'ralashar va tos tepalari bilan tushib ketardilar. Demak Haq haqdur! Modomoki imonlar o'zlarini tegishtirmas ekanlar, Allohdha ularni ligishtirmaydi. Modomoki ular to'g'ri yo'iga tushmoqni istomas ekanlar, Yaratgan ham ularning fe'l-atvoriqa yarasha hayot va qismat ato etadi. Shayx Sa'diy so'ylaganlaridek, sen chiroqni ko'rolmassang, chiroq bilan neni korasan? Insoniyat ko'zining qilmog'i uchun yuza zinchcha yillar kerakka o'xshaydur. Yana qolgani Allohdan ayon!

— Har holda Sulton Ahmad Jaloyirdek podshohning biz bilan sichqon-mushuk o'ynagani kabi ish yuritmog'i bilan sirovatning sha'ni shavkatiga to'g'ri kelmas! Uni in qib etib, maqsadini bilmuoq lozim! — so'zida davom etdi qat'iy ohangda amiriariga boqarkan. — O'zi humunga o'tmasa unga tegmang! Har bir askarga uqtirishing Sulton Ahmad ustilariga bostirib kelsa ham unga qarshi qurol ko'tarmasunlar! Kimki Sulton Ahmadni oldursa, avlod-ajdodi bilan mahv etilajak! Buni bar-chaga iyi anglatting! Bu savash turkligimizgada to'g'ri kelmas! Sizga malumki ulug' qoon Chingizzon bilan Sharqiy Turon yeridan ikki daryo oralig'iga to'rit turk urug'i bringa kelgan. Bular barlos, qavchin, arlot hamda Jaloyir qavmlaridur. Xorazmshohlarning belini sindirgan mo'g'ullar yokim Chingizzon emas, aslida mana shu to'rt turk qavmidur! Valloh, bu turk ulusining o'zidan o't chiqib, bir falokatga duchor bo'lmasa uni bosha bir kuch vositasi ila yengish mushkul. Qismatni qarangki, xohish irodamizga qarshi o'laroq turk qavmlari bir-birimizga yovlashib turibmiz. Albatta men bu yerdagi o'zimizni yuzda-yuz haqmiz demayman. Ularning fikri bo'yicha biz bu yurtlarda sodir bo'layotgan boshboshoqdoqlik va zuimlarga betarq qarab, muslimlarning azob chekmoqlariga toqat qilib yuraverishimiz lozim edi. Shu boisdan bular bizni bosqinchchi deb biladilar.

Biroq biz yurtimizga muqaddas dini islamni olib kelgani kishilarni millati va qavmlaridan qat'i nazar bosqinchidagi deb bilmaymizku. Qaytamga xalqimizni Allohning haq diniga kiritib, boshini qo'shganliklari uchun ul bayrog'i ostida, haq islamni qaror topdirish, ulusini ardan minnatdormiz. Biz bu yurtlarga islam va haqqaq adolat va diyonat yasolari asosida odil boshqarishiga amal qilmoq bayrog'i ostida kelmoqdamiz. Dinimizni parchalagan, turli oqimlarga bo'lib, ziyon yetkazgan kimsalar kim bo'imasun qattiq jazolanajak. Bunday ularning tanobini tortishga qajburmiz! Sizlarga oq yo'lli shingiz baroridan kelsun! – deya lashkarboshilarni yo'ichi etdi Temur.

Sulton Ahmadning orqasidan tushgan qo'shin uni quvib yetdi. Kutilmaganda jang boshlanib ketdi. Sultan Ahmad ortidan quvib kelgan cherikni o'zini mahv etish uchun yuborilgan deb tushunib, astoydil tashlandi. Bir-oq Turon lashkarining savashniq niyati yo'qligini ko'rdi. Sultan Ahmad qolgan-qutgan lashkarini ergashirib, yana Bag'dod sari ot qo'ydi. Sultonning Bag'dod tomon yuzlanganidan xabar topgan Temurning huzurida uni Bag'dodgacha quvib borishga va bu shaharni zabit hodir, Shayx Arslon va Ayboj o'g'lolar o'tirardilar.

– Bag'doddek mashhur va ulug' shaharni juda o'rulangan, tog'ni ursa talqon qilgudek bo'lib, g'ayratshijoatga to'lib turgan askar boshliqlari va amirlarga kulmsirab qarar ekan. – Erta-indin balkim Misrga borishni so'rab kelarsiz? – dedi ularga savol nazari bilan qarab.

– Zotan, uch dengiz oshib, mag'ribgacha borsak kerak deb o'zingiz aytgansiz, hazrati olyulari, – dedi amir Jalol ta'zim qilib. – Biz sodiq qilingiz sifatida sizning so'zlariningizni yodda tutib, amalga oshirmsak,

nadan ot minib, bosh ko'tarib yuribmiz! – Ullug' Amirning nozik joyidan oldi amir.

Temur bir paytlat ayftgan so'zini oqizmay-tomizmay so'zlagan amirning xotirasiga tan berib, yozilib kildi.

– Oq'zimizdan chiqqan gapni yoqamizga tarmashitinsiz-a, muhtaram amir! – dedi hamon o'sha tabasunda. – Barcha ishda shoshish mumkindir va buni kechirsa bo'ladi. Biroq savashda emas. Siz biroz shoshmay turing. Rumu Shom, mag'ribu mashriq, Yamanu Ajam Temurning oddiy bir lashkarboshlari sifatini qoqqaniningizni eshitsun. Shu xabarning o'zi yuzda ellik g'alaba demakdir. Muzaffar o'rdumizning shon-shuhrati qanchalik yoyilisa raqiblariniz biz bilan savashmoq foydasisiz ekanligini shunchalik chuqur unglab yetadilar va bizga el bo'ladilar. Shunda hech bir qal'a yokim shahar ustiga bostirib borishga hojat qolmaydi. Biroq sizlarga so'z beramanki, Bag'dod hukmdorlarining aqli joyiga kelmasa, keltirib qo'yishni sizlarga topshiramani! Mana kunlar ham isiy boshladi. Bu sijoq damlarni Tabriz atrofidiagi soya-salqin joylarida o'tkazaylik. So'ngra Qurum va Surmani hisorlarini egallab, Qars qal'asiga yetib borishimiz kerak. Burunguni kunning muhim tadbiri shuldir. Qolganiga Allah podshohdir!

Amir va lashkarboshilari sukut ilia ulug' Amirni ting-ladilar-da, uning so'zlarini ma'qullagancha chiqib ketdilar. Ular Temurning haqligini his etib, og'iz ochib bir nima demadilar. Lashkar o'jla ishtyoqida edi. Temur buni his etar va tizzinlab turardi. Temur bu savashtan ab lashkarboshlarga Bag'dod tomon yurmoqqa hali vaqt yetilmaganini, awval o'zidan chiqqan balo, Toxtamishning yo'lini to'sish lozimligini aytmadи.

Voqeя va hodisalar intiosini oldindan sezadigan Temur bu o'kilar zabi uchun sidqidli kirishmagan ersada, To'xtamishning bu hududlarda paydo bo'lishidan xavotirda edi. Uning bu ishga qo'i urishiga astoydil ishongisi kelmasada, xotirjam ham emasdi. Biroq u bilan

savashmoqqa to'g'ri kelib qolsa, bu tevarak-atrofdaq bekliklar unga tobe bo'lishi shart edi. Bo'limasa Turon o'rduси ikki emas, o'n ikki o't orasida qolar edi.

Qo'shin Tabrizda edi. Sari Odilining oldirilishini eshitgan ulug' Amirning avzoyi buzildi. Bu xabardan qahri qo'zigan Temur Tabrizning eng mashhur kosisib va hunarmandlarining bir qismini Samarqandga jo'natib, qolganlariga Toxtamish vayron qilgan Janubiy Ozarbayjon boshkentini qisqa fursatda tiklashni buyurdi. Belgilangan kunda shahar ta'miri bitkazli masa me'morlar va ma'murlar sardorining boshi tana esa Jahongirming o'g'i Muhammad Sultonga topshiri di.

Qars qal'asining qutvoli Feruzbaxt Temur qo'shining qattiq qarshilik ko'rsatdi. Nihoyat bo'ytsunish uzangisiga oyoq qo'yib, ulug' Amir huzuriga bosh egib keldi. Temur saroparda toridagi taxtida o'tirardi. Uni ochiq chehrada qarshiladi.

– Xush keldingiz inim Feruzbaxt! Kuzatdim juda yaxshi savashdingiz! Otangizning mard o'g'i, yurt ishonchiga munosib qutvol ekansiz! – dedi Temur uni o'tirmoqqa taklif etib – Har neki bo'isa Oollohdan. Qisizni nasib erkankim, biz bul taraflarda tuzu nasibam-bu qadar uzoq o'ikalarda. Barchamiz Yaratgan yagona Tangri taoloning izmiga bo'yusunamiz! Uning xohishirodasiziz bir tosh ikkinchi joyga ko'chmag'ay! Shubois, qismat choponini kiyib, elu yurttimizing omonligi va farovonligi yo'llida biz ilá birlashing! Martabangiz bundanda ulug' bo'lajak! Men bilamankim, bizning yashab ulug'beklik va xonliklar tikiadilar. Saljuqlilar avlodlarimiz bu yerlarda bir necha yuz yillardan beri bino etgan olymaqom obiddalardan hayratga tushdik. Biz sizni Ulug' Turon davlati himoyasida ko'rmoq istaymiz. Sen avlodim, o'z hokimligingni kerak bo'isa, qo'shni hududlarni ham qo'shib olib, davom etdir. Men bor ekanman, senga kimsa og'iz ocholmas. Sen men-

ing so'zlarimni Rum elining o'zga hokimu beklariiga yatkaz! Ular ham shunday qisalar, to'g'ri yo'l tutgan boladilar!

Temuring vajohatidan dami ichiga tushib ketgan Ioruzbaxt gap-so'zsiz boshi ila ulug' Amir so'zlarini ma'qullab, tasdiqlar edi. U Temuring aft-angoriga, qop-so'zlariga e'tibor berrar ekan, haqiqatan ham afuna bo'ilib ketgan bu odamning vujudida ilohiy bir qudrat jo'sh urib turganini, so'zlashgan kishisini sehrishini his etdi.

– Men bundan buyon siz hazrathning xizmatiningizda ioldiqmen! – dedi biroz o'ziga kelgan Feruzbaxt.

– Menda siz do'stimiz va birodarimizga ishonch bildiramani! Qars volysi Feruzbaxtning yelkasiga Buxoroyi sharifning zarboshoponi yopilib, shohona hadyalar tortiq etilsun! Shuningdek, bul avlodimizga bo'qqizta asl tulpor va qurol-aslahanining oltindan ishlov berilgan to'qqiz xili hadya etilsun!

Bu kuttimagan ittifotdan Feruzbaxtning ko'ziga yosh keldi.

– Biz ertaga Oqbug'a mavzesi orqali Tiflisga qarab yuramiz, – dedi Temur o'rnidan turib Feruzbaxt bilan xayrashar ekan. – Eshitishimcha, bu shahar zamonanining fitna va fasodi, musulmon podshohilar ning g'ayratsizligi hamda boshi birikmasligi tufayli dinimizga ashaddiy muxolif bo'lgan gurjilarnig mamlakati tarkibiga kirib qolgan emish. Men ayni zamonda voqe' bo'lgan hodisayu xarobliklar, fisqu furujlar bois, vujudga kelgan ajoyib holatlar va g'aroylib ishlarni ko'rmoqdamen! Qonun-qoidalar izdan chiqqan! Podshohlik rasm-rusumi yo'qolgan! Albatta, qudratlari podshohlar bo'lmaganidan keyin mamlakat tashvish va parishonlikda yashaydi! Ammo mening taajibum o'mish podshohlar va sobiq maliklarning tutgan siyosat va hokimiyyati ustidadir! Ularning shunchalik ulug'vorligi, komronligi va jahondorligiga qaramay, mamlakatning qoq o'tasida Muhammad diniiga, bu dinni yo'lda qo'yuvchiga Allohning rahmati va sa-

lovati bo'isin, muxolif gurijj jamoalarini qanday qilib shu ganlar? O'ylaysizki, sobiq sultonlarning podshohlik g'ayrati va hukmdorlik shijoati bularni izga solmoqqa yetmasmadi? Butparastlar botil dinlari qoidalariga oya qilib, o'z diniga muxolif bol'ganlarni xo'rash va e'tiborsizlantirishga ruju qo'ymishlar! Ular islam diniga muxoliflik va musulmonlarga duishmanlik maqomida turmasalar biz ularga tegmas edik. Vaholanki ularning xudolari butlardir va ularga yordam berishdan ojizdur! Islam diniga mansub bo'igan va Tangri taolo va'dasiga jamaoa qaysi yuz bilan bu! kofirlerni komronlik va mamlakatdorlik maqomiga qo'yib qo'yanlar-u, o'zları ular to'laydig'an ozgina chiqindiga qanoat etib kelganlar? Qanday bo'lganda ham hoiz hokimiyat va jahondorlik navbatli rabboniylar fazl fayzi tufayli bizga yetgan vaqtida hiyalarini tag tomiri bilan yo'qotish, islam shahar va nordargohiga yetishimiz uchun zo'r vosita deb bilish himmatimiz zimmasisiga lozim va vojibdur!

Temurning bu so'zlarini nafaqat Feruzbaxt, butun amirlar va arkoni davlat eshitib turar, bu so'zlar ularning yuraklariga yetib borganligi yonayotgan yuzlar dan va chaqnayotgan ko'zaridan sezilib turardi.

## YIGIRMANCHI BOB

*U xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, Zimdan qarash va ko'zishorattarini sezadi...  
idrokli kishi edi...*

## Ibn Arabshoh

*Ulug' Amir muslimlarga rahm-shafqat qilmaydigan, islomni mensimaydigan diniy yoxud dinsiz guruhlarga shafqatsiz edi. Muhammad dinida bo'lmasa da unga hurmat-ehtirom ko'rsatmaydigan o'zga din va killyariga tazyiq o'tkazilmas edi. Bu ishlar bilan sal-*

lanatdag'i urf-odatlarni tartibga keltiruvchi maxsus mansabdar, ahdos qozisi shug'ullanar, hech bir qavm yoki qabilanining diniy yoki turmush urf-odatlariiga amal qilishiari cheklammas, balki muhofaza etilardi.

Necha yuz yillardirki, gurijjalar bu hududlarning mu'lumonlari ni tan olmay, ularga zu'l'm o'tkazib, vaqt vaqt bilan bosqinlar uyuشتirishard. Temur huzuriga kelgan ko'phililik arzchilar bu xususda nolib so'zlaganlaridan no'ngina ulug' Amiring avzoyi buzildi. Bo'limasa gurijjani yaxshi so'z bilan el qilmoq niyatida edi. Maslahatchiilar bu qavmning osonlikcha gapga kirmasligini so'yladilar.

– Biz bu gurijjarga tegmasligimiz ham mumkin erdi. Biroq, bularni shunday qoldirsak, aytganimiza yurmaydilar va orqamizdan xanjar uradilar, – dedi Temur ketayotib amir Boboturkga. – Biz aslida o'z kuchimizni awalo bularga, so'ngra o'zimiznikilarga ko'rsatishimiz kerak.

– Bu qavm u qadar ko'p sonli emasga o'xshaydi. Ularni qirib tashlamaymiz albatta. Boshliqiarini ja-zolaymiz.

Boboturk hazrat bilan bahslashmoqni istasa-dafursati emasligini sezdi. Bu damda qo'shin gurijjar yurtini asta-sekin egallayotgan, yo'llarida uchragan katta-kichik qal'alarini kunpayakun qilib ketayotgan edi. Gurijitar dashtlab qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Biroq ko'p o'tmay ular podshohi Buqrot afsonaviy shoh va markarda Temurga qarshi kurashmoq, militatini batamom mahv etmoq ekanligini anglab, huzuriga bosh egib keldi. Uning yonida tarjmoni bo'lib, musulmon usmoniy gurijilardan edi.

– Mening xalqim sening eling kabi ko'p emas. Uni yer yuzidan yo'q bo'ilib ketishiga yo'l qo'yma, ey ulug' turk xoqoni! – dedi Malik Buqrot yig'iga o'xshash ovozda.

– Bu menga emas ko'proq sening o'zingga va ulusing fe'l-atvoriga bog'liq, – dedi Temur uni zimdan kuzatar ekan. – Ayni zamonda sen ila qo'nishmoqqa

fursatim yo'q. So'ngra ikkımız bafurja suhbattasham!

— deya gapni kalta qildi xoqon. — Malik Buqrotga shon hona izzat-ikrom ko'satib. — Seni o'zimizla birga olli ketamiz. Shu bahonada bir aylanib kelasan.

Malik Buqrot haykaldek qotib turar edi. Qaytib oq'i ochishgaga unda jur'at ham, hafsala ham qolmag' edi. Ikk'i amir uni ergashtirib olib chiqib ketdi va xon qo'nolar uchun hozirlangan chodirga joylashtirildilar. Temur esa gurjilar yerini zabit etish bilan bog'ilq so'nggi farmoyishlarni berdi.

— Amir Jahonshoh Bahodir boshliq cherik gurjilari lashkarini sindirishni so'ngiga yetkazsun! Amirzoda Muhammad Darvesh Shaki yurtig'a, Arg'unshoh va Ramazon Hoji qo'shinhari Tonkut viloyatiga borsinlar! Bir to'p cherigimiz esa Elburs tog'i atroflarini tozalaslin! Biz Kur daryosidan o'tib, Qiyotg' viloyati va Qal'ay surxni zabit etmoq jaddida bo'lamiz!

Temur asosiy qo'shini bilan bahavo tog'i bir o'lkagi yetib keldi. Bu yer ulug' Amiringa o'zi yaxshi ko'radiGAN Qarshi yaqinidagi Qorabog' manzilini eslatdi. Temur kutilmaganda qo'shingga bir necha kun shu manzilda istirohat etishga ijozat berdi.

— Bu yer ne nomda atalar ekan? — deya Tohir tarix chidan so'radi Temur tabiatning aql bovar qilmas dara jadagi bu go'zalligidan lol bo'lib.

— Eski rumlar bu yerni Albaniya deganlar. Armaniyalar Ag'venk deya ataganlar. Bu hududlar islam mangatlar tarkibiga kiganidan so'ng Arron deb yuritil-

gan, hazrati oliyari, — deya javob qildi Tohir tarixchi. — Siz bilan Qarshi atrofidagi Qorabog'da bol'gandik. Gapping ochig'i bu yer ham o'shanday, balki undan da go'zal ekan. Bugundan e'tiboran bu jannatmakon manzilni Qorabog' deb ataymiz. Saroy kundaligiga buni yozib qo'ying! Xabarchi va elchilarimiz bu yangilikni tarqatsunilar!

— Bosh ustiga, ulug' Amirim! — ta'zim ila tislandi Tohir tarixchi.

— Allah nasib etsa qishni shu manzilda, Qorabog'da ikzamiz. Bu yerning ob-havosi menga juda ma'qul edi.

Tarixchi ketmoqqa chog'langan edi, ulug' Amir o'ng'ini ko'tarib yana yoniga chaqirdi.

— Ana u g'ayridin podshohimizning ahvoli nechuk ichdi? Unga yaxshi qaramoqdarmi? Siz bir oldiga olib ko'nglini so'rang. Menden salon so'ylang. Nasihat qiling! Ko'z qarashidan sezzdim. Uni va qavmini jaxsi so'z va rag'bat bilan dinga kirtsak bo'ladi. Ul

rodarimizni ruhan shunga hozirlang. Xabar bergannda huzurimga olib kelasiz. Men mehmonlarimizni uriktirmaslikni islonni qabul qilgan gurjimiz Bo'ltak fluxoriyga topshirgan edim. U ham shu harakatda. Olis yo'li yurib qattiq horigan ulug' Amir ikki kun doldirdan chiqmay uxladi. Uchinchchi kuni beklar va divlati arkon bilan kengash o'tkazib, qilnajak ishlarni rejalashtirdi. Xos chopar va elchilar tevarak-atrof hukmdorlarining itoat va mulozimlik maqomini bo'yinlariga olib, ulug' Amir huzuriga kelayotganini yetkaza boshladilar. Peshin namozini o'qigan Temur xos mulozimga Tohir tarixchi o'zi bilan Malik Buqrotni olib kolishini aytди. Ular kelgunga qadar Qur'oni Karim mu'lasisi bilan mashq'ul bo'idi.

Malik Buqrot huzuriga kirib kelganida Temur Qur'oni Karimni qolida tutganicha, saroparda o'rtasida tik lurardi.

— Assalomu alaykum! — dedi Buqrot ulug' Amiringa yaqin kelib.

— Vaalaykum assalom! — chehrasi yorishib javob qildi Temur. — Salomgaki tilingiz kelishibdi, inshoolloh bu tomoni xayri bo'lajak, — so'zida davom etdi ulug' Amir.

— Mulozimlarining bizga yaxshi munosabatda bo'ldilar, ulug' xoqon. Tashakkur bildiramani, — o'zini bosib olgan va taqdirga tan bergen gurji shohi ohista va bosiq ohangda so'zlardi.

— Siz bizzdan hayotingizda ko'rмаган iiftifot va mehr-

muruvvatni ko'rsiz. Boisi, siz shunga munosib, zakovatingizza yagona Oloohni tanish e'tiqodi bura urayotgan inson ko'rinasiz! Agar siz «Eng to g'i dmana shudir» degan oyat ishorasiga binoan maqbul muslimon dinini tutsanjiz «Ey ummati Muhammad, odamlar uchun chiqarilgan ummatlarni eng yaxshisi bo'ldingiz. Zero, siz yaxshia mallarga buyur rasiz» degan oyat bashorati ijobicha ummatlar yaxshi si hisoblannish Muhammad payg'ambarimiz ummat qatoriga kirishga rozlik bildirsangiz «mo'minlar hech shak-shubhatsiz og'a-inillardir» degan oyat mazmu ga ko'ra xodimu maxdumlik yo'llidan birodarlik yo'lliga kirasisz va jizya to'lash xorligidan islam izzat-ikroniyatda humratiga va taqvodorlikka o'tasiz. Bu bilan siz avvalo o'zingizni, so'ngra avlod-ajdodingizni va o'jarligida qirilib hamda tarqalib ketayotgan xalqningizni xalos etasiz, muhtaram birodarim Buqrotbek!

Malik Buqrot xoqonning so'zlarini tinglar ekan, butun tanasidan ter oqar, quylilib kelayotgan peshona yuz terlarini artib, hansirab nafas olardi.

– Rozimen, xoqon hazratlari! – dedi Buqrot qaldina gan ovozda.

– Bo'imasa mening so'zimni takrorla! – dedi Temur uning ko'zlariga tikilib. – Lo iloha illolloh, Muhammad rasululloh!

– Lo iloha illolloh, Muhammadu rasululloh! – takrorladi Malik Buqrot.

– Haq dinga kirganingiz muborak bo'lsun, aziz bular! – uni qutladi Temur. – Sizing qabilingizda gi zalolat qulfi ochildi va siz iymonning muqaddas ko'chasini ko'rmoqdasiz!

Ulug' Amir Buqrotni quchib, bagiriga bosdi. So'ngra, xos mulozimlariga quyidagi amrni berdi.

– Malik Buqrotga shu paytgacha hech kimga ko'satilmagan izzat-ikrom ko'satilsun! Uning sharafiga eng katta ziyofat berilsun! Bu aziz birodarimizga to'qqiz uyur yiliqi, to'qqiz suruv qo'y va to'qqiz poda tuyu armug'on etilsun! Malik Buqrot o'z mamlakatiga

to'qqiz muzofotni qo'shib, tasarruf etajagi xuda farmoni olyi hozirlansun! Qalbi iymon nuriдан hishgan bul birodarimiz nenı istasa xazna hiso-  
mın muhayyo etilishi qayd qilijsun! Malik Buqrot  
sündan e'tiboran Ulug Turon saltanating Elbrus  
qıdı chevrasidagi sarhadlarning hokimi mutloqidur!  
Inga qarshi qo' ko'targan kimsa bizga qarshi qılıch  
ko'targan sanaladi.

Yig'ilganlarning barchasi bu illitot va saxiyilikdan  
hayratda edilar. Bu voqeanning ovozasi yetti iqimga  
inqaladı. Malik Buqrot ham bu g'ayriodatiy holatdan  
sayron edi. U tarixda o'qigan payg'ambar va avliyolar  
hayotida ham bu kabi holatni uchratmagan, boshi  
nyylanib, ne qilarini bilmay qolgandi. Bundan ruhlan-  
gen malikning qarindosh-urug'lari, yoru do'stleri, xe-  
du aqrobolari, tobe va raiyati hamda mamlakatning  
iksariy kishilari islomga kira boshladilar.

Malik Buqrotni o'ng tarafiga o'tqazgan Temur xos  
mulozimning quvonchli bir xabarni aytishiga ijozat  
berdi. Xos mulozimning yonida saljuq turklari libosiga  
monand kiyimdagisi yuqori martabali bir amir ham Te-  
murga ta'zim etib turradi.

murga ta'zim etib turard.  
— Buyuk Turon Amiri, Turkiston sultonii, yetti iqlim  
koqoni, raiyatning asl g'amxo'ri, Oollohning haq dini is-  
lounning sodiq himoyachisi Amir Temur Muhammad  
Tarak'ay Bahodir o'g'llari huzuriga Shirvon yurtining  
maligi, mashhur podishoh Shayx Ibrohim sadoqat va  
hamimiy do'stlik izhor etgali tashrif buyurmoddalar! Ul  
kishining bosh vazirlari O'g'uzbek O'zturk hazrat oly-  
larining poloslarini o'pish sharafiga tuyassar bo'idilar!  
— deva yonidagi amirni ulug' Xoqonga taqdim etdi xos

mulozim.  
Temur bosh irg'ab bosh vazir O'g'uzbek O'zturkning salomiga alik oldida, so'l tarafiga o'tirishga imo qildi. Oradan biror fursat kechmadi. Saroparda qopusida ikki q'o'llini ko'ksiga qo'ygancha taizim bajo keltirib, Ma-lik Shayx Ibrohim paydo bo'idi.

lik Shayx Ibrohim paydo bo idi.  
— Bandalik kamaramizni belga mahkam bog'lab, otas  
yurtimizdan Allohnинг irodasi ila tashrif buyurgan siz

ulug' Xoqonimiz va Buyuk Turon davlatining sultonini

sadoqat va itoatimizni bildirajakmiz! Siz ulug' his-

rating diydoringizga musharraf bo'immoqliki o'zini

uchun oly ne'mat deb bilamiz va umrimiz oxiriga qe-

dar sizga qul va mulozim maqomida qolajakmiz!

tortiqlarimizni oz bo'lsa-da, ko'p o'rnda ko'rursiz!

Shirvon maligining hadyalaridan ko'z qamashin

sovga-salomning balandligi saroparda shiftiga yetgani

di. Qimmatbaho tur-tur shoyilar, Urusiyaning xilma-

moynalari, Hindistonning qimmatbaho toshlari, Min-

ustalari yaratgan kamar va qinlar, Dashti Qipchoqning

uchqur ovchi lochini dari faranglarining chino-

oltin va kumushdan ishlangan idish-tovoqlarning soni

sanog'i yo'q edi.

Temur o'midan turib keldida Malik Shayx Ibrohim

bilan ko'rishib, unida o'ng tarafiga o'tqazdi. Malik

Buqrotning islonni qabul qilganligini eshitgan Shayx

Ibrohim uni muborakbod etdi. Ulug' Amir Malik Shayx

Ibrohim va davlati arkonga murojaat etdi.

– Eng avalo xush keldingiz, aziz qardoshim Malik

Shayx Ibroimbek! Sizni o'z qarorgohimda ko'rnioq

menga, mening odamlarimga haqiqiy og'a-inilik va

qondoshlik his-tuygusini ato etadi! Zeroki biz bir av-

lod, bir qavm va bir ataning bolalarimiz! Oloh buyut-

gan erkankim, biz, siz kabi ulusimizning aqli-zakovallı-

oliyqadr, dongdor va ulug' xonadonidan bo'lish baro-

barida go'zal axloqi bilan dunyo podsholari ham havasi-

Siz kabi sha'h-shavkatli, shuurli va quadratli podsho-

himiz bor ekankim, millatimiz va diminizing muzaf-

far yalovi dunyoning har yerida ko'tarilajak! Adolat vi-

mardlik bor ekan, ulusimiz bayrog'i sollanajak!

Ulug' Amirming olyijanob munosabatidan hayratgi

tushgan Malik Shayx Ibrohimning ko'zları yoshovini

qo'lini o'pmoqchi bo'lgan edi, Ulug' amir uni bag'rigi

bosdi.

– Bizga qul emas, do'st kerak, Shayx Ibroimbek! –

edi uni yana o'tirmaqqa da'vat etib.

Eshik og'asi Jilon, Shamoxiya va Shobiron viloyat-

ni hokimlarining elchilari sovg'a-salom va hadyalar

ni kelganligini ma'lum qildi. Temur bosh irg'ab, bar-

ihu elchilarni birga kirishini buyurdi.

Ulug' Amir uzoq asrlardan beri hech bir sultanatga

lo'yin egmagan Gilon maliklari va boshqa viloyat-

ar hokimlarini eng yaqin insondek ko'rib qabul etdi.

Ulaga suyurg'ol va hadyalar berib, o'z mulklarida

hodumonlik bilan davlat yuritaverishlarini ta'kidladi.

Alp Turkashdandan boshqa hech kim bilmas, butun dav-

lati arkon, qo'mondonu lashkarlar har kuni yuzlab

ip'ylarni soyib, qimizu ayronni sipporib, savashsiz,

iltirohat kunlarning gashtini surardi.

To'xtamish cherigi Ozarbayjon tomon yurish bosh-

ligan edi. Ikki sodiq shogirdi ila maslahatni bir yerga

po'yan Temur so'nggi ammi berish arafasida turardi.

– Odamimizning axborotiga ko'ra To'xtamish

lashkari Hazar dengiziga quyiladigan Samur dary-

osidan o'tib, Darband atrofida yurgan emish. Uni bu

yerde kutgandan ko'ra vaziyatni o'rganmoq uchun

uoh-to'rt tuman lashkar yuborsak yaxshi bo'ur edi, –

dedi Alp Turkash maslahatomuz ohangda.

– Turkashbek to'g'ri so'ylaydilar, – uni quvvatladi

amir Boboturk.

– Kimlarni yuborsak ekan? – deya yordamchilariga

murojaat etdi Temur.

– Menimcha lygku Temur, Usmon Abbosbek va

Shayx Ali bahodirlar tumonlarini yuborsak yaxshi

bo'ladı. Ular bul atroflarni, ayniqsa Hazar bo'yani yaxshi biladilar, – dedi maxfiy boshlig'i.

– Bul uch bahodirimizni huzurimizga chorlang' dedi Temur qat'iy ohangda. – Ularga zarur yot-yotligi kerak. Qanday yo'i bilan bo'limasın, biz, To'xtamish o'g'lonni bu yo'ldan qaytarmog'imiz, uning noto'yi xatti-harakatlаринда ko'rib-ko'maslikka, bilib-bilmaslikka olmog'imiz lozim. Barcha yog'ylar qolib, ikki isom lashkari savashib o'tirs? Bundan katta sharman dalik va kaltabinlik bo'lishi mumkinmi?

Asabi buzilgan Temur kattakon qishki kigiz o'toy ichida qo'llini orqasiga qilgancha, naridan beri yurardi – To'xtamish o'g'lon deganimiz bilan men uzoq va davomli suhbatalashganman. Unda hech bir diling, shuningdek islomgada katta bir e'tiqod ko'rmadim. Bunday shaxsdan har narsani kutish mumkin, – fiklin bayon etdi amir Boboturk. – Men bu xususda hazrati olyilariga ilgari ham so'ylaganman, hozir ham shu filo daman.

– Haqsiz, avlodim. Siz vaziyatni chuqur va teren anglaydurgan, sahroyi va yowvoysi amirlarimizdan farqli o'lar oq davlat yuritmoq san'atining har kim anglasi yetolmaydigan qabariq qirralarini tushunadigan kishi isiz. Agar o'sha zamonda huzurimizga To'xtamish bosh egib kelmasa-da boshqa bir To'xtamishni ixto monning zayli shuni taqozo etardi. O'sha davr sharoiti, zahech qachon chig'atoy xonlarini tan olmaganlar. Bizi esa hech bir zamон hukmdor o'rniда ko'rgilari kelmaydi. Shuning uchun biz ularga bir yaxshilib saboq beramizki, shundan so'ng bu davlat nafaqat parchalama monli davlatlaridek haqiqiy bir saltanat bo'lganida edi, uning bilan ishimiz bo'limas edi. Qaytamga, qo'llab-quvvatlar edik. Siyosati bosqinchilikka asoslangan, tili turklashib, dini islomga kirsada, bu sultanatni biz

masak o'rusrular yoki kuchlanajak boshqa bir davlat illadi.

O'tov qopusida Shayx Ali Bahodir, lygku Temur Usmon Abbas ko'rindi. O'ng qo'llini ko'tarib, ularni ikoriga chorladi. Temur tik turgan holda lashkar-nihilarga ko'satma berar edi. Bu degani ish shoninch, o'tovdan chiqib oq jo'naysiz degani edi.

– Vazifa shundan iboratkim, Kur daryosining narigi shillida qandaydir lashkar bo'limmalari yurgan emish. Iltki ular ipak yo'lli karvonlarining qoriqchi qismi bo'lishi mumkin. To'xtamishxon ilia oramizni buharakatida bo'igan kimsalar bu cheriklarni uning qoriqchini deya gap chiqarmoqdalar. Biz ig'voyu chaquvunga uchmaymiz. Barchangizga oydek ravshankim, odshoh. To'xtamish bilan oramizda ahdu paymoniilz bor va hech qachon biz so'zimizga qarshi harakat imaymiz. To'xtamishxon ham bir so'zli, ahdiga vafo illidurg'on inson va xondur...

Temur so'zining shu yerida to'xtab, unga qulqoq ilib turgan besh nafar eng yaqin kishisining qiyobilaridagi ma'noni uqmoqchi bo'lib, birma-bir yuzbollariga tikildi. Amir Boboturk bilan maxfiy boshlig'i vaziyatni anglab, Temurning siyosatini tushunib turish, uch lashkarboshi esa daryo sohilidagi qo'shin To'xtamishdan boshqa yana kimmiki bo'lishi anglab-inglamay hayron ediilar.

– Agar, har holda qo'shin To'xtamishxonga tegishli bo'isachi? Unda nima qilmog'imiz lozim? – deya o'tradi Usmon Abbas magsadga ko'chib. Temur Usmon Abbosning qarhisiga kelib to'xtadi, ko'zlariga tik qaradi.

– Sizningcha nima qilishimiz kerak? – deya savoila savol bilan javob qaytardi Temur.

– Yaxshilib bir savallab, ko'zini moshdekk ochib qo'ymoq kerak! – dangal fikrini soy'ladı Usmon Abbas. Ikki dunyoda ham undan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Yetim qo'zi asrasang, og'zi burning yoqqa to'lar, yetim lola astrasang og'zi burning qonga to'lar degan gap

aynan shu xonzodaga to'g'ri keladi, hazrat! – filorida

qat'iy edi Abbas Usmon.

–

Fikringizni hurmat qilaman, Abbasbek. Uni so'yamakkada haqlisiz. Biroq To'xtamishxon Oltin O'rda bizning vassalimiz sifatida o'tirganlari yaxshi bilursiz. Shu bois, ul do'stimiz va birodanim izga nisbatan so'zda ham ishda ham g'oyat diqqaliga nisbatan xolis bo'limasa u bu niyatni amalga oshimoq uchun sabab va bahona qidiradi. Biz esa shu ligimiz kerak. Muddaoga o'tsak, lashkar so'ylaganini shaxsga tegishli bo'lsa, ular bilan savashga kirmang Jangdan qo'l tortib, ortingizga qaytingizi! Vazifani ang ladingizmi? – deya uch lashkarboshiba qaradi Temur Ular bosh irig'ab «ma'qul» degan ma'noni bildirdilar va ta'zim bajo etgancha, tisanib chiqib ketdilar.

– Endi amirzoda Mironshoh Mirzoni chorlang!

– Xush keldingiz, amirzodam! – deya o'g'lini samiy qarshiladi Temur, uning salomiga alik olib.

– Buyuring qilibago! So'zlarining boshim va ko'zim ustigal! – deya tiz cho'kib otasining qo'lini o'pdii amirzoda.

– Faqt siz bajarishingiz mumkin bo'lgan bir vazifeni zimmangizga yuklaymizki, amirzodam, bulhaqda boish vaziringiz ham tuymasligi lozim. Xabarlingiz borkin, Jo'chi ulusi tarafdan yoqimsiz epkinlar esmoqda. Ularning qo'llidan bir ish kelmasa-da, bu voqealar suvni loyqalatib, baliq ovlovchi noxayrixohlarimiz uchun qo'l keladi. Biz, sizning tashrifingizdan burun Kur daryosining narigi sohiliga uch turman lashkar yubordik. Biroq qarshi tarafagi cherik To'xtamishga tegishli bo'lsa savashmay orqaga qaytishni tayinladik. Biroq bu harakatni yog'iy sanalmish tomon qanday qabul qilad, bizga nomalum. Lashkarimizning ortiga qaytishidan foydalanib, ular hujum boshlashlari ham mumkin. Shu bois, siz, o'z cherigingiz bilan shu ondayoq ular orti-

dan ottanining! Agar ular hujumga o'tadurg'on bo'lsalar munosib javob bermoq kerak bo'la, avlodim! Biroq imkonli boricha, ishni tinchlik va suh bilan hal etmoqqa harakat qiliing. Qilichni eng so'ngida, yaxshi so'zdan ish chiqmasa qo'llang! Dux kelib qolsa, har qanday sharoitda To'xtamishxonning o'ziga biror bir ziyyunu zahmat yetkazilmasin! Uqdingizmi?

Amirzoda Mironshoh tiz cho'kib padari buzrukvorining peshini o'pdida, tisanib chiqib ketdi. Temur bosh maxfiyga siz ham birga boring degan ishorani qildi.

O'tovda Temur bilan Boboturk tik turishar, oraga sukonat cho'kkandi. Xos mulozim Samarganddan, Saroymulk xonim tarafidan xos chopar kelganligini bildirdi.

– Kirsin! – dedi Temurning yuzi yorishib. – Biz ko'kcha dengizi orqali Iroq tomon yuramiz. Katta xonimga yetkuring, amirzoda SHohruzbek bilan yo'ni o'shal tarafga solsunlar, – dedi Temur ularning kela-yotganini eshitib xursand bo'larkan. Kur daryosi tomon ketganlar bilan bog'ianib turing. Yangilik bo'ilishi bilan menga yetkazing, – dedi amir Boboturkga.

## YIGIRMA BIRINCHI BOB

...U sinchkov, har bir ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz beradigan barcha ishni oldindan ko'rib-bilib turar edi.

Ibn Arabshoh

Uch temuriy lashkarboshining o'ttiz minglik qo'shini Qorabog' daralarini larzaga keltirib, qish bo'y'i namga to'yingan yerdan endigina bosh ko'tarib chiqayotgan maysazorlarni baiqliqqa aylantirib, Kur daryosi tomon shitob bilan ketib borardi.

– Hazrat ularga qarshi qilich ko'tarmanglar dedilar. Biz tomon ot qo'yosalr nima qilamiz? – dedi ikki yo'doshiga bir-bir qarab Shayx Ali Bahodir hamon Temurning amrini anglay olmay. – Oldilariga tushib qo-chamizmi?

— Hazrat ular tomon ot qo'yinglar demaganlaridek, ular hujunga o'tsa tomoshabin bo'lib turinglar ham deganlari yo'q. Bizza ham lashkarboshi va navkarning kallasi bo'ishi kerak. Har holda o'ttiz ming qo'shinni Ulug' amir o'z aqli idroki bilan biron ish qiladi deb yubormoqdalar, — deya Shayx Alining og'zidan gapini oldi Abbas Usmon.

— Haqsiz, Abbosbek. Biroq o'ttiz ming qo'shin yu-  
borildi deya ishni savash bilan bitirmoq jaddida ham  
bo'imsligimiz kerak. Hazrat bekorga ehtiyojkorlik  
qilayotganlari yo'q. Agar Jo'chi ulusi bilan savash  
da otimiz sal orqaga tisarilsin, ko'rasiz Eronu Xuro-  
sonda ne tomoshalar boshlanishini. Biz iloji boricha,  
To'xtamish bilan hecham jang qilmasligimiz kerak.  
Modomiki, u oxir bir kun bu ishga qo'l urar ekan, im-  
kon qadar savashni orqaga surishimiz lozim. Eronu  
Ajam yurtidagi muammolarimizni bitirib bo'lgach, u  
bilan hisob-kitob qilish kerak, — dedi lygku Temur mu-  
lohzalı ohangda.

— Umuman Temur degan zotlarning barchasi haq-  
qiy dono odamlar ekanligiga endi hecham shubham  
qolmadi, — dedi Shayx Ali uning teran fikrlashiga tan-  
siz lygkubek.

— Men amir ul-umarolik yoki boshqa bir mansab ha-  
qida o'ylamayman ham, — dedi xijolatdan qizarib rad-  
diya bildirdi lygku Temur. — Men o'z vazifamni bafa-  
rishimi bilaman. O'z ishi bilan mashg'ul bo'lgan odam  
bu narsalar haqida bosh qotirib o'tirmaydi.  
— Bo'ldi, do'stim. Kimligingizni bilamiz. Hazillashib  
ham bo'imas ekan-a, sizga Aravakash tavba qildi, —  
dedi uzr tilab Shayx Ali Bahodir.

Oldinda ketayotgan qorovul qismidan bo'mish blr  
suvoryning ot chopprib kelayotganiga ko'zi tushgan  
lashkarboshlarning suhbatib bo'indi.

— Yog'iy qorasini ko'rindi, shekilli, — dedi Abbosbek  
otliq tomon diqqat bilan boqar ekan.  
— Shundayga o'xshaydur, — uni quvvatladi lygku Te-

Otlıq ular qarhisida to'xtab, qarshi taraf aska-  
ri ko'ringanini, ular qorovuli bilan gaplashishganda  
to'xtamishxon lashkari ekanligini aytganini so'zladı.

— Bittamiz borib kelamiz. Ruxsat etsalarinjiz,  
men borsam, — dedi lygku Temur Oltin O'rda amiru  
leshkarboshlari orasida mashhur bo'lgani va tanishlari  
ko'pligini hisobga olib.

Shayx Ali bilan Abbas Usmon rozi bo'ldilar. Qas-  
diga olganidek qarshidagi cherikning qo'mondonlari  
lygku Temurga notanish edi. Lygku Temur buni atay-  
lib qilishganini, savash yuz bergudek bo'lsa, begona  
qavm lashkari o'lar-tiilariga qaramay savashishini  
hisobga olganlarini payqamay qolmadi.

— Ne maqsadda bu taraflarda yuribsiz? — deya  
so'radi lygku Temur oldiga kelgan va o'zini tanishtir-  
magan mingboshidan. — Men lygku Temurman. Meni  
Jo'chi ulusida barcha birdek taniydi. Eshitgan chiqar-  
siz.

— Eshitganniz, — deya g'uldiradi mingboshi.

— Endi ismingizni soylaysiz? — dedi do'stona va  
samimiyligi ohangda lygku Temur.

— Mingboshi Qodir Qoqboshmen! — javob qildi men-  
simagan ohangda. — O'zlarингiz bu yoqda nima qilib  
yuribsiz? — ovozini balandlatdi mingboshi.

— Sizga malumki, bu hududlar Turon sultoni ulug'  
Temur davlatiga tegishlidur. Shu bois, biz sizning  
qorangizni ko'rib, maqsadiningizni so'rab bilgani keldik,  
— bosiqlik bilan so'zladi lygku Temur.

— Bu haqda hujatingiz bormu? — so'radi u ko'zini  
yo'q qilib.

— Biz Sharqiy Turkistondan Shomga qadar bo'igan  
hududlarda ot lila kezamiz. Qo'lda hujijat birlan ermas,  
birodarim Qoqboshbek. Harholda siz ham bu yerda  
hujijat olib yurmagan bo'sangiz kerak? — hamon mu-  
loyimlik bilan muomala qillardi lygku Temur.

— Sizga malumki, Jonibekxon zamoniidan buyon  
Tabriz shahridan shimalidagi yerlar va yaylovlar Jo'chi  
ulusi tasarrufida bo'lgan. Shunday ekan, sizlar bu

tomonlarga o'ylab qadam bosmoqlaringiz joiz ed!

dedi mingboshi kutilmaganda.

— Ikkimizning xoqonimiz ham qayerda yurmoqni siz uzzidan so'rab o'tirmasalar kerak. Agar istasan giz men sizni Ulug' xoqon Temurbek huzurlariiga olli boraman. Ul kishi bilan suhbattashib, o'z fikrlaringizni aytishingiz mumkin,— javob qildi lygku Temur.

Temurning ismini eshitgan mingboshining rangi-qu ti oqarib, ko'zi pirpirab, qoshlari ucha boshladi. Tilga kalima kelmay, bir muddat kalovlanib turdi-da, so' qotdi.

— Men bu yerga Temur ~~biten~~ uch rashaman deb kel ganim yo'q. Sen bilan ham ko'rishmoqchi emas edim Senga va cherigingga tezroq kelgan taraflingga qaytili ketmoqni tavsiya etaman! — dedi Qodir Qoqbosh olil jilovini orqaga burar ekan.

Lygku Temur ham xayr-ma'zurni yig'ishtirib, zudlik suhabtida bu cherikning niyatini, Turon o'rduси istasa istamasada ularning avzoyi buzuqligini fahmladi. Bu fikrni tezroq sheriklariga yetkazmoq uchun oti boshlini qo'ydi. Qo'shga yetib borib, bo'lgan voqeani so'zlab ulgurmagan ham edi. Qodir Qoqbosh cherigiga kelib qo'shilgan ming chog'il kamonchi Temur qo'shini to-

— Savash boshlandiganga o'xshaydi. Yasol tuzmog'imiz lozim, — dedi Abbos Usmon yordamchilariga tegishli tavsiyalarini berar ekan. — Eindi savashga kiramiz! Qani ortimdan! Ur-ho-ur! Sur-ho-sur! Jang ko'raverib diydasi qotib ketgan, yog'yni chumolini ergandek ezib, majaqlab o'rganib qolgan, har qo'lli belkurakni eslatadigan suvoriyalar qalqonlarini olari va o'zlarining boshlariga tutgancha to'rt tarafdan kamonchilar ustiga ot qo'ydlar.

— Aylanib o'tib, orqasidan savang! — qichqirdi ularga bor ovozda lygku Temur. — Albatta asirga odam tutish kerak!

Shu tariqa kutilmagan jang boshlanib ketdi. Lygku Temurning qorovulbegi amirzoda Mironshoh qo'shini ko'mak uchun yetib kelayotgani xabarini yetkazzi. Temur lashkarining vajohatini ko'rgandayoq yog'iyning dumi ichiga tushib ketdi.

Dushmanning dastlab huium boshlagan cherigi yanchib tashlandi. Biror To'xtamish qo'shini ham kati va kuchli bo'lib, pishiq chora-tadbirsiz reja buzilishi mumkin edi.

Uch amir qarorgohiga yetib kelgan Mironshoh vaziyat bilan tanishgach, yog'iyni qurshovga olish taklifini kiritdi.

— Yaxshi gap. Agar taslim bo'lsa qon to'kilmaydi, — javob qildi Shayx Ali Bahodir. — Hazrat ham imkon qadar qon to'kmaslikni amr etganlar.

— Qon to'kilmay iloji yo'qqa o'xshaydi, muhtaram Shayxbek, — dedi tog' etagida to'planayotgan raqib qo'shini harakatini kuzzatar ekan amirzoda.

Dastlab qurshovga olinayotganini payqamagan jo'chi qo'shini qattiq savashdi. Yengilayotgan va o'rab olinayotgani oydinlashgach, jonini qutqarishga kirishgan bo'lmalar Hazar dengizi bo'yidagi Darband shahri tomon qocha boshladi. Yuzdan ortiq o'rda lashkari asir tushdi. Bular ichida Qodir Qoqboshning borligini ko'rgan lygku Temurning chehrasi yorishib ketdi.

— Salom berdik, Qoqboshbek! Jojani ilk bahorda sanasa ham bo'lar ekanmi? — unga gap otdi lygku Temur. — Juda damingiz baland, tumshug'ingiz osmonda edi. He yo'q, be yo'q bizni o'qqa tutib qoldingiz!

Qodir Qoqbosh indamay turar, qon sachragan otinining jilovini oynaganancha yerdan ko'z uzmasdi. Uning jussasiga ko'ra kichik, yetilimagan tarrak qovun kabi yumaloq boshi ko'ksiga qadar egilgan, qonga belangan aft-angori, oyog'iga ilinib turgan chorig'i va belida qilibsiz shalvirab turgan qini uning asir va bechora hol turumini ta'kidlar edi.

— Kim u? — so'radi amirzoda Mironshoh qiziqib.

– To'xtamishning mingboshlariidan Qodir Qoqkalla e-e uzr amirzodam Qoqbosh, – deya javob qildi lygku Temur.

– Demak, asirlar orasida mingboshi ham bor dengrimiz bilan qo'nishgan edik. Dimog'idan qurt tushlib turgan edi. Endi esa qovog'idan qor yog'moqda, – hamon uni gap bilan o'yib olardi lygku Temur. – Men bilan zo'rg'a gplashdi. – Ortga qaytib borib urushni boshlagan azamat ham shu birodarimiz.

– Bir minglik lashkar bilan bu asirlarni padari buzruk vorimiz huzurlariga yuborgaymiz! Bularning taqdirini ul zoti olyilar hal etajaklar! Biz esa yog'yni ta'qib etib, qo'shining turishi uchun yaxshi bir makon topmog'imiz lozim, – dedi amirzoda Mironshoh lygku Temurga qarab. – Bul eski qadrdonningizni ulug' Xoqon huzurlariga o'zingiz olib borgaysiz!

– Bosh ustiga, amirzodam! Bu bitko'z birodarimni ulug' Amirning muborak poloslarida shaytonlab, o'takasi yorilishini bir o'z ko'zim bilan ko'ray. Shunda meni oyoq uchida ko'rsatib muomala qilgani esimdan chiqadi. Eshakka muguz bitsa, egasini suzadi, tuyaga qanot bitsa, tomingni buzadi deganlariga endi ishon-dim ulug'im. Mabodo uni asfasosflinga jo'natisht lozim bo'lib qolsa ham odam qidirib yurishmasini! – javob qildi lygku Temur, yarim hazil, yarim chin.

Amirzoda Mironshoh bolafel'bu samimiy amirning xatti-harakatini kuzatib, gap-so'zlaridan zavq qilardi. – Tag'in yo'lda g'ijilashib, o'dlinib qoymang. Hazrat dan baloga qolib ketasiz-al! – uni ogohlantirdi amirzoda. – Bu chinnochin birodarlarimizning tirigidan o'ligi qimmatga tushmasin tag'in.

– Bularning bahosi qanchaligini bilaman, amirzodam! Tashvish chekmang va boshingizni ham qotirmang! Siz yanada buyukroq, ulug'roq va savobliroq ishlar haqida o'playervering! Bu sahro bedanalarini blizga topshiring! Sayraydurg'on bedapoyasini topib beramiz!

– Sizga gapda bas kelib bo'imaydi deb eshitganimcha bor ekan, lygku avol Bundan buyon fursat topib boshqa tashvishlar ham borligi haqida suhbatlashaylik, – dedi lygku Temurni kuzatib kelar ekan amirzoda Mironshoh. – Qiblagohimizga so'ylang. Xavotir olmasunlar! Biz yog'yni ta qib etib, shu mavzeda tura-miz va yangi farmoni olynibeklaymiz.

– Sizni Olloh panohida asrasin! – duo qildi lygku Temur. So'ngra asirlarni qurotsizlantirib, oldiga solgancha Qorabog' tomon yo'lg'a tushdi.

– Lygku Temurbek Oltin O'rda asirlarini haydab kelib kelayotgani shov-shuv bo'lib ketdi. Butun qo'shin tomoshaga chiqqan edi. G'alabadan ruhlangan lygku Temur asirlarni bir soylikda qoldirib, to'ppa-to'g'i ulug' Amirning oq o'tovi tomon yurdi. Asirlar haqidagi xabar allaqachon Oly O'rduغا yetib kelgan edi.

G'ala-g'ovurni eshitgan Temur to'nini yelkasiga tashlab, o'tov sahniga chiqdi. Bekchilarga nima gapso'z degandek boqdi.

– Lygku Temurbek Oltin O'rda asirlarini haydab kelib dilar. Ayni zamonda ularni soyda qoldirib, huzuringizga oshiqmoqdalar, – javob qildi fish-tirnog'igacha qurolanib, sovut taqqan saroy qo'riqchidari qo'mondoni – amiri xarosdan.

Xuddi shu danda pastlikda to'riq ot mingan lygku Temur ko'rindi. Yaqin masofaga kelib otdan tushdi-da, tizginni jilovdoriga tutqazib, ulug' Amir tomon piyoda kela boshladi. Uning shashtidan ishi beshligi ko'rinish turar, ikki yelkasi ag'darilguday silkinib, gursilatib qadam tashlardi. Ulug' Amir qarshisiga kelib tiz cho'kdida, peshini o'pdi.

– Xo'sh keldingiz avlodim, lygku Temurbek! Xush keldingiz! Xabarim bor. Alp Turkashbek jasoratl davranishlarining xususida axborot berib ulgurdilar, – dedi Temur adashining yelkasiga qo'lini qo'yib, ko'ziga tik boqar ekan.

– Siz uchun, yurtimiz Turon uchun jonimiznida bermoqqa hozirmiz, ulug' hazrat! Sizga qasd qilgan-

lar past bo'g'ay! – dedi tiz cho'kkан yerida ikki qo'llи

ko'tarib.

– Siz va siz kabi do'stлариминг haqiqiy sadoqали tuyg'усини baxsh etди, muhtaram lygubek! So'yang'i isidagi sahnga boshлади.

– Jo'chililikarning avzoyi buzuq, hazrat, biz bilan shoh boschchiligidа уларни qarryb iniga kiritib qo'yган bo'lsakda, bul nokaslar hududimizning boshqa bir tomonidan yana bosib krishlari hech gap emas. Tilchilla rimiz olgan gapdan va asirlarning so'зидан shu fikrga keldim, olyi hazrat, – astoydil so'злари lygku Temur.

– Nahotki bu bola oxir-oqibatni o'yalamasa? Axir biz tilamasak? Nechuk bu qadar kalta o'ylar ekan, – hayron bo'lib lashkarboshisiga tikildi Temur.

– Bu yerda takabburlikdan boshqa hech gap yo'q hazrat. To'xtamishxon hududga ham, boylikka ham, o'jaga ham muhtoj emas. Tolib-toshib ketganidan bu noma'qulchilikka qo'l urmoqda, – javob qildi lygku Temur.

– Asirlaringizning kayfiyati qalay?

– O'rтacha. Ular sizning asiru mag'ublarga munosabatingizni eshitiganlar shekilli xotirjam ko'rinadilar. Menga qolsa, o'sha yerning o'зida bularning surobin to'grilab qо'ygan bo'lar edim!

– Istaymizmi yo'qmi, bu qavm bilan quda-andabunday fitnадан узоq yurishimiz kerak, – dedi Temur o'ya tolib. – Asirlaringizni yuvintirib, abisasi nobozurimga kiyim-kechak berib, kechqurun barchasini huzurimga olib keling.

– Barchasini? – qayta so'radi lygku Temur.

– Xo'п bo'ladi, hazrat. Menga ruxsatmi?

– Ruxsat?

Shundan so'ng, Temur bakovulni chaqirib, yuz ellik kishililik kechki yemak hozirlashni, dasturxonni esa to'plantilar o'tkaziladigan katta saropardada tuzashni buyurdi. Ulug' Amiring To'xtamishxon asirlariga korsatayotgan munosabatidan ko'philik hayron edi. Ziyofat zamoni yetgach, Temur davlat arkoni qurshovida saroparda to'ridagi o'z joyiga kelib o'tirdi. Sa-roy a'yonlari ham ulug' Xoqonning o'ng va so'l tarafidan joy oldilar. Bu vaqtga qadar kattayu kichik barcha ushbu ziyofatning sababini bilib bo'lgan, yig'inda ulug' Amiring asirlar xususida qanday qarorga kelishi ha-qida baxslashardilar. Jo'chilik mehmonlar birma-bir ta'zim qilib, saropardaga kirib o'tirgach, Temur ularga murojaat qildi.

– Assalomu alaykum, aziz qo'nolqarimiz! Daslurxonimizga xush keldingiz. Har doim bo'lganidek, o'tovimizning tor'i sizniki. Biz xesh-aqrabo bir qavmiz. Bosh yorig'i do'ppi ostida deydilar. Bir-birimizning yaxshiligmizni oshirib, yomonligimizni yashirib keli-ganmiz. Hozir esa avval taom, so'нgra kalom deganlaridek, topgananimizni baham ko'raylik. So'нgra, suhbabimizni davom ettiramiz! – deya Temurning o'zi birinchi bo'lib dasturxonga qo'l uzatdi.

Oshchilar tandirdabutunlay pishirilgan qo'ygo'shtini kattakon tovoqlarda olib kira boshладilar. Qimron, qimiz va ayron keltirildi. Ichkilik berilmadi. So'нgra qaynatma oq sho'rv'a va qovurdoq olib kelindi. Ho'l va quruq meva-cheva dasturxonda to'kis edi.

Nihoyat yig'ilganlar yeb-ichib bo'lgach, imom duo qildi. Shundan so'ng, Temur yig'ilganlarga murojaat etdi.

– Xabarингiz borkim, aziz birodalar, Darband tarafda muhtaram inimiz To'xtamish oг'лон ила илоq munosabatlarimizni ko'ra olmaydurg'on finachiliar ning qutqusi bilan andek noxush xolat yuz berubdur. Bu voqeадан g'oyat taassufdamiz. To'xtamishxon bilan o'rtamizda ota-bolalik haqqi bor. Nechun endi bir necha johilning fisqu fasodi bilan oramizga sovuqliк

tushib, qon to'kilishi kerak? Oramizza ahd-paymoni anglashma bor. Buni buzgan odam vafosiz bir kimsa aylanib qolajak. Bundan keyin ham o'sha shart va lafzu va'daga sadoqat saqlab, uyquda yotgan fitoni uyg'otmaylik. Rasuli akram, sollallohu alayhi vasallam demishlarki: «Fitna uxlab yotgan odamga o'xshayd! toki uni uyg'otmasalar u turmaydi. Uni uyg'otgan kim saga Oloohning la'nati bo'lsin». Kimda-kim bunga xilof ravishda ish tutsa yoki bizning xotiramizga bunga xilof fikrni uqdansa, ikki tonon ham uning adabini berib, tanobini tortib qo'yomgi kerakkim, toki o'zgalargu ibrat bo'lsin! Bilmay yeyilgan osh yo qorin og'ritar yok! bosh...

Temur shu yerda toxtab, xizmatchi uzatgan sharbatdan xo'pladi-da yana qo'noqlarga yuzlandi.

— Muhtaram musofirlarimizning barchalariga to'qilzdonadan oltin aqcha berilsun. Bosh-yoyq sarupolar taqdim etilib, istagan hududlarida yashamoq imkonii sog'lansun! Yurtlariga qaytmoq istasalar, menelik korsatilmasun! Mendan o'g'ilim kabi ko'rdigim To'xtamishxonga salom so'ylang! Ul kishimga bo'lgan hurmatim cheksizdir!

Jo'chi ulusilik qo'noqlar hayratdan haykal kabi qotib o'tirildilar. Bu munosabatdan hayajonlanib ketgan Qodir Qoqbosh al pang-tal pang yurib kelib, ulug' Amiring oyog'iga o'zini tashladi.

— Bizni kechiring ulug' Amir hazratari! Shayton yo'ldan urib, siz kabi daryordan suv bag'ishlagan kishiga qarshi qilich ko'tardik! Bu badkirdorilgimiz uchun holanki, siz bizni birma-bir dorga osishningiz kerak edi. Siz haqingizda eshitgan gaplarimiz to'g'ri ekan! — deya yig'i aralash so'zlardi.

— Shuni anglab yetganingiz uchun tashakkur, inim, Qodirbek! Tavba-tazarruning kechi yo'q! Eng muhimi, barchamizning gunohimizni yaratganning o'zi kechirsin! — dedi Temur uning yekasiga qoqib.

lygku Temur hurmatli qo'noqqa aylangan asirlari bilan hazillashib saropardadan chiqar va yordamchilari ga mehmonlarni qaysi o'tovlarga joylashtirish haqida ko'rsatmalar berar edi.

— Bunchalik izzat-hurmat ko'rар ekanmiz, ilgariroq kelmaymizmi? — deya gap otdi Qodir Qoqbosh lygku Temurga.

— Ezgu ishning kechi yo'q, Qodirbek birodam. Yana bir bor shu kelgan shaklingizda keling, ana unda ko'rasiz tomoshani. Baiki ikki gaz surp ham tegmasi! — javob qaytardi lygku Temur.

Barcha birdan kuldil.

— Haqiqatan ham lygkubek, bu Temurbek deganining gap-so'zları va ish tutishi odam bolasini kiga o'xshamaskan. Bu haqda eshitar edigu, ishonib ishonmasdik. Bizning kattalar eslari borida etaklarini yopqning yumronlari yig'laydi shekilli. Hay attang-al! Hay attang! Saroyda xonga so'zi o'tadigan obro'ji odamlar qolmadid. Bolmasa ish bunchalikka borib yetmas edi, — afsus chekib gapirinib borar edi Qodir Qoqbosh.

— Odamga o'xshagan podshohni ellikka kirib endi ko'rdim. Shunday podshohni qilsa ham bo'larkana? Oyoqqa turib oldimi, avliyosi ham odamgarchililki unutadi. Tavbang ketay xudoymal... Bularga o'zing to'zim bermasang, biz kabi bandalarin gning ahvoli ne kechadi? Bir ahmoq hukmdorning havoyi istagi deb boshimizni qo'itqilab narigi dunyoga ketaveramiz. Inson zotining qadri qolmadidi birodar!..

— Xoning shu bilan bu qaltis o'yinini yig'ishtiradimi yoki davom ettiraveradimi? — so'radi lygku Temur undan gap olish uchun.

— Hay xudo biladi-yov? — lygku Temur shunday deganicha yon-veriga alanglab, ovozini pastlatdi. — Gap oramizza qolsinu xonimiz yerga ursangiz ko'kka sapchiydigan odam. Ertalab bir qarorga kelsa, peshinda uning teskarisini buyuradi. Kechqurunga borib esa har ikki amrini inkor etgan uchinchisi keladi. O'zining qat'iy maqsadi yo'qligi uchun atrofini o'rah olgan to'rt-besh

kal-kul nima desa shunga qarab fikrini o'zgartirad  
Bizga o'xshagan sultanat uchun qon to'kib, jon beril  
yurganlar chig'irildan tashqarida.

– Podshoh zotidan uzoqroq yurganiningizga suyun  
maysizmi birodar? – unga e'tiroz bildirdi lygku To-  
mur. – Podshohlarga yaqin yurib, hech kim baraku  
topmagan. Ular uzoqdan mehri bilan iitib, yaqindan  
yondirib yuboradilar. Bir hukmdor keticib, ikkinchisi ko-  
ganda unga yoqsang, yoqding. Aks holda boshing  
yoki ishing ketib turibdi-da. Aslida och qornim, tindi  
qulog'im deb, faqir kishining panada yurgani ma'qul.

– O'-o', ishonasizmi birodar, chetraqda tinchgina  
yursang ham o'z holingga qo'yishmaydi. Bu hech  
kimga qo'shilmayapti, biron-bir fitnani o'ylab yurgan  
bo'lsa kerak deya chaqadilar. Boshingga tushingga  
kirmagan g'avg'olarning yog'ilishi hech gap emas. Bu  
odam zoti bir-birini yemasa uyqusi kelmas ekan. Mana  
shu orqamizdan kelayotganlar Temurbekning tuzini  
yeb, oltin chaqalarini cho'ntaklariga urdilar. Xumdek  
boshlari yoniga qolganini aytmasa ham bo'ladi. Biroq  
ular yana xon yalog'inini yalashlari bilan o'zlariga umr  
ato etgan odamni unutib, uning goriga g'isht qalab  
turaveradilar. Bu dunyoda odam bolasiqa ishonch yo'q  
ekan...

Qodir Qoqbosh shunday deb gapimni hech kim  
eshitmadi imikan deya yana yon veriga alangladi, orqa-  
ga o'girilib qarab qo'ydi. Askarlar ancha orqada edi.  
– Xullas shunaqa gaplar lygkubek birodarim. Bu  
zamonda diliqning yorib birovga dardingni ham aytol-  
maysan. Dummingi burilishi bilan sotadi. Toshga dard  
aytsang ham, dard eshitasan. Forslar aytganidek  
to'ng'izni tog'a deb, eshakni amaki demoqqqa majbur-  
miz.

– Haq so'ylardursiz, Qodirbek, – suhbatdoshining  
so'zini ma'qulladi lygku Temur. – Mashoyixlar:

Odam ulmay qolmaydi,

Tangrim olmay qo'ymaydi.

Tanasi beshikkak tekkan,

Tobutga tegmay qolmaydi.

deganlaridek, sizning boshliqlaringizning ish tutumi  
ning yil yashaydiganidek. To'xtamish o'g'longa Dashti  
Qipchog'u, O'rusiya, Bulg'oru Shibirozlik qilayotgan  
midi? Qanday bo'imasin uni bu yo'ldan qaytarish  
kerak. Men uni yaxshi taniyman. Samarqandda ham-  
rolik qilib, olib yurganman. Bir aytib ko'rayin. Balki  
oylab ko'rар, Ollondan qorqib, bandasidan uyalar. U  
har qanday sharoitda ham Temurbekka qarshi qo'i  
ko'tarmasligi lozim edi.

– Uni topa olarmiksiz? – afsuslanib suhbatdoshi-  
ga tikildi Qodir Qoqbosh. – Biz saroyga yetib borgunga  
qadar u Turkiston tarafa ot qo'yimagan bo'isin deng  
hali.

– Yo'g'-el – hayron bo'ldi lygku Temur.

– Mening kaita aqlimcha, shunday. Sababi, xon  
ordusida, savashmasa uyqusi kelmaydigan nasli na-  
sabining tayini yo'q kimsalar ko'payib ketdi. Ular ulug'  
Xoqon bilan To'xtamish o'g'lonni to'qnashitirmsandan  
qo'ymaydilar.

Shu gapdan so'ng har ikki suhbatdosh kutilmagan-  
da jum bo'lib, o'yga tolib qoldilar. Ikkisi ham bu zamon-  
ning eng dahshatli savashini xayolan tasavvur etib,  
damlari ichiga tushib ketgan edi.

– Bu jo'chi qavmidan Turon yurtiga omonlik yo'q  
ekanda, – dedi anchadan so'ng lygku Temur og'ir na-  
fas olib.

– Jo'chi, mo'g'ul deysizlar. Bizning mo'g'ulligimiz  
qoldimi? O'nta so'zimizning to'qqiztasi turkcha bo'lsa.  
Mo'g'ul deb buyuk qoon Chingizzonning ham go'riga  
g'isht qalaysizlar. Axir uning onasi turk bo'isa – qo'lini  
paxsa qilib so'zlardi Qodir. – Buni ko'pchilik bilmaydi.  
Ishonmasangiz Temurbekdan so'rab ko'ring. Ul kishim  
tarixni hammadan yaxshi biladilar.

– O'zingniki o'zagingning uzadi deganlari shu ekanda  
unda...

– Birlashsak, ahil bo'isak bizni yengadigan kuch  
yo'q. Biroq hech qachon boshimiz qo'shilmaydi. Na  
yaratganning, na podshohimizning aytganini qila-

miz. Ajralganni ayiq yer, bo'inganni bo'ri yer deydi. Ishqilib oxiri baxayr bo'isini! – dedi lygku Temur olini niqtab qo'yib.

Ular Darbanddan o'tib, Dashti Qipchoqning cheksiz yaylovlarini bosib, Oltin O'rda poytaxti Saroy Botu tomon qichab borardilar.

Lygku Temur To'xtamishxon bilan uchrashgandi so'zlayajak gaplarini ichida o'ylab, pishitib, mashq qili borar edi.

Asirlikdan hummatli qo'noqlarga aylangan Oltin o'dalik musofirlar yurtlariga qaytmoq istagini bildirishganda ulug' Xoqon ularni kuzatib qo'yimoqni yanu lygku Temurga topshirgan edi...

## YIGIRMA IKKINCHI BOB

„ U o'z afkori bilan sal bo'imasa, uchur yulduzni to'g'iyo'iga yetaklar, o'z fursat mu lohazalar bilan hech qanday xatosiz sayyo ra o'qini o'z orqasidan ergashadir edi.

Ibn Arabshoh

Turon O'rdsisi g'arbiy Ozarbayjon orqali Iroqqa, undan Arzirum tomon yurmoqni mo'jallab yo'iga chiqqan edi. Saltanat hududiga chegaradosh qator qal'a va shaharlar bor ediki, ularni egallamay turib, xotirjam ketib bo'lmassi. Temur shunday qal'a qo'rg'onlardan biri – Alanjiqini olish uchun kuyovi bo'lmish Mirzo Muhammad bilan Uch Qaro bahodirni yubordi. Amil Shayx Ali bahodir, Xoja Sayfuddin va yaqinda Oltin Ordadan qaytgan lygku Temurlar Boyazid ko'rg'onini zabit etdilar. Lygku Temur zudlik bilan orqasiga qaytlb, Jo'chi ulusida Mavarounnahr tomon lashkar jo'natish rejasiz borligini taassuf ilo so'yladi. Lashkarboshsiz bor gapni yetkazayotgan bo'lsa-da, Temur hamon To'xtamishning bunga jur'at etmog'ini aqliga sig'dira olmas edi. Uni Tabriz yokim Darband tomon yurishini

anglash mumkindir. Biroq Samarqand yokim Buxoro sari ot qo'yishi...

Uzoq o'ylagan Temur Eronzamin yurishini qisqa fursatda bitirib, yurtga qaytmoqqa qaror qildi.

Arzirum qal'asini zabit etgan lashkar Arg'un ko'rig'iga yetib, qo'sh tashladi. Temur o'gruoni Olatog'da qolishi ga amr berib, lashkarga Oydin qal'asini fatih etishni buyurdi. So'ngra, yo'l-yolakay Arzirum bilan Van ko'lli oralig'idagi Avnik qal'asi egallandi. Endi Arzinjon yo'lli ochiq, qo'shin to'ppa-to'g'i shaharga kirib borsa bo'lar edi. Temur xos elchilar Erto'g'rul Turon bilan Yaylor Tog'lini Arzirum hokimi Tahurtan huzuriga yo'lladi.

Xos elchilikning hadisini olgan Erto'g'rul Turon yo'qiz nafar yigitli bilan Arzinjonga kirib borar ekan, bunun xalq ularni tomosha qilgani ko'chaga chiqqan edi. Elchilar o'zlariga nisbatan qilinayotgan ikki xil munobatni korib, hayron bo'ldilar. Shahardagi muslimmon va turk qavmlari ularni olqishlar, g'ayri din aholi esa ho'mrayishib, sovuq qarashardi. Turkistonlik cho'ponni eslatadigan bir qariya elchilarga yaqin kelib so'z qoldi.

– Ata yurtdan xo'sh kelding, avlodim! Asl turk xoqoni Temurbekga ayt! Biz unga yomonlik tilamaymiz! – Xoqon Temur ham sizlarga yaxshilik tilaydilar! Biz sulh va tinchlik istab kelmoqdamiz! – javob qildi elchiboshi.

– Isming nadir o'g'lon?  
– Erto'g'rul Turon!

– Oh! Naqadar go'zal ism! Senga shu nomni bergen olangga balil! Kel, bir burda nonimizdan yeb, qo'noq bo'll – otliqlarga ergashganicha litifot ko'rsatdi chol.

– Sizning otingiz nima, bobo? Hozir Tahurtan huzuriga ketmoqdamiz. Qaytishda uyingizga kiramiz!

– Meni O'tukan Bobo deydi! Cho'ponman! Qaytishda qulnaringacha shu yerda kutib o'tiraman! – qo'llini ko'ksiga qo'rganicha, qadamini sekinlatdi oqsoqol va quvonchi ichiga sig'may, ta'kidladi. – Albatta kelinglar.

— Haqiqatan ham qaytishda shu odamni topaylik  
Qara, Ertog'ru uning quvonganini ko'rdingmi? Buning  
sababi nimada? — so'radi Yayılov Tog'il.

— Ota yurtidan kelganimizda! — javob qildi Ertog'ru  
bo'lgani uchun bizga poyi-patak bo'layapdi bechora.

— To'g'ri. Biroq yanada to'g'riroq'i qonda. Qoni bli  
hurtan Temur elchiali kelayotganidan allaqachon xal  
bar topgan, qarorgohiga sig'may, saroy hovlisida asa  
biy bir holatda aylanib yurar edi. Xayoli qochgancha  
elchilar bilan birma-bir ko'rishib, iliq so'rashgan bo'ldi  
di. Hayajonlanganidan tez-tez suv ichkarkan, ikki ko'zi  
torda o'tirgan elchiboshining og'zida edi.

— Ayni damda Jabaxjur suvi bo'yida qo'r to'klib  
turgan Ulug' Turon sultonı Amir Temur hazrati oly  
lari sizga o'z salom va hummatlarini yo'llaydi! Al  
loh sizga hal qiluvchi damlarda tez va to'g'ri xulosia  
qilib, sini birga davlat yuritish va yaxshi munosabatlari  
oqibatlaridan ogoh etib, raiyat osoyishi yo'lida ham  
korlikka chorlaydilar! — dedi buyuk elchi Ertog'ru Tu  
ron burro-burro qilib.

Tahurtanning tiliga birdaniga kalima kelmay, qora  
qoshlari chimirilib, tor peshonasi tirishdi. Otiag' iyagi  
yanada osilib ketdi. Yuz va bo'yin terini artib, chuqu  
tili aylannmas edi. Arzinjonning mustaqil amiri bo'lgan  
Tahurtan Usmonli turk sultonı Yıldırım Boyaziddining  
ishini taxmin qilib, yuragini hovuchlab yurgandi. Biroq  
bu Temur degani tezob Yıldırım Boyaziddan ma'qilroq  
ko'rindi. Qo'shini bilan bosib kelib, shaharni yer bilan  
ko'yib, elchi yuboribdi. Bundan ortiq iliq muomala ku  
tish insoftdan emas. Temurning shartlarini qabul qi

lish kerak. Shu bilan Yıldırım Boyazidning zug'umidan  
ham osongina qutuladi. Yıldırım Boyazid endi uning  
ko'ngliga qarab o'tirmaydi. Hisob-kitobini Turon Xo  
qoni bilan qilgani ma'qui. Balkim ikkisi talashib, biz qu  
tulib qolarmiz... Bunday olib qaraganda, uning mush  
kulini xudo yengillatmoqda. Yıldırım Boyazid degan  
baloning qarshisiga undanda kuchli bir baloni qo'ygan  
Yaratganning quadratiga tan bermay ilojing yo'q!  
Elchilarning javob kutib qolganidan xijolat chekkan  
Tahurtan tutila-tutila so'z boshladi. Uning o'ng va so'i  
tarafidagi ikki vaziri qovog'ini uygancha, miq etmay  
o'tirishardi.

— Tashriffingizdan mammunmiz, muhtaram birodar  
larimiz va elchi janobları. Biz ham Temurbek kabi ulug'  
Xoqonning tarifu tavsiflarini, fathu zafarlarini ko'p es  
hitgamiz! Ayniqsa, ul kishimning bebosha va qaroqchi  
to'dalarni jazolash hamda tartibga keltirish borasid  
agi sa'y-i-harakatlarini yüksak qadrlaymiz. Ulug' Xo  
qonga aytингim, biz ul hazratga har zamon itoatda  
bo'urmiz. Lozim topilgan xirojlarni vaqtida to'lab tura  
jakmiz. Temurbek hazratlariga bizdan ko'ngillari to'q  
bo'imloqlarini yetkazishingizni so'raymen! — Chaqir  
ganlari zamon huzurida hozir bo'urman! — deya so'zini  
tugatdi Arzinjon amiri Tahurtan.

— Biz sizdin o'zimizni qoniqtiradurg'on javob olga  
nimizni bildiramem. So'zlarigizni oqizmay-tomizmay  
ulug' Xoqon hazratlariga yetkazguvsimiz. O'yaymanki,  
hazrati olyulari sizdan mammun bo'lib, martabangizni  
yanada yuksaltiradi, o'zining hummat va e'tiboriga  
musharraf etadi, — dedi buyuk elchi Ertog'ru Turon  
samimiyo ohangda.

— Ulug' Xoqon hazratlarining amru farmonlari bosh  
ustiga, — javob qildi Tahurtan elchingin so'zidan biroz  
taskin topib. — Ulug' Xoqonga bir so'rovimizni yetka  
zishingizni so'rayman. Buzga arzga keluvchilarning  
so'zlariga qaraganda Qora Muhammad Türkmannning  
odamlari hijoz va boshqa karvonlarni talamoqda ekan  
lar. Ulug' Xoqon hazratlarining obro'-e'tiborlari yüksak.

So'zları har yerde kecharli. Shu bois, ul birodartarlari mizni insofu adolatga chaqirib qo'salar degan rijoyimiz bor? – arz etdi Tahlurtan.

Darvoqe

Erondagı Halokular saltanati parchalan-

gandan so'ng Van va Urmiya ko'llaridan shimal tarafdagi turkmnlarning Iwai urug'idan kelib chiqqan Qoraquy lu qabilasi Qora Muhammad Turmush boshchiligidagi ming uch yuz saksominchi yilda mustaqilbeklik bo'ilb olgan edilar. Qora Muhammad bahodir, o'g'illari Qora Onado'l'i va Ozarbayjoni bosib, o'z tasarruf doirasiga

kirita boshlagandi. Qora Muhammad Turmush ham Usmonli sultonlari kabi o'z ya'vosi bilan ot surar edi. – Bul arzingizni ulug' Amirga yetkazurmiz. Inshool

nohaqilktarning lidizi qo'porib tashlanajak! – dedi Ertog'rul Turon uchrashuvdan mamnun ohangda. Amir Tahurtanning imosi bilan mulozimlar hadyalar ni keltirdi. Amir tavoze va hurmat bilan uni elchilarga taqdim etdi.

– Ulug' Xoqonimizg'a yetkuring! Arzijon shahrimizg'a etmoq uchun kelsunlar. Xizmattariga kamrabastan biroz o'ziga kelib.

Elchilar amir saroyidan chiqar ekan, qopu og'zida ularni kutib, och-nahor O'tukan bobo o'tirardi. – Ey, mehribon bobom-ey! Haliyam bizni kutib Tuz ham totmagandisiz, – dedi Elto'g'rul chol bilan yonma-yon ortga qaytarkan.

O'tovimga borib oyoqlaring ostiga to qo'qizta qo'chqormanda, so'ngra ko'nglim tinchiydi. – Sizlarsiz tomog'imdan yemak o'tarmidi. Hozir so'yib, birini yedirib, qolganini ottaringga ortib beradi. – Ata yurtimning hidini, gardini olib kelgan bo'yalingdan aylanay o'g'lim! Otam rahmatlik, Turkistoni,

hazrat Yassaviy turbasini ko'ramanmi deya oh urib, armon bilan o'tib ketdilar. Bilmadim bu qismat menga nasib etarmikan?

– Etadi, O'tukan bobo! Nasib etsa o'zim shu qaytishimda sizni yurtimizga olib ketaman! Hech qayg'urman! – dedi Ertog'rul cholning yelkasiga qo'llini qo'yay ekani. – Sizning bu ochiq ko'ngililingiz va samimiyatingiz amiringiz Tahlurtanning rizoligidan kam emas. Demak xalq bizga xayriox!

– Ulusga tinchlik kerak, bo'tam! Bir qon to'kilgan yerdan qirq yil baraka ko'tariladi. Turon Xoqoni Temur haqida odamlar biladi. Faqat taxtidan cho'chigan to'rtta beku sulton uni yoqtirmasligi mumkin. O'zi hayot shunaqa, ojiz kuchlini, ahmoq aqlinini yomon ko'radi. Bu dunyo avval kuchli, so'ngra odil bo'la bilganniki, avlodim. Mana mening uyimga ham yetib qoldik. Bir suruv qo'yim bor! Xudoga shukur, hech kimga muhtoj emasman. O'nta o'g'lim bor. Hozir hammasini ko'rasizlar, – deya otdan tushgan O'tukan bobo, baqirib-chaqirgan cha o'g'il va kelinlarini ishga buyura ketdi. – Ulusga oshu ish kerak, bo'tam!

Uning loysuvog uyi va bir necha qora uy hamda chodirlari tog'ning shamolpana bir o'ngiriga joylashgan bo'ilb, tevarak-atrof qir-adir va yaylovdan iborat edi. Etakda shovullagancha bir tegrimon suv oqar, soy bo'yida yuz chog'li otuyuri yoyilib yurardi.

– Uyda bo'lgan besh o'g'il kelib qo'noqlarga salom berib, so'rashib ketdi. So'ngra, ular yurta atrofida yoyilib yurgan qo'yidan to'qqizasini ajratib keldilar.

– Bittasini soyasiz, bobo. Sakkiztasiga en solib qoldirib ketaman. Har o'tkan-qaytganda so'yib, yeb turamiz. Qo'zisini ham hisobini olaman, – deya hazilashdi Ertog'rul. – Jannatda yashar ekansiz, bobo!

– Yo'q, ketmaydi. Niyat qidimmi so'yaman! – turib oldi chol.

– Bu xatti-harakatingiz Temurbek hazratlariga yesa, bizni sizzan rishvat olganlikda, sizni esa rishvat berganlikda ayblab, jazoga tortadilar, – hazilu chin po'pisaga o'tdi elchi.

— Yo'g'e! — hayron bo'ldi sodda chol bu gapdan cho'chib, ko'zlarini katta-katta ochib boqarkan.

— Shunday. Bizning Xoqon hech bir katta-kichik voqeal va hodisani e'tibordan chetda qoldirmaydilar. Buncha qo'yni so'yishingizga yo'l qo'yishimiz mumkin emas. To'g'i so'yamoqdamen. Bittasini so'yib, quyruq yog'iqa bitta cho'pon kabob qilaylikda, yo'iga chiqay.

Elchilar otlariga dam berib, uy sohibining qo'rasiغا bog'ladilar. O'tukan bobo otlar ohuriga hashak va arpa soldi. Suvoriylar yuvinishib, namozlarini o'qib bo'lguncha, qo'y so'yilib, behi shoxlariga tiziilgan parchalari quyruq yog'i charsillab qaynayotgan qozon ga tashlangan, dasturxoniga borini to'kib solgan bobo huzur qilib yeb, qo'y ayroni, qatiq ichishdi. Oqsoqohning kelinlari pishirgan yupqasifat antiqa ekma kni qan sillatib yeyishdi.

Ular yemak yerkan O'tukan bobo qanday qilib otibobolarining bu hududlarga kelib qolganidan so'z ochdi.

— Avlodlarimizning bu tarafga yurishlari eski turk xoqonligimiz zavol topgandan so'ng boshlangan ekan. Qoraxonlilar davrida ham davlat bizning bobolarimiz elida bo'lgan. Otalarimiz so'ngi bor Qoraxonlilar bosketi O'zgandan bu taraflarga otlanganlar. Ikki yuz yillik mobaynida yura-yura mana shu yerga kelib qoldik, og'zidan otash chaqnardil Qismatni qarangki, mana uchrashib o'tribman.

— Bugundan e'tiboran siz Turon davlatining ulug' Xo'ing vatandoshisiz. Endi bu hududlar bizga bog'ilqadur giz Temurbekka itoat bildirdilar.

— Alhamdulillah! — dedi oqsosqol hayrat aks etgan ko'zlar katta-katta bo'lib. — Otalarimiz buni orzu etar.

dilar. Mana qarang, bizga nasib etdi bu kunlar. Alloh Temurbek xoqonning davlatini qo'risin! — duo qillard O'turkan bobo.

— Endi bizga ruxsat bering! Yetib bormog'imiz lozim. Ulug' Amir janoblari bizni Avnik qal'asi atrofidagi yaylovdha beklamoqdalar. Qani bir dasturxonga fotiha qilingchi?

— Yo'q, qo'noqdan!

— Biz ham sizning yoshingizga yetib yuraylik O'zlaridan. Bag'ishladik!

— Ilahi omin, — deya duo fotiha uchun qo'l ochdi mezbon. — Ulug' Xoqon Temurbek janoblariga Alloh quvvat bersin! Davlati boqiy bo'isin! Barchamiz eson-omon to'rt ko'z tugal, bag'ri butun bo'lib yuraylik! Sizlarning yo'llaringiz oq, yo'ldoshlaringiz haq bo'isin! Omin, Ollohi akbar!

Elchilarni kuzatarkan cholning ko'zi yoshlandi.

— Menga so'z ber, asl turk bolasi bo'lsang, — dedi yilg'iga o'xshagan ovozda. — Temurbekni mening qo'shimga olib kelasan. Uni bir ko'rsam, o'isam armonim yo'q!

— So'z beraman, bobo! Ul hazrat siz kabi samimiy va beg'ubor insonlarni boshlariga ko'taradilar, — javob qildi elchiboshi.

— Turkistonga olib boraman deya bergen va'dang bundan ayri. Unutma, — qo'shib qo'ydi kuilimsirab.

— So'zim so'zdu!

— Endi ioq yo'l, senga! Otingni boshini qo'y! Qo'zinining qolgan qismini xurjuningga solib qo'ydim. Temurbekka ham nasiba beringlar!

— Xo'p bo'adi! Xayr!

— Xayr, o'g'lim! Ertog'ril hech qachon tuymagan bir mehrli insoniy tuyg'uni his etgan edi bu yerda. Nazarida bu voqealar bir necha ming yillar burun bo'layotgandek yoki ro'y bergandek edi. Tavba, bu qanday ruhiy yaqinlik hotatikim anglamoq mushkul. Yoki inson zamonlar kechgach, qayta tug'ilarmikan? Boboning qiyofasini

qachondir, qayerdadir ko'rgandek. So'zlarini eshitg'an-dek. Bu kigiz o'tov, bu loysuvoq uy, qo'ra va qo'tonlar, atrofa yoyilib yurgan qo'ylar va qo'ychivon itgacha barcha-barchasi unga yaqin va qadron. Ovqatning lazzati ham, o'zi yeb yurgan yemakning xuddi o'zi. Yo Oolloh! Bu cholning samimiyligini aytmaysamni! Demak, turk millati bor joyda soddalik, samimiyat va su-doqat bor!

Xos elchi Ertog'rul Turonning mag'rur qijofasini ko'rgan Temurning ko'ngli yorishdi. Demak ishlar tuzuk. Arzirum savashsiz tasarrufga kiradi.

— Bu amir Tahurtanining millati va dini ne ekan? — deya so'radi Temur elchingning axborotini tinglab bo'lgach.

— Dini narsoni, millati rumlik. Aytishlaricha, Yildirim Boyazidning kelib qolishidan qo'rqib, yuragini huvchlab o'tirgan ekan. Bizni unga xudo yetkazgan ko'rinadi, — javob qildi xos elchi.

— Ha, Yildirim Boyazid barchabekliklarni birlashtrib, ulug' bir saltanat yaratmoqda. Turk va muslimmon bo'lgani uchun biz uni qo'llab-quvvatlashimiz kerak. Rumliklar usmonli turklariga osonlikcha Jon bermay-dilar. Boyazidning kuchi va qoli yetmagan joylarga bizniki yetadi. Unga istagan rum bekligini olib berishimiz mumkin. Buning uchun u bilan yaxshi aloqlar ornatmog'imiz lozim. To'xtamish Misr sultoni Barquq bilan anglashib, bizga qarshi kurashga hozirlanmoqda emish. Shunday sharoitda biz usmonliga tegishli bolgan o'kalarga oyoq bosmaymiz.

So'ngra u O'tukan bobo haqida so'zlab berdi. U kishi hazratti kutayotganini aytdi.

— Albatta boramiz. U tarafga yurganimizda esqa soling, — dedi xursand bo'lib Temur. — Amir Boboturkga ham bu haqda aytинг. Siz bo'imasangiz ul kishim eslatadilar.

Temur, Malik Iziddin Kurd qochib kirgan Van qo'regonini qamal qilishga buyruq berdi. Malik Iziddin qal'adan chiqib, taslim bo'idi-yu, qo'rg'on ichidagi

odamlari uning so'ziga kirmadi. Qal'ani kuch bilan olishta kirishilgan bir paytda Arzinjondan Tahurtan-ning elchisi shohona hadyalar va tuhfalar bilan yetib keldi. Elchi hokimning itoat bildirib, boyisunganligini ta'kidlab, Temurning etagini o'pdii.

— Biz amir Tahurtanni xayriox do'st deb bilamiz, deya elchiga murojaat etdi Temur. — So'z berganizdek Arzinjon viloyati ul kishining hukmida qolajak. Bizning sovg'a-salomlarimizni yetkazib, hukumat nishonimizni topshuring.

So'ngra ulug' Amirning ishorasi bilan amir Tahurtanga Temurga tegishli yurtlarning hokimlari kiyib yurdigan xillat berildi. Elchiga ham sarupolar kiygizildi. Qora Muhammad cherigini tog'ning yuksak qoya-lariga qadar quvib borgan lashkar katta o'jia bilan qaytdi. Mironshoh cherigi juda ko'p qiz va xotinlarni ham asir qilib olib kelganligi xabari yetganda Temurning achchig'i ichiqdi.

— Chaqiring amirzodani, huzurimgal — baland ovoz-da eshik og'asiga buyurdi.

Rangi-quti o'chgan amirzoda qimtinibgina kelib, otasinining peshini o'pdi.

— Siz qay zamondan beri xotun jallobi bo'lib qoldin-giz amirzodam, — qahrimi bosib so'radi Temur-o'g'lidan.

— Qo'yu sigir, otu tuyasini o'jia qilib olibsiz. Buni tushunsa bo'lar! So'zimizga qulq solib, elchimizga rizolik bildirganda ignasiga ham tegmas edik. Biroq siz, biz turk qavmida hech qachon kechirilmas bir gunoh-ga qo'l uribisz! Nечун одамларинг, erkak kishilar ning onasi, qizi, singlisi va tani mahrami sha'niga tajovuz qiliishga yo'l qo'yib berdingiz! Bilib qo'yingki, ular olmoq payida bo'ladijar va ular haqdirlar! Qasos bu gunohingizni hech qachon afv etmaydilar! Qasos — Kechiring, padari buzrukvor! — dedi ovozi tovlanib amirzoda Mironshoh. — Bul kabi xatolik boshqa takror-lanmaydi!

— Kishi avrotini haqorat etgandan ko'ra uning boshi ni olgan ma'qul! Nечун буни anglamaganingga aq-

bovar qilmaydi! Erkak kishining axloqi va zakovati ayoq qavmiga hurmati hamda munosabati ilia belgilidur. Men sen bu narsalarni bilasan deb o'ylabman. Xotin xalajlarni hoziroq qaytarib, makonlariga yubor! Senga ruhsat! – asabiylashgan ulug' Amir amirzodani seni rashga o'tdi.

Amirzoda xayoli qochgancha tisarilib, chodildan chiqib ketdi. Temur tahorat olmoq va peshin namozini o'qimoq uchun chodir yoniadagi ko'chma masjid tonon yurdi. Uch yuz chog'li kishi sig'adigan ko'chma masjid ulug' Amir qo'shi bilan birga yurar edi. Shayxlar ulamo fuzalolar, din arboblari bilan birga ibodat qilganiida uning qalbi huzur topardi. O'g'llari, nabiralar, qarindosh urug'lari va yaqin muozimlarini yoniga olib har bir jang oldidan ibodat qilish, zafar fotihasini o'qish e'tiqodga aylanib qolgan edi. Qanchalik charchagan bo'lmasun saharda turib, bomdod namozini o'qir, ko'pincha tunlari turib, uzoq muddat ibodat qilar, askarlar uning bu mustahkam e'tiqodidan ruhanar, kuch-quvvat olardi. So'nqroq ulug' Amir Alouddin al-Buxoriyni xos shayx o'laroq doimo yonida bo'lmog'ini so'radi. Abdujabbor an-No'moniy esa uning ibodatlarida imomlik qilar, suhabatdosh va tarjimon sifatida birga yurar edi. Tabiatan doimo og'ir va mashhaqqatlari ishlarni uddi lab o'rgangan Temur yumushlar kamayib, lashkar be-korchilikdan turli tarafga o'rmalay boshlaganini sezsa, darhol ularni kanal qazish, yer haydash yoki kattakon qurilishlarga ko'mak berish kabi ishlarga buyurardi. Uning uch yilga moljallangan safar rejasining uch dan biri uddalangan, eng so'ngisisi, hal qiluvchi fath oldinda edi. Xayolini bir narsa, – boloqdan chiqqan bit, Toxtamishning o'rmalab, muqaddas Samarcandga ot qo'yishi bezovta etar edi. Keyingi paytda u bilan to'qnashuvning muqarrarligiga ishonch hosil qilla boshladi. Hisob-kitob endi shunga ko'ra bo'ladi. Biroq bu rejan ni Boboturk bilan Turkashdan boshqa hech kim bilmaydi. Siyosat nuqtayi nazaridan jamoa oldida Temur hamon Toxtamishni humrat ilia tilga olar, ulug'lab

gapirar edi. U bu so'zlarning juda qisqa muddatda Jo'chi xoniga yetib borishini yaxshi biliardı.

So'nggi ikki manzil reja bo'yicha Isfahon va Sheroz bo'lishi kerak edi. O'rdu Van qal'asini zabit etgach, Urmiya ko'lining g'arbidagi Salmos shahrini bosib o'tdi. Temur Kurdiston viloyatini Malik Iziddin Sheroziyga topshirib, uning ko'hglini ko'tarmoq uchun hadyalar taqdim etdi. Xuddi shu daqiqada Urmiya turklarining hokimi Dizak boshkenti Marog'adan chiqib kelib, ulug' Xoqoning mulozamatiga musharraf bo'idi va poytaxtiga taklif etdi. Mulozimlik izhor etdi va Temurning lutfu karamidan bahramand bo'idi. Urmiya viloyatini qaytarib bergen Temur unga sohibjamol bir kanizak ham hadya etdi. Bu izzat-hurmatdan mammun bo'lgan hokim tiz cho'kib, Temur turgan yerni o'pdı.

Turon o'rduси Marog'adan Nilonga o'tib, biroz yana o'zini tartibga keltirgan bo'ldi. Shu yerda Temur Akram munshiyini chaqirtirib, Sheroz volisi, marhum Shoh Shujoning o'lumi oldidan Temurga yozgan maktubini topib keltirishni so'radi. Bosh munshiy maktubni yonda olib yurgan ekan.

– Qani o'qingchi? – dedi Temur Akram munshiyiga. Bosh bitikchi tomog'ini qirib qo'yib xatni o'qimoqqa tutindi.

– «Oliy hazrat, g'ardunbastat, mamlakatpanoh, ma'adat shi'or, makramat, osor, navin, buzurgi komkor, i'tizodi salotini gardun, iqtidori a'dali akobiri zamunu zamon, almnur bi anzori inoyat, al-malikuddayon, qutbul Haqq vad-Dunyo vad-Din, amir Teymur Guragon, xallada Allah mulqhu va sultonhu Haqqu jalla va illo. Ul yagona zamonga dini dunyo maqosidin billo madorij va murodot va aqso marotibi maromatga yetkurgay, bi-minnati qadim va tuluhum amim.

... Hazrat Sohibqironning umriga baqo bo'lsun. Emdi ul hazrat bila sidqu muhabbat bor jihatidin vojib ko'rib, farzandi dibandni-Zaynalobiddinni senga topshurdim. Va o'zga o'g'onlolar yosh tururlar va ag'oинни siperish qilmoq hojati yo'q turur, chi haqiqat bila ul hazrathning

lutf va karamini siylabmen. Ul hazratning lutfidin nechuk loyiq turur, qilg'uchi turur va ahvollaridin xabar dor bo'lg'aylar va mazmun inna husnulahdu minaiymani bajoy kelturib, bularni barchani o'ziga maxsus qilib, shavqat va marhamat ko'rankalarini bular ustida solib andoq qilsuntarkim, ulug'-kichik birlik va hanjixatlik qaror topsuni!»

— Inimiz Zaynalobidina quyidagi matnni yozli jo'nating. — dedi Temur munshiyyga maktubni aylti yozdirar ekan. «Marhum otang Shoh Shuj'o bizga nisbatan do'stlik maqomida turgan edi. Sen ham bizning huzurimizga kelishiň kerak. Toki, biz u viloyatti qaytadan senga muqarrar qilib, shunday qaytarib beraylikki, bu sening sarafrozligingga sabab bo'lg'ay».

Biroq hadeganda Zaynalobiddindan javob kelaverdi. U amakisi, Ajam Iroqining hokimi Shoh Mansur huzuriga qo'shin bilan jo'nadi. Shoh mansur Zaynulobiddinning xuddi shunday, oxiri bir kun itning keyingi oyog'i bolib huzuriga bosh egib kelishini kutilinga qimmatga tushdi. Shoh Mansur uning lashkarini qo'shingga qo'shib oldi-da, o'zini zindonband etdi. Bu xabar ko'p o'tmay Xoqonga ham yetdi.

— Eshakka oltin tag'ora yem bergenlariدا eshak ham, tag'ora ham yig'igan ekan! — dedi Temur qahrigelganidan ovozi biroz bo'g'iqroq chiqarkan, qarsidisida tik turgan amirzoda Mironshoh, amir Boboturk va sohibxabariga bir-bir nigoh tashlar ekan. — Eshak, men eshak bo'samu, nechun oltin tag'ora yem beradilar deb, tag'ora esa men oltin bo'samu, nechun menda eshakka yem beradilar deb yig'igan ekan. Biž u betavfiqa Sheroz hokimligini xattab beraylik desingu, ko'rnamaklik qilsa? Mayli, unga hech bir e'tirozimiz yo'q. Endi hokimlikni tushida ham ko'maydi. Biroq yigitlarimizga aytilib qo'yinglar, unga va umuman Shoh Shuj'oning avlod-ajdodiga tegmasintar. Agar Zaynalobiddin Shoh Mansurning qo'lidan om'on chiqsa ungu va yaqinlariga yashashiغا yetarli darajada moyana va

maosh tayinlab, o'z holiga qo'yinsinlar. Men uning ota-siga so'z bergenman. Arvohi chirqilmasin. Endi esa Fors orqali Isfahonga yuramiz. Isfahonning sayyidilar, ulug' ulamolari bizni tezeroq bu shaharda ham adolatlari, shariat qonun-qoidalari asosida bir hokimiyat o'matishimizni so'rab bot-bot rijo etmoqdalar. Va'dalariga ko'ra ular bizni shahar yadqinda kutib oladilar. Ularning bu so'ziga ishonsak bo'ladimi, muhtaram Turkashbek?

— Ma'lumotlarimizga qaraqanda xabar ishonchli, — javob qildi Alp Turkash.

Ular chodirdan chiqdilar. Jilovdorlar tulporlarni tutib turishar, kuzzining yoqimli quyoshi kishi taniga orom berib, xayolini olis-olislargaga olib qochadigan havodon mast g'olib lashkar fors yaylovlariда ketib borar edi.

Temurdan bir-ikki qadam orqada ketayotgan amirzoda Mironshoh, Boboturk va Turkashdan sado chiqmas, ahyon-ahyonda bir-birlariga ma'noli qarab qo'yishardi.

Bu voqealar turklarning tovushqon yiliда, melodyning uch yuz sakson yettingchi yilining kuz oylarida kechar edi.

Temur beixtiyor otini sekiniatladi. Bu yonimga yetib kelinglar degan ma'noni anglatardi.

— O'g'ruqni Tehron yaqinidagi Sariqamish manzilda qoldiramiz. Yonida Qu'm ko'li bor. Istirohatbop joylar. Biz kelgunga qadar qo'sh shu yerda turajak. O'g'ruqning muhofizoti uchun amirzodani qoldiramiz. Amir Hoji Sayfiuddin va Shayx Ali Bahodirbeklar lashkarli ila qoladilar. Biz esa Fors sari yurmoqda davom etamiz.

Temur o'g'ruq bilan Sariqamishda bir kecha tunadi. Xonimlari bilan suhablashib, tegishli ko'rsatmalar berdi. Sahar turib bomdon namozini o'qidi-da, bir piyola anor suvini ichib, oti tomon yurdi.

— Nonushtani yo'lda qilamiz, — dedi dasturxonchiga.

Ko'p o'tmay Tohir tarixchi hozir bo'idi.

– Menga anglatingchi Tohirbek, butun Fors viloyati

ni Shoh Shuj'oning avlod-ajdodlari egallab olgan deyishadi. Hatto qishloq oqsoqollari ham xeshu aqrabolari emish. Bu gaplar rostmi? – so'radi Temur tarixchidan.

– Haq gap, – javob qildi Tohir tarixchi biroz o'ylanib turgach.

– Isfahonda kim dorug'a?

– Zaynalobiddinning tog'asi Sayyid Muzaffar Koshiy. Yazda Shoh Shuj'oning akasining o'g'i Yahyo hokimdir. U Shohga kuyov hamdur. Kemon hokimi Abu Isoq esa Shoh Shuj'oga uka bo'ldi. Barcha katta shaharlar shularning ixtiyoridur hazrat.

– Bular ham Zaynalobiddin izidan boradilarni yokitotat uzangisidan oyoqlarini olmaydilarmi? Bu xususda ne fikr dasiz?

– Menimcha bular Shoh Shuj'oning o'g'i qilgan noshukurlik sahrosi tomon qadam otmasalar kerak deb o'yayman, – javob qildi doimo dilidagini ochiq so'yaydigan Tohir tarixchi.

– Men ham shu fikrdaman, – uning so'zini ma'qulladi Temur. – Biroq bu forslar tabiatan fikri va qarorini tez o'zgartiruvchi qavm sanaladi. Buni o'zları goh duxtarak, goh pisarak deydlilar. Biz Isfahondan qaytgunga qadar qarorlari o'zgarib qolmasa deyman.

– Men ham shul o'ydamen. Bularni yuzda-yuz itoatda saqlamoq uchun eng sarkashi Shoh Mansurni yo'iga solmoq kerak. Uni yaratgandan qo'rqmagan, yaralgandan hayiqmas kimsa deydlilar.

– To'g'ri aytasiz. Eshitjan bo'lsangiz u men bilan yakkama-yakka savashmoq istagida yurgan emish, Rizolik bildirdim.

– Avval sizning lashkarboshilaringiz yokim amirlaringizdan biri ila savashsun. So'ngra bir gap bo'lar, – dedi bu gapdan hayron bo'lib tarixchi.

– Biroq so'ngra maktub yozib, so'zidan qaytgani aytilib, kechirim so'radi. Shunchaki dushman ko'zi uchun siyosat qilmoqda. Bizga nisbatan yuragi toza emas. Ertami-kechmi biz bilan savashadi. Sulo-

lasini bezovta qilmaslik maqsadida imkon qadar bu to'qnashuvni orqaga surmog'imiz kerak.

– Ma'qul gap, – quvvatladi Tohirbek.

Isfahon yaqiniga yetgan Temur lydku Temurni shahar yaqinidagi Tabarak qal'asini zabit etmoq uchun jo'natdi. Isfahonning oqsoqollari anglashilganidek Xoja Rukniddin Said boschchiligidagi shahar xalqining mulku joniga omonlik tilab, ulug' Amir huzuriga tashrif buyurdilar.

Temur bu hummatli kishilarning obro'-e'tiborini joyiga qo'yib, ko'ngillarini ko'tardi va tuhfalar berdi. Istanagan hududlardan suyurg'ollar olishlarini qayd etdi. Ulamolar shahar ahli «taqa bahosi» deya atalguvchi moli omonni to'lashga, ulug' Amirga itoatda muqim turishga qaror berganini ta'kidladilar. Farmonga binoan Nur Mulk Barlos, Muhammad Sultonshoh va Bayon Temur bu molni to'plash, shuningdek mahallalarda hokimiyatni qabul qilmoq uchun shaharga jo'nadilar. Biroq yarim kechaga yaqin yetib kelgan xabardan barcha hayratdan qotib qoldi. Bunday katta xoinlik Temur ottiz to'rt yoshida, bundan o'n sakkiz yili burun Balxda bo'lib o'tgan qurultoya Buyuk Turon Amiri deb e'lon qilingan kundan boshlab sodir bo'lgan edi. O'sha qurultoyda piru komil Mir Sayyid Baraka unga oltin belbog', yarqiragan qilich hamda dur ko'zli siring'a taqdim etgan edi. Temurga qadim turk urf-odatiga ko'ra buyuk va qudratli hukmdorlik ramzi belgisi o'laroq qo'yning kuragini bergen edi. So'ngra nog'oralar gumbur-gumbiri ostida sayyidlar va oqsoqollar uni «Allahu akbar!» xitobi bilan uch marta boshlari uzra oq kigizza o'tkazib ko'targan edilar. Tantamalardan so'ng xalifalar odatiga ko'ra sayyidlar, lashkarboshilar, ulus o'tog'olari Temurni Sohibqironlik martabasiga riroyat etgan holda biz sayyidlar, jangchilar, ulus Temurni Sohibqironlik martabasi ga sayladik. Har sohada unga tobe ekanligimiz haqida ont ichdik. Qasamyodlarimizdan qaytadigan bo'isak, Olloh marhamatidan benasib qolaylik. Shayton vas-

vasasiga duchor bo'laylik!» deya qasam ichgan edi-

lar o'shanda unga sadoqat bildirgan kishilar.

Temur ham yurtini birlashtirib, tinchlik ornatish, uni yovlarga oyoq osti qildirmaslik, zolimlar zulmini tiylb, mazlumlar haq-huquqlarini ta'min etmoqqa qasam ichgan edi. Uning «menkim Oloohning quibandas shuni ma'lum qilamankim...» deya boshilanguvchi yoriqlikleri Turon yurtini darvesh chaponidagi yamoq kabi bo'laklab olgan begu ulus boshliqlariga uchqur suvoriyarda yetib borar va ularning Temur taklifariغا rozi bo'imqdan boshqa ilojlari qolmas edi.

Temur suvoriyari davlat madhiyasiga aylanib qolgan, O'tkun Tegin baxshi xalq so'zini biroz ishab ohangga solgan «Oollohyor» termasini aytib kirgan yurt odamlari ko'tarinki ruh ila bu qo'shiqqa jo'r bo'lar edilar.

Tangri bizni qo'llagay,

Oollohyor! Oollohyor!

Haq yo'llarga yo'llagay,

Oollohyor! Oollohyor!

...Temurning lashkaru raiyatiga nisbatan hech kim isfahoniqliklar qilgan ishni qilмаган edi. Ulug' Amirga bu narsa shunday qattiq ta'sir etdiki, qahru gazabdan u anchagacha o'ziga kelolmadi. Ko'zları qonga to'igan, hayqirig'i momoqaldoq kabi dahshatlil edi.

— Qancha odamimizni shahid etdilar? — deya so'radi Temur oldiga bir amallab qochib kelgan Nur Mulk Bar losdan past ovozda.

— Uch ming lila besh ming orasida, hazzrat. Biz hech kishiga qilich ko'targanimiz yokim boshqa bir quroq o'qtalganimiz yo'q. Kechasi reja asosida bu qotilikni amalga oshirdilar,— deya voqeа tafsilotini so'ylar ed lashkarboshi. — Bu ishlearning boshida turgan bosh fitnachi Ali Ko'chapo degan kishidur. Kimsanining so'ziga quloq solmaydur. Bayon Temur va Muhammad Xitoyi Bahodir ham shahid bo'dilar.

— Demak bul shaharbuzg'unchilarining xunito'libdur. Ajal va baloni sotib olmoqni istagan bo'lsalar bizza ne

ayb? Shaharni qo'shining bosqiniga qo'yib bering.

Lashkar boshliqlariga so'ylangki, Kocha Mavoli Tarki hamda Xoja Imomiddin Boiz kabi ulug' tarning mahalla va jamoalariga tegmasunlar. Har ne bo'lsa Alloohning irodasidadur!

Isfahoning muammosi hal etilgach, Temur Sariq Bug'aning o'g'li Amir Hojibek bilan Tumanshohni Isfahonni tiklash va bu yerda hayotni izga solish uchun qoldirib, Sherozga qarab yurdi.

Fors viloyatini batamom sultanat tasarrufiga kiritgan Temur sag'risi oq marmardek yaitiragan Okbulutning jilovini ota yurt tomon burgan edi. O'tkun Tegin baxshining bir she'ridan tsirtsanib o'zi to'qigan, biroq hech kimga aytmagan she'rinini pichirlab borardi.

Allohdan uzoq kimsa, Ayt nechun bemillatsan,

Elu ulus neligin,

Anglamas bir kulfatsan.

Kuning uchun kul tashlab,

Nursiz yashab o'tarsan.

Ilohiy tuyg'ulardan,

Sen mosuvo ketarsan.

Bu dunyoga keldingu,

Ke'mading befoydadir.

Sening baxting bir qorming,

To'ygan makon, joydadur.

Vatansiz1 bir kimsadan,

Vatanli deva afzal.

Sharafsiz bir ulusdan

Nomli qir, teva afzal.

Vaqteda dastlabki hikoyalari va qissalarini  
ishchim qilishni tushuvchi  
**Baxtiyor NAZAROV**

ugurligida, "Tariixiy haqiqat yog'dulari  
o'zlikni badiiy anglash  
(Song's o'z)

## I

Romanni o'qib chiqqan kitobxon unda tasvirlangan voqealari, qaramonlar mohiyati xususida o'yga beriliish, ularni qalbga singdirish barobaridagi o'zini bu badiy dunyoga deyarli asir qilib qo'ygan yozuvchi haqida ham muayyan ma'lumotga ega bo'lishni istashi, tabiiyidir.

Nurali Qobulni, aslida, kitobxonga tanitishning kuchli zarurati yo'q. O'tgan asrning, taxminan sakson-inchi yillari avvalidan adabiy jarayonni kuzatib kelayotganlar uni yaxshisi biladilar. Asarlarini kitob rastalarigina emas, kutubxonalardan ham topish qiyin bo'lgan vaqt-larni yaxshisi eslaydilar. Ular adib hayoti va ijodi haqidagi atroficha ma'lumotga ega ekani shubhasisiz.

Bugun kitobxonning yangi avlodiy yetishib chiqdi. Ularning Nurali Qobul haqidagi ma'lumotlari o'zları istagan darajada emasdir balki. Shuni inobatga olib, adib haqida qisqagina to'xtalib o'tsak, o'rinali bo'ladi deb o'layman.

Nurali Qobulning bundan ottiz-o'ttiz besh yil avval chop etilgan dastlabki hikoyalari va qissalarivoq klibxon, tanqidchi va taniqli adiblarning birdek e'tiborini tortdi. Uning dastlabki asarlarini Matyoqub Qo'shijonov, Ozod Sparafiddinov kabi munaqqidlar, Odil Yoqubov va Rahmat Fayziy kabi yozuvchilar yuqori baholadilar. Yigirmabesh yosh ustidagi yozuvchi O'zbekistondan tashqari, Ittifoq miyosida e'tiborga tusha boshladi. Moskvada deyarli uch yarim million nusxada chop etilgan "Юность" jurnalni istedodi tan olinayotgan yosh

shoir, adiblarning eng yuksak minbari edi. Jurnal tarixida kam uchragan hodisa— bir yoldayoq (1981) uning birinchisi va o'n ikkinchi sonida Nurali Qobulning "Tubsiz osmon" va "Salom tog'lar" nomli ikki qissasi bosilib chiqdi. Faqat "Tubsiz osmon" qissasi adading o'ziyoq jurnal va kitob holda o'n million nusxadan oshib ketdi. Hatto, hozirgacha adabiyotimizda bir asar qisqa muddatda keng tarqalishi jihatididan kam uchraydigan bu hodisa yosh o'zbek adibigina emas, umuman, o'sha davr o'zbek adabiyotining ham jiddiy yutugi edi. "Юность"dek jurnalda asar chiqishining o'zi bo'imag'an albatta. Tanlov chig'irig'ini-kuqoyaverasiz. "Tubsiz osmon"ning chop ettilishini qator mashhur adib va munaoqidlar ma'qilladilar, "Небо твоего детства" qissasi bilan biz adabiyotimiz uchun yangi bir yozuvchini kasht etdik. Bu qissa bilan adabiyotimizga poydevori mustahkam, nurli yosh yozuvchi kirib kelayotganini ko'rmoqdaman" deb yozgan edi Boris Polevoy. "Yozuvchi tasviridagi hayotga o'ktam va tiniq munosabatga qoyil qoldim, — deb yozgandi Andrey Dementyev. — Haqiqatan ham bu asar bilan biz Ittifoq kitobxoniga talantli bir adibni kasht etmoqdamiz". 1981-yili "Небо твоего детства" qissasi Ittifoq bo'yicha yilning eng yaxshi qissasi deb topilib, jurnalning birinchi darajali mukofoti bilan taqdirlandi. Hozir bu mukofot B.Polevoy nomi bilan ataladi. Ko'p o'tmay mualifning rus tilida chop etilgan "Oyqor" qissasiga Butunittifoq M.Gorkiy mukofoti beriladi.

Bu voqealar va yuqoridaagi fikrlar aytilganiga ham ottiz yildan oshdi. Nurali Qobul o'tgan vaqt mobaynida "Yangi qor yoqqan kun", "Sangzor", "Tog'begi", "Bug'doy pishig'iga yetmaganlar", "Men hammani sevaman" qissalarini, o'lab hikoyalari, publisistik ottirk maqolalari bilan adabiyotimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shdil. "Unutilgan sohilari" asari bilan roman janrida kuchini sinab ko'rdi. Asar rus va turk tillarida ko'p nusxada chop etildi. Nobel mukofoti sohibi Gabril Garsia Markes (Anvar Jo'rboev bilan birgalikda)

qalamiga mansub "Yolg'izlikning yuz yili", Chingiz Aytmatovning "Bolalik" asarlarini o'zbek tiliga o'girdi.

Turkologlarning an'anavly xalqaro ilmiy anjumanlari dan biri yanglishmasam, 1988-yil Qirg'iziston poytaxtida bo'lib o'tdi. Anjumanda Chingiz Aytmatovning teren va chuqur bir mafuzasini ittingladik. O'sha vaqtda men ga o'xshab o'z mamlakati akademiyasining til va adabiyot instituti rahbari, tengqur do'stim Abdug'ani Erkaboyevdan yurak yutib, iloji bo'lsa Chingiz To'raqulovich bilan tanishitirish va uchrashtirishni litmos qildim.

Chingiz To'raqulovich, do'stim va men uchovimiz dovon etagida qisqa muddatli bir davra qurdik. Uluq'adib salobati bosdimi, har qalay mo'jalib qo'yan savollari doirasida tuzuk gaplasholmadim. Hozirgi o'zbek adabiyoti, yosh yozuvchilarimiz haqidagi fikrlarini so'raganimda Chingiz og'a Odil aka, Pirinqlaka, Abdulla Oripov haqida iliq fikrlar aytgani yodimda. Shukrullo og'a yaxshi yuribdilarmi deya so'radi. Yoshyozadi dedi. Юноштъда босилган qissalarini samimiy bir ruhda esladiyu, asarlar nomini xotirlay olmadi. O'shanda ulug' yozuvuchi Nurali ijodiga nisbat bergan "toza" so'zida "tinig" mahosini ifodaladimi, "yangi" degan fikrni aytmoqchi bo'ldimi, bilolmay qolganimni eslab, hikoya qilib yuraman.

qilich" nomli salkam besh yuz sahifali romani 2011-yilda chop etilganini, qo'lingizdag'i ushbu asar esa, uning bevosita davomi va uzbviy qismi ekanini, bu boradagi adib mahoratini aniqroq tasavvur etish va ulug' amir haqida yozilayotgan mahobatlasi asar to'grisida yaxshi tasavvurga ega bo'lish uchun ana shu birinchisi kitobni ham o'qish zarurligini eslatish ortiqcha bo'imas deb o'playman.

Sinchkov o'quvchida awvalgi kitobdan keyingi – buni bir yil ichidayoq yozilib, chop etilibdi-da degan mulhaza paydo bolishi mumkinligini e'tiborga olib va unga oydinlik kiritish maqsadida ko'p jiidlik bu epik asar Nurali Qobulning keyingi yigirma-yigirma besh yil mobaynida izlanishlari, mashaqqtli ijodiy mehnati sarmasi ekanligini ta'kidlash joizdir.

Nurali Qobulning mazkur "Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt" romanidan awvalgi "Buyuk turon amiri"ni o'qigan adabiyot ixlosmandlari bu navbatdagi asarda birinchisi romandan tanish bo'lib qolgan qahramonlar bilan yana qaytadan uchrashtadilar, albatta. Oldingi asar bilan tanishib ulgurmaganlar esa, buni bilib qo'yanlari ma'qul bo'ladi, deb o'playman. Bular Amir Sohibqironning o'zidan tashqari amir Boboturk, amir Sayfuddin, Saroymulkxonim, Alp Turkash, O'tkun Temur baxshi, Tohir tarixchi, To'xtamishxon va boshqalar. Avvalgi roman Amir Temur tug'ilib, voyaga yetgan tarixiy muhit aks ettirilishidan boshlab, uning shaxs va inson sifatida kamol topishi, mamlakatni mo'g'ullar asosatidan xalos etishdan tortib, Buyuk imperiyaga asos solish yo'llidagi azob-uqubatlar, bu boradagi jangu jadallar ichki-tashqi intrigalar, Temurning inson va Uluq' amir sifatida namoyon bo'uvchi fe'l-atvori va nihoyat, To'xtamish o'g'lonning xon ko'tariilishida Amir Temurning tutgan o'mini tasvirlash bilan yakun topgan edi.

Birinchisi romandagi markaziy g'oya – 1370-yilda Balxa Temurning eski turk xoqonlari an'anasisiga ko'ra oq kigizga o'tqazilib, Buyuk Turon Amiri e'lon etilishi,

shu yuksak maqomga olib kelgan qudrat uning faqat qilichi, harbiy kuchigina emas, balki eng avalo, aq zakovat ekanini, u murosayumadora, sulhu bitimga joy qolmagandagina qilich qo'llamoqqa majbur bo'lganini ko'stishidan iborat. Buni ulug' bobomiz o'zining tu-zuklarida "o'nda tolqiz ishni yaxshi so'z, sulhu yaroashiga chorlash bilan, bunga imkon qolmaganida esa bir foizini qilich kuchi ila bitirdim" deya qayd etadi.

Demoqchimanki, hozirgina o'qib tugatganining ushbu romandagi Amir Temur siymosi va quadratini, ularning shakllanish va oyoqqa turish jarayonlarini yanada aniqroq va mukammalroq bilish uchun, "Buyuk turon amiri"ni ham albatta o'qib chiqishimiz zarur bo'lad. Mutolaa faqat ushbu romandan boshlansa, amir Temur dahosi, qudrati, saltanati tarix sahnasiغا go'yo (ushbu asardan boshlangandek) yetilgan holda yuzaga kelgandek taassurot qoldirishi mumkin. "Buyuk Turon amiri"da esa, biz buyuk bobomiz dahosi va satanating oyoqqa turish davri, shaxsiy va ijtimoiy qinchiliklar, dastlabki sotqinlik va sadoqatarning teran badiiy talqinlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lami. O'zbek adabiyotida sohibqiron haqida yaratilgan asarlar oz emasligini bilamiz. Ular ichida ayniqsa Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" publisitik asari, Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi, M. Alining "Ulug' saltana" trioliyasi sizga ma'lum.

Amir Temur haqidagi bu qadar rang-barang palitrali haqqoni asarlarni o'qish, adiblarimizning rang-barang uslub va mahorattarini kuzatish, hamda o'ziga xos bu badiiy dunyolar haqida mustaqil mushohhada yuritish imkoniyati facat Mustaqilligimiz tufayligina paydo bo'ldi. Zero, Amir Temur haqidagi yangi badiiy asarlarimizning bosh maqsadi ham moziyni faqat ko'klarga ko'tarishgina emas, tariximiz va ota-bobolarimizni xolis va haqqoniy badiiy tasvirlash orqali Mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, istiqolimizni yanada yuksaltrishdan iboratdir.

"Yetti iqlim xoqoni" romanı mohiyat e'tibori bilan, tariximizning bugungi boqliy nurlari va o'zlikni yanada chuqurroq, teranroq anglash haqidagi ana shunday asadir.

### III

Tajribali kitobxon, asar mohiyatini uning nomidanoq payqay oladi. "Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich"da Ulug' Temunning Buyuk amir darajasiga yetmog'i jarayonlaridagi toblanish qiyofasi, aqlning uyg'onish omillari va qilich bilan mustahkamlanish sababları tasvirlangan bo'lsa, "Etti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt"da, endi, Buyuk amirning yetti iqlim xoqoni sifatida tan olinishidagi evrilishlar, chetlab o'tilishi mumkin bo'lmagan turli miqyosdagи yurishlarining ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlari va ularning qonuniy asosari, insoniyat tamadduniga faol tasir etgan protsesslarda yetila borgan Sohibqiron dunyoqarashi va falsafasi, bu qiyofadagi milliy diniy, ijtimoiy va basharliy ruh, afsuski na o'tmish va na bugun manaman degan davlatlarni boshqargan va boshqarayotganlarda ko'rinnovchi - jahon tarixida kamdan-kam uchraydigian ahd va taxt birligi, shularni badiiy idrok etish natijasida hozirgi kitobxon tomonidan o'zlikni anglash muammolari badiiy aks ettilradi.

Amir Temur haqida ko'p yozilmoqda, kelgusida shubhasiz yana yoziladi. "Etti iqlim xoqoni" muallifining bu boroda o'ziga yozganlardan farqlanib turuvchi xususiyattaridan biri shundaki, u Temur bilan bog'i qtarixiy voqealar hamda fe'l-atvoridagi shu vaqtgacha takror-takror e'tirof etilgan ma'lumotlarga yana ahamiyat berishdan qochishga intildi. Ularga munosabat bildirish yoki tasvirga tortish zarurati, ehtiyoji tugh'liganda esa, bu tarixiy nuqtalarning yangi-yangi falsafiy, hayotiy qirralarini ochishga e'tibor qaratadi. Umuman yoritilayotgan masalalar yoxud Amir Temur, Toxtamish, Idiku Temur, Erto'grul Turon, Malik Buqrot

kabi qahramonlar obraziga mustaqil nuqtayi nazar va badiiy munosabatda bo'lish, o'zining tarixga badiiy qarashlari orqali imkonni boricha hozirgi kun muammlari uchun ham badiiy xulosalar chiqarishga intilish romanning yetakchi xususiyatidir.

Romanda har biri mustaqil o'rinni egallagan Jaku Barlos, Roboturk, Turkash, Mironshoh, Otkun Tegin baxshi singari o'nlab tarixiy va adib taxayuli asosidagi qahramonlarga duch kelamiz.

Ma'lumki, roman janrinning mumtoz xususiyatlaridan biri unda bosh va yetakchi qator qahramonlar hayot yo'li, bu yo'li va qismatning muhim bosqichlari, ularning barchasini mushtarak uyg'unlikda tutib turuvchi tarix va zamon obazzi gavdalantiriladi.

"Etti iqilm xoqoni" mualifi bu an'anani takrorlamaydi, unga ijodiy yondashadi va roman janri imkoniyatlarini boyitish yo'llarini izlaydi. Qahramonlarning hayot yo'li va qismatini tasvirlash yo'idangina bormaydi. Aksar qahramonlar bosh goya va bosh qahramon xarakterini ochishga boy'sundirilgani holda, ko'pincha fragmentlar holatlarda tasvirlandi. Adib, hatto, bosh qahramonning ham hayot yo'lini tasvirlashdan o'zini tiyadi. Uning obazzi ham, asosan, xarakterning eng muhim qirralarini ochuvchi aspektlarda yoritib boriladi. Amir Temur uzoq vaqt, yaqin-yaqingacha, go'yo'zga hududlarini zabit etmasa turolmaydigan, boylikka to'ymaydigan, o'zga hukmdorlarni qaqshatmasa rohat qilolmaydigan fotih sifatida ta'riflab kelindi. Bularni tamomila inkor etuvchi tarixiy manbalarning o'zi Amir Temurning asl qiyofasi qanday bo'lganini ko'rsatishda ojizlik qiladi. Uning haqiqiy qiyofasi qanday bo'lganini ana shu tarixiy manbalarga suyangan holda faqat badiiy adabiyotgina ko'rsata oladi. Badiiylik – tasavvur-dagi jon degani. Shunday ekan, badiiy adabiyot tarixiy qahramonga jon bag'ishlab, uni zamonaliv odamlar ichiga jonli odamdek olib kiradi. Shu ma'noda tarix yetarilicha ishontira olmagan haqiqatni badiiy adabiyyot iqlmo eta oladi. Nurali Qobuuning "Etti iqilm xoqoni" romanina shunday fazillari bilan qimmatildir.

Adibning tarixiy haqiqatga izchil asoslangan badiiy talqinidagi Amir Temur siyosiga munosabat masalasida uzoq asrlar mobaynida shakllangan stereotip tamoman buziladi. Yeru osmon Ollohga tegishlidir, deydi asardagi lavhalardan birida Ulug' Amir "Bu davlat, bu boylik va hududlar barchamizdan qolajak. Hech kim uni nariji dunyoga olib ketmaydi. Jahonni zabit etgan Iskandar Zulqarnay ham bo'sh qo'l bilan ketgan" Amir Temurning bu fikrlari shunchaki deklaratsiya bo'limay, uning hayoti va a'molidan kelib chiqqanini ko'rsatish romandaagi badiiy kontseptsiyaning markaziy nuqtalaridan birini tashkil etadi.

Asarda kechuvchi aksar voqeqlik va bosh qahramon xatti-harakati tasviridagi hayotiylik va haqqoniylig shu qadar aniq va tiniqliki, Temur yurishlari va fe'l-atvorida gi jarayonlar (o'zga mamlakatlarda tinchlik, adolat va islomni mustahkamlash uchun ko'p hollarda shu yurt xalqi va kayvonilarining da'vati bilan yurish, Turonga hujum qilishga hozirlik ko'rayotgan muxolif niyatini payqab, avvalroq ottanish, saltanat birligini parchalashga harakat qilayotganlarga munosib harbiy chora ko'rish, muayyan yurishlar qilmasdan sukul saqlanishi tashabbusni berib qo'yish ekanligi va bu masalada orqaga chekinishga yo'li yo'q ekanligi, aksar yurishlar shu bois, noilojlik va majburlikdan iborat bo'lgani va boshqalar) mohiyati tarixiy qonuniyatdan kelib chiqqanligiga adib kitobxonni to'liq ishontira oladi.

Yozuvchi mahorati bois, tasvirlanayotgan ayrim hodisalar aynan tarixiy yoki shunga yaqin ekanini kitobxon deyarli unutib qo'yadi. Chunki yozuvchining mohir qalamni tasvirlanayotgan tarixiy haqiqatga jon kiritadi yoki boshqacha aytganda, aks etayotgan asos adib tahayulida tamoman qayta ishlaniib, badiiy tus oladi va yangi bir hayotiy haqiqatga aylanadi. Shu ma'noda Amir Temurdan boshqa qahramonlar obazzi hamda syujet liniyalarining qay biri tarixiy haqiqatu, qay biri badiiy to'qima ekanini ajratib olish oson kechmaydi. Bunday hol tarixiy haqiqatning badiiy haqiqat hujay-

ralari bilan to'ldirilishi tufayligina sodir bo'ladi, albatta. Tarixiy roman yozishdagi eng qiyin va ayni vaqtda, asar muvaffaqiyatini belgilovchi xossalar mana shu nuqtada kesishadi. Nurai Qobul mahorati ana shu xossalar kesishgan nuqtalarda ayon tortadi.

Amir Temurning yetti iqim xoqoni, Ullug' Amir, Sohibqiron va hokazzolgina emas, ayniqsa oddiy inson sifatidagi fazilatlari tasviri bu obrazga yanada hayotiylik va joniliik baxsh etadi. U adirda zira va kiyik o'ti terib yurgan, jayron bolasiga mehribonlik ko'rsatishi va hatto ko'ziga yosh kelishi, bog'iga ba'zan o'zi daraxt ekishi, kayfiyatga qarab, ularni parvathish qilishi, ovni yaxshi ko'rgani bilan bior bir jonivorga o'q uzmagani, bolalik va o'smirlik chog'laridagi do'stlari bilan uchrashuvda o'zini tutishi, tarang bir vaziyatda tog'asi Jaku Barlosga qo'pollik qilib, yaxshi gaplashmay, huzuridan chiqarib yuborgani uchun, fursati kelganda maxsus maktub orqali undan uzr so'rashi, qurtovani, kulchatoyni xush ko'rishni, tol tovoqda qurut ezilishini kuzatishi, abyxato va ba'zan, hatto sotqinlik qilganlarga muruvvat ko'rsatishi, padari buzrukvorini sog'inish manzaralari, Eron va Iroq fathidan so'ng Samarcandga olib ketilayotgan olim, shoir, naqqosh, me'mor, sozandalarga ko'rsatilgan hurmat va ijtifot, shu holatdagi so'z erkinligiga munosabat va boshqalar tasviridagi Amir Temur qiyofasi uni kitobxonaga xuddi o'ziga o'xshash bir oddiy insondek yaqinlashtirib qo'yadi.

Bunday holatlar tasvirida yozuvchi o'z qahramonining bugungi, zamonaviy qimmati va ahamiyatini ochishga alohida e'tibor berishini ta'kidlash o'rinilidir.

Xususan, Temurning ijodkorlarga, so'z erkinligi masalasiga munosabati uni hozirgi hayotimiz bilan yanada yaqinlashtirgandek bo'ladi.

ahamiyatini sezmasligi mumkin emas. Aslida, butun asar bo'ylab o'tuvchi bu ruhi roman g'oyaviy-badiiy strukturasidagi bir necha misol orqali ko'rsatishning o'zi kifoya qildi.

Amir Temur qiyofasini ichdan yorituvchi muntazam hushyorlik va ogohlilik, o'zini nihoyatda do'st hamda sadoqatli ko'satgani bilan, asida, cho'ntagidagi toshni qulay payt keldi deguncha ishga solishga tayyor ayrim hukmdorlarga nisbatan doimo sergaklik, g'anim yurish-turishi va oy-fikrini, rejalriga beparvo bo'imaslik, bosh qahramon tilidan aytiligan, yozuvchi dunyoqarashining bir uchini aks ettirib turuvchi: "oddiy bir e'tiborsizlik, ba'zan, hatto tarix g'ildiragini boshqa tomonga burib yuborishi mumkin", "Insonga qosh-qovog'iga qarab turadigan qui emas, do'st kerak", "Urushda qonuniyat kamdan-kam bo'ladi" qabiliyadagi nostandart mulohazalar, bosh obrazgina emas, umuman asarni bugung'i hayottimiz bilan tutashtrib turadi va zamonaviy ruhini kuchaytiradi.

Amir Temur saltanatiidagi iqtisodiy asoslarini, boshqaruvi tizimidagi o'ziga xosliklarni, shuningdek, ham harbiy, ham hokimiyat ierarxiyasidagi maosh bilan ta'minlash, bu yo'nalishdagi rag'battantirish va jalzolash, mansabga tayinlash, chunonchi, hatto, Temur farzandlari va qarindoshlariga biror bir lavozim berish, hamda suyurg'ol ajratishni mashvarat muhokamasi va qarori asosida hal etish va hokazolarni yoritishda yozuvchi bir tarafdan, olisdagi tarixiy muhit tasvirida haqqoniylikka erishishni nazarda tutadi, va ikkinchi tomondan, eng asosisysi, bu masalalar tasviri va badiytahlili zamirida asarning zamonaviy ruhini ifodalashni unutmaydi. Mana Amir Temurning o'z amaldorlari oldiga qo'yadigan talabi: "har bir aniru elboshi dastlab, elu yurt ahvoli yaxshilanishiga erishib, raiyathi rozi qilmoq'i short. Modomiki, uning rizqu ro'zi ana shu xalqning ustidadir". Sohibqironning ayrim amaldorlar xususida aytgan: "molu dunyoga mukkasidan ketib, bola-chaqasi, avlod-ajdodi bilan yurt mol-mulkiga

"Yetti iqim xoqoni"ni o'qigan kitobxon asarning tarixiy mohiyatidan tashqari, uning, ayniqsa, zamonaviy

mo'ri-malaxdek tarmashgan kaslarga bizning dargohimizda yer yo'q" singari fikrlar undagi hozirgi zamon uchun ham niyoyatda muhim bo'lgan elparvarlik, insonparvarlik, rostgo'ylik qiyofasini ochadi. Temurning axloq masalariga munosabatda ham aynan shunday yo'i tutishiga asarning qator manzaralarida shohid bo'lamiz.

Yozuvchining ba'zan sezilmas ravishda o'tib ketuvchi, tarixiy hujjat va manbalarda bo'imagan, lekin taxayul bilan badiiy haqidat darajasiga ko'tarib, Ulug'Amir fe'l-atvorida aniq mavjuddek tasvirlagan shunday nozik va nafis topilishlari borki, ular adibning, tasvirianayotgan qahramon qalbigina emas, umuman inson ruhiyatini chuquq bilishi, inson ruhiyatidagi tarixiy va zamonaviy tomirlar urishini nozik his etishini ko'ssatdi. Masalan, kichik bir detal, Amir Temur turli miqyosdagi muhorabalar olib borgan esa-da, ularning aksariyatiga majburan kirishganini yuqorida aytidik. U muxolif bilan urush olovi yoqlimasligiga oxirigun, so'nggi soniya va daqiqalargacha harakat qilgan, to'qnashuvning oldini olishga tirishgan. Ana shunday vaziyatlardan birida u: "Uchhqundan yong'in chiqib ketmasligi kerak!" degan iborani ishlatadiki, bu ibora Sohibqiron tabiatiga muxtasar ta'rif bo'la oladi. Amir Temur bu iborani aytgan-aytmagani haqida biror bitarixiy manbada aniq ma'lumot bormiyo'qmi shaxsan menga noma'lum. Harqalay Sohibqiron tili orqali ayttiling, zamonodoshlari va tengqurлari qatori dekabristlarning "uchhqundan alangga paydo bo'ladii" degan shiorlari ni tarixchi sifatida yaxshi biladi. (Yozuvchi Farg'on davlat Universitetining tarix fakultetini bitirgan) Adib dunyoqarashi bir vaqt va, ehtimol, yaqin-yaqinlarga cha inqilob ma'nosini ifodalovchi shu shiorning kuchi ta'sirini boshdan kechirgan bo'lsa, ajab emas.

Yurt va ulus kechmishini yaxshi bilgan, xalqimizning o'z o'tmishiga to'g'ri qaray olishini yo'naltirish yo'lida

astoydil mehnat qilgan adibning mutaxassis o'laroq tarixchiligi, bu yerda qo'i kelgan.

Adib asarları o'z xalqi va vatanı tarixiga befarg bo'imagan, ulusi taqdirini hayotining mazmuni deb bilgan, kechmishni yaxlit ijobiy va salbiy tomonları bilan bir butun holda ko'ra oladigan, unga sog'lom, to'g'ri va teran nigoh ila boqa biladigan har bir vatandoshimiz ko'ngilda, fikru zakosida xira ko'rına kelgan qator so'rog'u savollarga ochiq-qoydin, ishonchli, vataniy ohangda javob beradi.

Siz bu jonli badiiy tasvirlarda Buyuk Amir Temurning Sulton Yildirim Boyazid va To'xtamishxon, Misr sultonlari Barquq va Nosir, Bag'dod hukmdori Sultan Ahmad Jaloyir va Qora Yusuf kabi ulkan tarixiy shaxslar orasida kechgan, bugunga qadar bahsu munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan nozik munosabatlar kabi qator tarixiy voqeя va hodisalarining eksik, tugunli tarafvari yechimiga shohid bo'lasiz. Tabir joiz bo'isa o'sha mislsiz suronli yillar va yulduzli onlarning bevosita ishtirokchisiga aylanasiz.

Zamonlar o'zgardi, dunyoqarashlar yangilandi. Hayot va davr inqilobi to'ntaruvg'a chorlash to'g'ri bo'imaganini ko'ssatdi. Yangi zamon uchqundan o't olish emas, uchqundan alanga chiqib ketmaslik g'oyasini ma'qulladi. Yozuvchi Nurali Qobil dunyoqarashida qaror topgan bu badiiy g'oya uning "Yetti iqlim xoqoni" romanida Sohibqiron obrazı bilan tutashdi va uning siyemosidagi tarixiy haqiqatni yoritishda ayni muddao bo'ldi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinci tomon dan, Amir Temur siyomosi va faoliyatida ifodalangan bu g'oya, ayni vaqtda, yozuvchi uchun asarning zamonaviy ruhini teranlashtirishda, ayni qo'i keldi. Zero, "uchqundan alanga chiqib ketmasin" degan fikr va unda o'z ifodasini topgan g'oya xuddi shu kunimizda deyarli barcha qit'alarda – Osyo-yu Ovruco, Arab mamlakatlari-yu Afrika, Rossiya-yu Eron va hokazo mamlakatlarda ro'y berayotgan talotumlar, hamda o'zaro munosabatlarda charsillab turjan uchqunlar va

ularning o't olib ketishi mumkinligiga ishoradek tuyulmaydimi?

Romaning zamonaviy ahamiyati va mohiyati haqida gap borar ekan, shu mavzu nuqtayi nazaridan asarda Temur siymosida badiiy aks ettiligan yana bir masalaga qisqacha to'xtab o'tish o'rini bo'ladi.

Ko'pdan-ko'p tarixiy manbalardan ma'lumki, Amir Temur dini islam aqoidalarini nihoyatda mahkam tutgan va butun umrini, qudratini uning mavqeinei mustahkam-lish uchun satarbar etgan siymodir. Ulug' xoqon haqidagi barcha asarlarda bu masalaga deyarli beistsno ravishda alohida e'tibor beriladi. "Yetti iqim xoqoni" ham bundan istisno emas albattra.

Lekin Nurali Qobulning boshqa adiblardan bu masalaga munosabatda malum darajada farqi shundan iboratti, u mazkur muammo da boshqa adiblar tutgan yo'ini takrorlamaslikka harakat qiladi. Bu o'zgalarни takrorlamaslik xohishigina emas, Amir Temurning islam diniga munosabatidagi muhim hayotiy va tarixan haqqoniy nuqtalardan birini teran badiiy gavdalantirish zaturatidan kelib chiqqan ijodiy pritsipning namoyon bo'lishidir.

Amir Temur islam diniga naqadar va nechog'lik sadoqatli bo'lmasin, u islam bilan aloqador barcha masalalarga beitsino va ko'r-körona ergashgan emas. Uhga ong'li ravishda itoat qilgan dahodir. Zero, uning shaxsida tajassum topgan tiyrat va qudrat ham shuni taqozo etadi. Amir Temur din vakillari qiyofasidagi insoniyat va islam manfaatiga mos, mutanosib keluvchi va ularni to'g'ri yo'iga targ'ib etuvchi jihatlarini qo'llab-quvvatlagan. Adib ulug' xoqonning dinni suiste'mol qiluvchi kimsalarga qarshi bo'lgan qiyofasini ham ko'rsatib, uning xarakteridagi to'laqonlik masalasida jiddiy muvaaffaqiyatga erishadi.

"Bizning din nimayu dinsizlik nimaligini farqlamaydigan, dindan faqat shaxsiy manfaatlari yo'ilida foydalanadigan muslimlarning boshidan hech qachon janjalu ofat arimaydi" deydi Temur. "Qavm qan-

chalik xudojo'y va taqvodor bo'lmashin, u ilm hamda marifat sari intilmas ekan, itning keyingi oyog'i bo'lib qolaveradi" degan fikrda yozuvchi Ulug' Amiring, bir jihatdan, cho'rtkesar va qat'iyatli xarakterini ko'ssata olsa, boshqa tomondan ham asar, ham qahramonning zamonaviy shaxsiyatini ochishdagi mahoratini namoyon etadi.

Nurali Qobul Amir Temurning islamga munosabatidagi qat'iy va nozik tutumini jahriya tariqati ta'llimotiga qarashlarida ham aniq ifodalaydi. Jahriya tariqating ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Bobo Sanguning tutayotgan yoliiga qarshi ekanini bildirib, Ulug' xoqon asar lavhalaridan birida shunday deydi: "Xudo Qur'oni karimni va bu dunyonni triklar uchun yaratgan. Bu shayx esa uzlatga chekingan. Ni'ma, bu Alloha qarshi isyonmu? SHu, bois dinni parchalovchilardan ehtiyyot bo'limoq kerak. Har bir ish aql-idrok doirasida bo'imog'i kerak".

Hozir, hatto XXI asrda ham keng jo'g'rofiy iqimlar-dagi islam dunyosida turli tarafchilik ko'zga tashlanishi Qobul tasviridagi Amir Temur siymosi bu masalada zamondoshsharlarimiz uchun buyuk bir libratdir. Bazi bir "...gumroh dindorlar din bayrog'i ostida ulusimiza qarshi kurashmoqdalar" deydi bir o'rinda amir Boboturk. Bu – o'rinda, birinchidan din niqobi ostidagi xatti-harakatlarni idrok etishda Ulug' Amirkhan bo'imagenanini kuzatamiz, ikkinchidan bu tasvir bizni olis moziyadagi qo'ndoqdan qolgan holatlarga gunoh etmoqdan tashqari, asar o'zining hozirgi kitobxonalarini ushbu masalada ogoh va hushyorlikka chaqirayotgandek bo'ladi.

Asar manzaralaridan birida yozuvchi qahramon tilidan "vataniy ishlar" degan iborani ishlataldi va, bu tasodifiy bo'lmay, asar g'oyasiga daxldor badiiy qirranging namoyon bo'lishidir. Gap shundaki, yozuvchi

romanda Millat va Vatan degan tushunchaga, yoxud so'zlarga ko'p ham urgu beravermaydi. Agar yanqlishmasam, butun boshli romanda o'rnii bilan ular yo'l-yo'lakay ikki-uch marta ishlataladi xolos. Kitobxon bunga ko'p ham e'tibor bermasligi mumkin. Lekin yozuvchining ustaligi shundaki, u asarida bu so'zlarini qayta-qayta takrorlamay, Amir Temur hamda uning atrofidagi Boboturk, amir Sayfuddin, Tohir tarixchi, kitobdor Orif Buxoriy, O'tkun Tegin baxshi va boshqa o'nlab sadoqatli beklariidan iborat qahramonlar timsolida vataparvar, mamlakatparvar, shu maqsad yo'iida jonini fiddo qilishga tayyor jo'mard va halol insonlar qiyofasini gavdalantira olgan.

Qo'shdaryo orasi va atrofida yovuz mo'g'ullar zulmiga barham berish uchun kurashib yurgan yosh amir-lashkar Temur o'z safdoshlariga: "Ularga xonlik kerak, bizga esa Vatan" deydi mardonavor ohangda. Uning bu, faqat eng yuksak vataniy axloqqa ega bo'la olgan shaxsiyat ayta oladigan bashoratl so'zini romanning har bir bob va sahifasida his etasiz.

Amir Temurning "saroy ahlimiz ona tilida gapirishni unutib qo'yemoqda" deyishi, madrasa, masjid, devonda, asosan turkiy tilni qo'llash haqida farmon tayyorlashni zarur deb bilihi, Qur'on karimning "ilk turkiy tafsir"ini yaratishga buyruq berishi, "Devoni lug'atit turk" "Qutadgu bilik"ni ko'proq nusxalarda ko'chirtilishni topshirishi, bir jihatdan, uning millatparvar, vataparligiga ishora bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy til, bu millat va Vatanning asosiy kuch-qudratini his etish, hamda uni muqaddas tutish masalasida hozir biz bilan hamkor va hamnafas ekaniga badiiy urgu demakdir.

Gap asardagi bosh qahramon obrazi tasvirida o'z ifodasini topgan Sohibqironning davlat tiliga munosabati masalasiga kelib taqalar ekan, umuman, "Etti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt" romanining badiiy tili

xususida qisqagini to'xtab o'tish o'rini bo'ladı. Asarning tili boy, go'zal, manzarali, ruhiyatli va tarixiy. Romanning badiiy tili fokusida siz o'zingizni ruhan asarda tasvirlanayotgan tarixiy zamон va muhit ichida yashayotgandek his etasiz. Yozuvchi nutqini hisoblamaganda qahramon nazaridan o'tgan biror bir lavha, qahramon monolog-nutqi, dialog, o'y-kechinmalar tasviri yo'qki, faqat hozirgi adabiy yoki badiiy tilidagina berilgan bo'isin. Roman boshidan oxirigacha o'zining tarixiy bo'yodkorligi bilan ajralib turadi. Bir tarafdan aniq va timiq tarixiy ranglilik, ikkinchi tarafdan, til usullarini bugungi kun kitobxon hech qynalmasdan idrok eta olishiga bo'yundirish... Badiiy tilidagi bunday uslubga erishish tarixiy asar yozayotgan adib uchun oson bo'lmagan, mashaqqatli ishdir. Bunga tarixni, o'sha davr tilini, tarixiy manbalarni o'rganish orqaligina erishish qiyin. Bunga tasvirlanayotgan tarixiy zamondagi til ruhiyatni, va ruhiyatidagi til adib idrokidan tashqari uning tuyg'ulariga chuqur singib ketgandanga erishish mumkin. Nurali Qobilning Buyuk Temur dahosi bilan birga u mansub turkiy ruhiyatga cheksiz va hatto, ba'zan tizzinsiz lisoniy muhabatti butun asar bo'ylab balqib turadi. Agar badiiy tilga oshuftalik sizga begona bo'limasa, ajoyib musiqa, chappor urib gullagan bog'lar, moviy dengiz, oppoq qorga burkangan tog' cho'cqilar, chaqaloqning qiqirlashlari, sog'ingan do'stlarning diikash suhbatini sizga tariflanishi qiyin bir huzur bag'ishlaganiidek, bu romanning badiiy tilidan ana shunday rohatlanish his etasiz. Bu adibning turkiy adabiy va badiiy tilining tarix va bugundagi joziba va go'zalligini bliishga emas, chuqur his etishi tufaylidir.

Tasvirlanayotgan fel-atvor va xarakterni aniq tasavvur etmasdan, yurakdan his qilmasdan turib, qahramonlar tilidagi go'zalikka erishish, ya'ni asar tilini badiylashtira olish mumkin emas, albatta. Bu masalalarda yozuvchi o'zining avvalgi "Buyuk turon amiri" romanida qisqagan nisbatan, jiddiy yutuqlarga erishgan, deb xulosa chiqarish mumkin. Bu bilan asar tili ideal darajada

demoqchi emasman. Unda goh-goh izohtalab so'zlar uchrab turadi. Ayrim qahramonlarda til nuqtayi nazaridan individuallik doim yorqin ko'rnavermaydi. Lekin bundan qat'i nazar tarixiy qatlamni saqlagan holda, bugungit turk adabiy-badiiy tilidan unumli foydalana bilish, hamda, hozirgi o'zbek adabiy-badiiy tilidagi olis tarix ruhyatiiga mos lisoniy biriklarni mahorat bilan tasarruf etish, roman badiiy tilidagi jozibani ta'minlagan omilalar hisoblanadi. Tarixiy asarda – moziy tilidagi xoslikni saqlagan holda bugungi kitobxon qynalmay, tushuna-digan badiiy tilini tasarruf etish yozuvchi oldidagi eng qiyin vazifalardan biridir. Nurali Qobil ana shu vazifani yuqori saviyada uddalay olgan.

**Shu o'rinda yana bir narsani alohida takidlash joizki, mualifning men o'qiganim ikki roman, o'zbek ababiyotida arab, fors va boshqa xorijiy tillardagi so'zlar eng kam ishlatalig'an Abdurauf Fitrat ijodidan keyingi ikkinchi asarlardir.**

Butun asar bo'ylab, goh yozuvchi nutqida, goh deylik Otlamish xufya kabi qahramonlar tilidan ishlataladi-gan "hangama o'tirishning kashtas" qabilidagi go'zal xalqona iboralar, aforizm darajasidagi teran birikma-larga duch kelamizki, o'zbek tilining benihoya tarovatini ko'rsatuvchi bunday misollar romanga zeb berib turadi.

vomi ushbu romanga o'tgan amir Boboturk muhabbat tarixi muayyan bir tutimga yetmay, chala qolgandek tuyuladi. (Balki kelgusi, uchinchi yoki to'rninch'i kitobda bu voqealar tafsilotiga duch kelarmiz.)

Amir Temur obrazidagi addolatparvarlik, haqgo'ylik, muruvvat tarixiy hujjatlarga, tarixiy haqiqatga asoslangan. Lekin roman tasviridagi bu masallada ba'zan me'yordan oshgandek ko'rindi.

Romandagi voqe-a-hodisalar, qahramonlar xatti-harakati, o'y-fikrlar, ba'zi hollarda o'ta tig'iz, biri ikkinchisini siqishtirib qo'yayotgandek. Ba'zi hollarda ko'zga tashlanuvchi qisqa va go'zal tabiat manzaraları, yozuvchi nutqi mayjud. Lekin ular istagimizdan oz bo'lib, erkin havo va huzurli nafas vazifasini bajaruvchi bu unsurlarga kitobxon muhtojlik sezadi. Ayniqsa, roman janridagi asar o'qivchini toliqtirmasligi va zo'riqtirmasligi uchun bu badiiy zaruratlarning asar-dagi vazifasi muhim ekanligini yoddha tutishimiz kerak.

Romanda Temur tilidan aytiluvchi ajoyib monolog-fikrlar mayjud. (Suyurg'atmishni o'rtadan olib tashlash kerak, degan amir Boboturk fikriga munosabat bildirgan Temur monologini eslangu). Biroq ular ifodasida-gi ayrim monotonilik ba'zan badiiy ta'sirdagi effektni susaytirib qo'yayotgandek. Alp Turkash, Umarshayx, amir Sayfuddin va yana qator obrazlarning portreti va xarakteri tasvirida (masalan Qodir Kenagas darajasi-dagi) individuallik yanada kuchaytirilisa yaxshi bo'lardi.

Yozuvchi Amir Temurdagi qattiqqlik, qat'iyl va cho'rkkesarlilikni ba'zi lavhalarda keragidan (masalan, Sheroz voliyisi Shoh Shuj'oning o'g'li Zaynobiddinga munosabatda ko'ringanidek) ortiqroq darajada yum-shatish tamoyilini tulgan ko'rindi. Ayrim holatlarni hisobga olmaganda, u doimo va muttasi kechiruvchi, g'animlariga faqat yaxshilik tilovchi, ularni siylab, sovg'a-salom tortiq qiluvchi. Bu hol Sohibqironga ba'zan afsonaviy tus beradi. To'g'ri, Temurda o'sha ijobji xistatlar oz bo'imaganimi tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Lekin bundan qat'i nazar, Temur qiyofasi tas-

viridagi bu yo'nalishning quyuqlashuvı asarda izchil

realistik tasvir tipi o'z o'mini romantik tasvir tipiga bo'shatayotgandek taassurot uyg'otishi mumkin. Bu bilan biz ulug' amir qiyofasida jazolash-u qattingo'llik va shunga oxshash jihatlar ko'proq ko'rsatilishi kerak demoqchi emasni. Aksincha, jazoga munosiblarga o'ta ko'ngilchanlik, kechirinilik me'yordan ortiq tasvirianmagani ma'qul demoqchimiz. Zero, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishida badiiy me'yor buzilmasligi kerak, degan fikramiz.

## VII

Roman badiiy kompozitsiyasi va qurilishidagi yozuv-chining ko'pda sezilavermaydigan, lekin, mahorat va ustalik bilan tutgan yo'llini alohida ta'kidlash o'rini bo'ldi. Yozuvchi asar boshidan oxirigacha biror bir bobda syujetni an'anaviy usulda rivojlantrish yo'llini tutmaydi. U yoki bu hodisa, voqeani boshlab, uni tradition ravishda bir nuqtaga yoki tugallikka olib bomaydi. Vochenliishi, estetik idealining inkishof topishi masalasida yozuvchi: davr, zamon, muhit, hudud tasvirda tabiiy may qolasiz. Lekin tasavvuringizda ham taxayulingiz-muammosidagi nazokatni chuqur egallagani tutaylidir. Modern ruhdagi adiiblarning asar qurilishi, ko'pincha o'ta favquloddalik, haqiqat bilan shartliiqlikning qorishib ketiliishi, obsurdromo iashkilanish sezilib turadi. "Etti iqilm xoqoni"da esa, bunday emas. Matn zamirida, asosan realistik tasvir usuli yotadi. Makon va zamon, muammo va maqsaddagi ko'chish esa, shaklgina daxldor. Shu ma'noda "Yetti iqilm xoqoni" shakl va mazmun, kompozitsiya va syujetni aloqadorligini namoyon etish jihatidan romanchiligidim imkoniyatlarini boyitadi. Unda an'naviy tasvir usuli nazarimda modern romanchiligidining ilgor tajribalari bilan sing-

ishib ketgan holda bir uyg'unlik hosil etadi.

Romanning boshidan oxirigacha biror qism, bobda na Temurning yurishlari-yu, na janglari, na biror bir jitmoiy, siyosiy, intim voqealari va na xarakterning boshi hamda so'nggi bo'lgan tugal tasviri uchratmaymiz. (Holbuki, bu – roman janining an'anaviy va mustoz, yetakchi xususiyatidir). Lekin roman matnidan adib maqsadlari doirasida ular haqida tasavvurga ega bo'lamic. Ularni uyg'unlashtirib, bir butunlik hosil qila boramiz. Romanning bunday qurilishi va kompozitsiyasini yaratish oson emas. Bu uzoq va chuoq o'ylangan ijodiy mehnat va mahorat samarasidir.

Bu kompozitsiya va qurilish yozuvchi maqsadining g'oya bilan chambarchas bog'lanishidan kelib chiqadi, albatte. Zero, bosh maqsad Temur jahongirligi, fathlari, yurishlardagi sarkardalik shijoati, davlatu saltanating ulug'vorligi va shavkatini ko'rsatish emas, shuharning bunyod bo'liishiga asos solgan va rahnamolik qilgan, ahdi va taxtiga sodiq qolgan buyuk shaxsning xarakterini tasvirlash, uning muhitini va davrini badiiy gavdalantirishdan iboratdir. Bu ayni vaqtida ayrim, taxtegrasida ne-ne yorqin mash'alalar yonmasin, mu-shaklar bodroq sochmasin, beburdlikning ertasi, tanazzuldir degan fikrga teran badiiy ishoradir.

Buyuk Amir Temur taxtining qudrati buyuk ahdlargan munosib va mutanosib bo'lgani tufaylidir degan g'oya "Yetti iqilm xoqoni" romaniga boshdan oxiri nur sochib turadi.

Millat, Vatan, Turonga munosib hokimgina emas, kelajakda ularga munosib farzand bo'lish tuyg'ularini asrab-avaylash, Amir Temurning fikru zikri, vuju-dini muttasil iskanjada tutgan masaladir. Temurning chuqur o'y-fikrlarga berilgan chog'dagi: "Davomli zulm va bosqinlar, bu ellarni faqat bir parcha ekmak ijinjida yashamoqqa majbur etdi. Yurt so'raganlar esa o'z to'qligi va amaliga mahliyo bo'lli, eldan uzelib yashayverdiar. Ulus dunyo ila bog'liqlik, olam bilan muloqot va katta xalqlarga xos fikrlamoqdan olislashdi... Millat

ma'naviy zARBalar ta'sirida o'zligini yo'qotish yo'lidan ketaverGAN. Oyoqqa turishga ulgurmasdanoq boshiGA uraverGANlar. Natijada Turon yurti asl egalarining emas, qochgan-pisGAN o'tkinchi qavmlarning mas- kaniga aylangan" singari fikrlari bu ulug' shaxsning u yoki bu yurtni egallash, davlat va mamlakatni ken- gaytirish, mustahkamlashgina emas, millat boshini birlashtirish va mustahkamlash, yuksaklikka eltish, uning bugunidan tashqari, kelajagi haqida qayg'urish bilan yashashni hayotining bosh amoli deb bilganini ko'rsatadi.

Yozuvchi muvaffaqiyatidan biri bosh qahramon xarakteridagi ana shu faziliatlarni teran tasvirlab bera olganida.

O'zlikni yo'qotmaslik, o'zlikni mustahkamlash, o'zlikning quadratini sindirmaslik – Temur vujudini ko'pincha band etgan tuyg'ular, o'y-xayolida doimo g'ujig'on urgan fikrlar – shulardan iborat. Bularsiz xalq ham, davlat ham, mamlakatu sultanat ham kuch-quvatini yo'qotib, teran va chucur iildizlaridan uzoqlashib, o'zgalar yetoviga tushib qolishi turgent gap. Bir el-yurt boshida turgan o'zga bir qavm esa, unga do'st va g'amxo'r bolishi qiyin. Yovlar va bosqinchilar, tarixiy raqibu dushmanlar iliga tushib qolgan xalqlar, tabiiy, o'zga xalqlarning oviga aylanadi. Yovlardan yo'riq olib yashamoqqa mahkum etiladi. Xalq o'zidan chiqqan Temur kabi daho farzandlarining sa'y-harakati tufayligina nurli bir manzilga yetib, insoniyat tarixidagi munosib ornini egallashi mumkin. Shekspir xalqlar shaxslarni boshqara olmaydilar, biroq shaxslar, xalqlarni boshqara biladilar, deganida shuni nazarda tutgan, albattra.

Biz romanning boshidan deyarli so'nggigacha Amir Temurni ana shunday o'y-xayollarga berilgan, o'zini o'zi ichdan tahsil etayotgan holatlarda kuzatamiz.

Muhtaram kitobxon! Siz romanni o'qib bo'ldingiz. Unima haqida ekan deb so'alsa, darhol va muxtar ravishda javob berishga qiyonalishingiz ham mumkin.

Va bu tabiiy. Chunki bu asarda biz boshqa romanlarda o'rganib qolgan, bir yoki, hatto, bir necha syu-jet liniyasi yo'q. Bir joyda boshlanib, boshqa bir joyda tugaydigan, mazmunini kimgadir aytib berish mumkin bo'lgan romanbop uzun voqe-a-hodisalar ham yo'q. Shu bois mazmunini aytil berishga qynalasiz. Bu – tasodifiy hol bo'imay, yozuvchi uslubda tanlab tarashlagan maxsus yo'idir. Boshqacha aytganda "Etti iqim xoqoni" asosan Buyuk Amir Temur shaxsini gavdalantirishga bag'ishlangan, tarix – insон – zamoni ichdan falsafiy ruhda tasvirlashga moyil romandir. U Sohibqiron haqida yaratilgan qator roman, drama, qissa dos-tonlardan yaxlitlikdagi ana shu xususiyati bilan farqlanadi. Roman ayni vaqtida, tarix misolda, Amir Temur timsolida o'zligimizni anglash muammolari badiiy yortilgan asardir.

Asarni o'qib tugatdik. Xo'sh, uning asosiy kontsept-siyasi nimada?

Temur aniq bir din, aniq bir millat, aniq bir davrga daxldor, aniq bir sultanat xoqoni bo'lgani bilan, faqat ulargagina mansub emas. Ulardan yuqoriroy qo'tarila olgan va hozirgi kunimiz bilan ham chambarchas bog'ianib, bizga kambaresta bo'la olishida. "Etti iqim xoqoni yoxud ahd va taxt" romanining yetakchi badiiy konsepsiysi mana shunda. Yozuvchi o'z oldiga mana shu konsepsiyanı badiiy gavdalantirishni maqsad qilib qo'ydi va o'yaymanki, imkoniyat darajasida erishdi. Bunga o'zingiz guvoh bo'lib turibsiz.

Ulluslar, hukmdorlar, hokimiyattar o'zaro bir-birlarini tushunmog'i kerak, yaratganning bandalari hamjihat bo'imog'i, xalqlar o'zaro birodarlashmog'i zarur, insoniyat tinch, osuda yashamog'ining birdan-bir yo'il, asosi shudir. Nurali Qobul Amir Temur fasatasi, u tepeasida turgan xoqonlikdagi ichki va tashqi siyosating mohiyati bo'igan shu muammolarni romanning

bosh g'oyasi sifatida belgililadi va bor kuchini asarda shu g'oyani badiiy gavdalantirishga qaratdi.

Roman nomi, "Yetti iqim xoqoni yoxud ahd va taxt" ekanı durrust. Ehtimol, "Yetti iqim va ko'ngil xoqoni yoxud ahd va taxt" ham bo'lishi mumkin edi. Zatan, asarning awvalidan oxiriga qadar Amir Temur ko'z o'ngimizda yetti iqimgina emas, inson ko'nglining ham sultoni sifatida namoyon bo'ladi. Keng jo'g'rofiy kengliklardi buyuk davlatni tuzmoq va fath etmoq uchun avvalo insonlar ko'nglini fath etib, ular boshini qo'shib, katta vataniy vazifalarga yo'naltira olgan Amir Sohib-qiron odamlarga bo'lgan ana shu cheksiz mehr-muhabbati qanotida tarixda har kimga ham nasib etavermaydigan yuksaklikka ko'tariidi.

Zero, muloqotlarimizdan birida mualif romanga nom tanlaganda, asliida, xayolida "Qalb qasrining sultoni" jumiasi aylanganini va uni boshqa bir jillarda qo'llamoq niyatida ekanligini ta'kidladi.

Asar voqeaları va qahramonlarning o'y-fikrlari, mulohazaları nima haqda bo'lmasin, ularning zamiri va vujudi Sohibqiron o'y-fikrlari va falsafasiga borib bog'langan holda, qismat, taqdır, inson – ularning Alloh, jamiyat, millat va Vatanga munosabatlari muammolariga tutashib ketadi.

Asar nihoyasiga yaqinroq, Amir Temurning: "Biz avlodlar ko'zi va aqlining taxxini ochadigan ulug' ishlarni amalgal oshirmog'imiz kerak", degan fikrida o'z ifodasini topgan romanning tub badiiy g'oyasi bizning qalbimizda ham aks sado berayotgandek his etamiz o'zimizni. "Keleguvchi nasllar uchun bizning fathlarimizdan ko'ra, xayrli ishlarniz ibratlidir", deydi illug' amir yana bir orinda. Bizni xuddi ko'rib turib ayttilayotgan-dek bu so'zlar, ko'nglimizda ana shu xayrli ishlarning vorislari ekanimizni yanada chuquarroq tuyish g'ururini uyg'otadi, yuksaltiradi. Nurali Qobulning "Yetti iqim xoqoni yoxud ahd va taxt" romanı, ana shu e'tiqod va shuurimizni yanada mustahkamlaydi.

## MUNDARIJA

Birinchi bob .....	3
Ikkinci bob .....	13
Uchinchi bob .....	23
Tortinchi bob .....	30
Beshinchchi bob .....	48
Oltinchi bob .....	74
Yettinchi bob .....	83
Sakkizinchchi bob .....	96
To'qqizinchchi bob .....	109
O'ninchchi bob .....	122
O'n birinchi bob .....	142
O'n ikkinchi bob .....	151
O'n uchinchi bob .....	159
O'n tortinchi bob .....	169
O'n beshinchchi bob .....	184
O'n oltinchi bob .....	196
O'n yettinchi bob .....	208
O'n sakkizinchchi bob .....	223
O'n to'qqizinchchi bob .....	240
Yigimanchi bob .....	254
Yigirma birinchi bob .....	265
Yigirma ikkinchi bob .....	278
Tarixiy haqiqat yog'dulari .....	296

**Adabiy-badiiy nashr**

**Nurali QOBUL**

## **YETTI IQLIM XOQONI**

Tarixiy roman

Muharrir: T. Qahhor  
Dizayner: Sh. Syunov  
Sahifalovchi: Sh. Umarova  
Texnik muharrir: Sh. Umarova

Litsenziya raqami: AI № 028

Bosishga 04.02.2020 da ruxsat etildi

Bichimi 84x108  $\frac{1}{32}$ .  
Nashr bosma tabog'i 20,0.  
Garnitura «Arial». Ofset qog'ozsi.  
Adadi 2000 nusxa. Buyurtma № 03.

Original maket «Ma'rifat-bitiklari» nashriyotida  
nashrga tayyorlandi.

«ADAD PLYUS» MCНJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.

